

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

Urganch Davlat Universiteti

Qo‘lyozma huquqida

YŷK: 930.(5)

Boboxonov Quvonchbek Shavkat O‘g‘li

Qadimgi O‘rta Osiyo davlatchiligi manbashunosligi va tarixshunosligi

(miloddan avvalgi VII-milodiy IV asr)

5A120302 «Tarix» (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yisha)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Dots. Q. Sobirov

Urganch – 2019

M U N D A R I J A:

KIRISH.....	3
I. BOB. O‘rta Osiyo bronza jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish manbashunosligi va tarixshunosligi.	
1.1. O‘rta Osiyoda bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarining temir davri jamiyati rivojlanishiga asos bo‘lgan manbalari.....	15
1.2. O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarning bronza davri tarixshunosligi.....	25
II. BOB. O‘rta Osiyo temir davri davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari.	
2.1. O‘rta Osiyo ilk temir davri davlatchilining manbashunosligi.....	36
2.2. O‘rta Osiyo temir davri davlatchiligini yoritilish tarixi.....	48
III. BOB. O‘rta Osiyo antik davr siyosiy birlashmasining yoritilishi manbashunosligi va tarixshunosligi.	
3.1. Antik davr tarixini o‘rganishda moddiy ashyolar manba sifatida.....	58
3.2. Yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarda antik davr davlatchiligining yoritilishi.....	71
XULOSA.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	86
ILOVALAR	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Oʻrta Osiyo (mustaqillik yillarida tarixiy adabiyotlarda markaziy atamasi uchray boshladi). Qadimgi Sharqning tarkibiy qismi boʻlib, uni faqat hududiy jixatidan Amudaryo ajratib turadi. Taʼkidlash kerakki, u geologik tuzilishi jixatidan qadimgi sharq davlatlari tizimida boʻlib, dehqonchilik, shaharsozlik madaniyati va davlatchilik masalasida sharq davlatlari bilan bir qatorda turadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida chop qilingan nashrlarda Oʻrta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari shaharsozlik madaniyati borasida jahon sivilizatsiyasi rivojida Eron, ikki daryo oraligʻi, Hindiston, Xitoy va Kavkaz orti davlatlari bilan bir qatorda turadi. Oʻrta Osiyo materigi geografik jixati va iqlim sharoiti oʻziga xos tabiati jihatidan bir-biridan farqlanadigan tarixiy-madaniy viloyatlaridan iborat. Uning umumiy tabiiy-geografik tavsifidan kelib chiqsak, hudud siyosiy-maʼmuriy, iqtisodiy, etnik chegaralarga mos kelmaydi. Ular juda tarixiy-geologik rivojlanish davomida betakror tabiiy-hududiy hosili tariqasida shakllangan. Oʻrta Osiyoning umumiy uzunligi 9950 km boʻlib, shundan 8650 km quruqlikdan oʻtadi. Qolgan hudud suv orqali oʻtadi, bu Kaspiy dengizi bilan bogʻliq (1300 km)¹. Hudud Chor rossiyasi davrida Turkiston deb atalib, u beshta viloyatdan iborat edi. Shoʻro davri tarixshunosligida Oʻrta Osiyo termini adabiyotlarda oʻrin olgan. Mintaqada etnik tarkibi xilma-xil aholi guruhleri istiqomat qilib, ular iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlganlar. SHu bilan birga, ularning diniy eʼtiqodlari yagona boʻlib, bir geografik kordinatda xoʻjalik soxalarini rivojlantirishda markazlashgan davlat raxnamolik qilgan. Oʻrta Osiyo hududida qadimgi davrda turli elat, qabila va xalq yashaganligiga Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A Karimov Qadimdan Turkistonda qabila va xalqlar aralash joylashgan boʻlib, bunga mushtarak madaniyatlari va tillari tufayli chambarchas bogʻliq boʻlgan odamlarning voxalarda yashaganliklari va xoʻjalik hayot kechirganliklari sabab

¹ Баратов П, М.Маматқулов, А.Рафиқов. Ўрта Осиё табиий географияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 2002, Б. 5.

bo'lgan. Mintaqaning etnik xususiyati va bunday rang-barang bo'lishiga unda yashaydigan xalqlarning etnomadaniy va diniy yaqinligi ham yordam bergan².

O'rta Osiyoning tabiiy-geografik xaritasiga nazar solsak, rang-barangligini ko'ramiz. Albatta bunga osmono'par tog'lar, vodiy va soylar, suv xavzalari, ko'llar, botqoqliklar, balandlik va qirlar, Daryolar namoyon qilgan mintaqaning dehqonchilik voxalariga aylanishida tog'lar muhim o'rin egallagan. Osmono'par tog'larda qor-yomg'irlar suvlari, qorning qoplanishi ularning issiq harorat darajasida erishish ko'psonli jilg'alarni hosil qilgan. Mazkur jilg'alar pasttekislikda suv xavzalarini, soylarni hosil qilgan. Shu bilan ular daryolarining to'yinishiga muhim o'rin tutgan. O'rta Osiyo sersuv daryolardan Amudaryo va Sirdaryoni ko'rsatish mumkin. Tajan, Murg'ob daryolari dehqonchilik vohalarini hosil qilishida muhim rol o'ynasada, Amudaryoni Sirdaryo kabi ser suv emas. Mintaqaning tabiiy-geografik joylashishning quyidagi tarixiy-geografik regionlarga ajratish mumkin.

I. O'zbekistonning geografik xolati.

1. To'rt tomoni tog' bilan o'rab olgan iqtisodiy zona Farg'ona vodiysi.

2. Bir tomoni tog'larga ega bo'lgan zonalar

A) Surxondaryo voxasi-shimoliy, shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy hududi tog'larga ega.

B) Angor, Termiz, Jarqo'rg'on, Sho'rchi tumanlari pasttekislik.

V) Sherobod, Boysun, Sariosiyo, Denov tog'li hududlar.

II. Zarafshon vodiysi geografik jixatidan 3 qismga ajratiladi.

1-qism-janubiy-Qashqadaryo voxasi tog'li hudud. Janubi-g'arbiy qismida tog'lar mavjud emas.

2-markaziy qismi-tog'li va tekislik zonasi

3-G'arbiy qism-pasttekislik

² Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида хавсизликка таҳдид, Барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари –Т.: “Ўзбекистон”, 1997, Б. 76.

III. Xorazm voxasi-asosan pasttekislik, balandlik, qir va botiqlardan iborat osmono‘par baland tog‘lar mavjud emas. Sulton Uvays, Qoratog‘, Yumirtog‘ va Qubatog‘lar 500 m dan oshmaydi.

Amudaryoning so‘l soxili hududi pasttekislikdan iborat. Qoraqalpog‘iston respublikasi asosan pasttekislik hamda Ustyurt tekisligidan iborat.

Toshkent vodiysi tog‘li va tekislik iqtisodiy zona hisoblanadi.

Janubiy Tojikiston tog‘li hudud.

Janubiy Qozog‘iston tog‘li va tekislik hudud Turkmaniston respublikasi Qoraqum pasttekisligida 4/5 qismini egallaydi. Janubiy qismida Kopetdog‘ joylashgan bo‘lib, uning balandligi 3 ming metrdan oshmaydi. Mintaqada insonning faoliyat olib borishi tarixiy davr va uning turon bosqichlarida yuz bergan. Sho‘ro davrida markaz va mahalliy oliy muassasalarning arxeologik ekspeditsiya va arxeologik guruhlarini aholi turar-joylarda keng qamrovli arxeologik tadqiqotlarni olib borib, yuksak natijalarga erishganlar. Darhaqiqat, olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari monografiya, risola, maqola, tezislari hamda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalar mazmunlarida o‘z ma‘nosini topgan. Afsuski, O‘rta Osiyo mintaqalarda kechgan tarixiy jarayonini yoritadigan noyob ashyolar olingan bo‘lsa ham, tadqiqotchilar tomonidan qadimgi davr manbashunosligi va tarixshunosligi bo‘yicha hanzgacha yakuniy tadqiqot mavjud emas. Biz magistrlik ishimizda O‘rta Osiyoda shaharsozlik madaniyati, davlatchilik masalalari manbashunosligi va tarixshunosligi mavjud bo‘lgan nashrlardagi tarixiy ma‘lumotlar asosida nazariy-qiyosiy taxlil qilinishi maqsad qilib oldik. Bizning uchun O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda ko‘psonli arxeologik ekspeditsiyalar va guruhlarining aholi turar-joylarida olib borgan izlanishlarni davrma-davr yoritishiga etiborni qaratish lozim deb topdik. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda ilk bor eng qadimgi va qadimgi davr tarixiga oid materiallar XX asrning 30-yillari o‘rtalaridan Xorazm voxasidan boshlangan³. Tadqiqotchilarning ilk monografiyasida eng qadimgi qal‘alar bo‘lgan Ko‘zaliqir, Qalaliqir, Bozorqal’a yodgorliklari tarixida ilk ma‘lumotlarni qayd qilgan. Shuni

³ Толстов С.П. Древний хорезм. –М.: “Наука”, 1948.

ta'kidlash kerakki, XX asrning 50-yillarigacha O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarida qadimgi davr yodgorliklarida arxeologik qazishmalari olib borilmagan edi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab Tojikistonda A.M. Belenitskiy, A.Yu. Yakubovski rahbarligidagi arxeologiya ekspeditsiyasi, A.N. Bernshtan rahbarligidagi ekspeditsiyaning Qirg'izistonda olib borgan arxeologik tadqiqotchilar, M.E Masson rahbarligidagi janubiy Turkmaniston arxeologiya-kompleks ekspeditsiyasining Kopetdog' oldi etaklari, Murg'ob va Atrek daryolari havzalarida olib borgan arxeologik tadqiqotlari O'rta Osiyo davlatchiligi manbashunosligiga oid ashyolar olindi. Ularning natijalari nashrlar mazmunini qamrab oldi. O'zbekistonda ham markaz va mahalliy arxeolog olimlar tomonidan viloyatlarda keng qamrovli arxeologik izlanishlarni olib bordilar, natijada davlatchilik tarixini yoritadigan manbalarni olishga erishdilar. Yu.A. Zadneprovskiy Farg'ona vodiysida⁴, Ya.G'. G'ulomov Quyi Zarafshon havzasida⁵, V.A. Shishkin Buxoro vohasida⁶, Toshkent vodiysida Yu.F. Buryakov⁷, M.A. Filanovich⁸ Surxon voxasida A.Askarov, L.I. Albaum Ko'shktepada, A.S. Sagdullaev Qiziltepada, G.A Putchennova Dalvarzintepada, Q. Sobirov Zartepada hamda Sh. Pidaev Aysoritepa, Mirzaqultepa va bir qator qishloq tipi turar-joylarida arxeologik va antik davr davlatchiligi tarixiga oid ashyolar olishga erishganlar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sho'ro davrida O'rta Osiyoda markaz ilmiy muassasalari hamda mahalliy ilmiy markazlarning birlashgan arxeologik ekspeditsiyalari va alohida mahalliy ilmiy markazlar huzurida tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining arxeolog olimlari tarixiy-geografik mintaqalarida olib borgan arxeologik qazishmalar natijalariga asoslangan nashrlar mazmunini qamrab olgan ma'lumotlar nazariy manba bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga mustaqillik yillarida O'zbekistonda qadimgi dunyoga mansub aholi

⁴ Заднепровский А.Ю. Древнеземледельческая культура Ферганы -М.: "Наука", 1962.

⁵ Гуламов Я.Г, У. исломов, А.Аскарлов. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелья в низовьях Зарафшана. -Т.: "Фан", 1966.

⁶ Шишкин А.В. Варахша. -Т.: "Фан", 1963.

⁷ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. -Т.: "Фан", 1982.

⁸ Филанович М.А Ташкент: Этапы и развитие города и городской культуры. -Т., 1983.

markazlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Janubiy Qirg'iziston, janubiy Qozog'iston, Tojikiston va Turkmanistonda arxeolog olimlarning aholi turar-joylarida olib borgan qazishmalari natijalari internet orqali olish imkoniyati mavjud. Miloddan avvalgi VII-milodiy IV asrlarda O'rta Osiyo qadimgi dunyo tarixi va uning davlatchiligi manbashunosligini tarixshunosligini quyidagi tarixiy davrlarda ajratib yoritish maqsadga muvofiq. O'rta Osiyoda davlatchilikning manbashunosligi va tarixshunosligi tarixiy davr va uning bosqichlarida arxeologik qazishma ishlari natijasida olindi va shu asosda tarixshunoslik fani vujudga keldi, shakllandi:

1-tarixiy davr XIX asrning 80 yillar o'rtalari – XX asrning 20 yillar o'rtalari;

2-tarixiy davr XX asrning 25 – 40 yillar;

3-tarixiy davr XX asrning 40 yillar o'rtalari – 90 yillar;

4- Mustaqillik yillari (1991-2018 yillar).

Yuqorida qayd qilingan davlatchilikning manbashunosligi va tarixshunosligini tarixiy-madaniy mintaqalar tarixiy davr bo'yicha yoritishni maqsad qilib oldik.

XX asrning boshlarida Amerikalik geolog olim R. Pumpelly janubiy Turkmanistondagi Anov yodgorligida qazishma ishlarini olib borib, olingan ashyolar taxlili asosida yodgorlikda to'rtta davr mavjudligini qayd qilgan⁹. Anovda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tarixi nashr qilindi. Shu tariqa Turkmanistonda arxeologik tadqiqotlar davomida eneolit va bronza davriga oid tarixshunoslik fani vujudga keldi.¹⁰ 1930-31 yillarda A. Ma'rushenko Ashxobod shahari yaqinidagi Oqtepada qazish ishlarini olib borib ilk temir davri tarixiga asos bo'lgan manbalarni olishga muvassar bo'lgan. Olingan natijalarning ilmiy taxlili nashrlarida yoritib, bronza davri tarixshunosligini davom ettiradi.¹¹ Bukinchning janubiy Turkmanistonda Aktepada olib borgan arxeologik qazishmalar natijasida olingan ashyolar hamda uning ilmiy taxlili ikkinchi tarixiy davrni boshlab berdi.

⁹ Pumpelly R. Archeological and Phisico-Geogrephical Reconnaissance in Turkeстана Carnegie Institute of Washington, Publication, 26. 1905.

¹⁰ Explorations in Turkestan. E1? By R Pumpelly. Washington. Von-I, II 1908.

¹¹ Букинч Д.Д. История первобитного орошаемого земледелия в Закаспийской области в связи с вопросы о происхождения земледелия и скотоводства “Хлопковое дело” №3-4, 1924, с 92-135.

Mazkur tarixiy davrda Xorazm vohasida S.P Tolstov rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya neolit, eneolit, bronza, ilk temir va antik davrga oid aholi markazlarida qisman qazishma ishlari olib bordilar. Shu bilan birga yuqorida qayd qilingan davrlarga oid yodgorliklarini ro'yxatga olgan. Arxeologik qidiruv va olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ma'lumotlar va ashyolar ilmiy taxlili amalga oshirilib, ular maqola sifatida e'lon qilingan xolos.

A.I Terenojkin Oqchadaryo havzasida arxeologik dala amaliyotini olib borib, antik davrga mansub aholi yodgorliklarini ro'yxatga oldi, ular tarixi yoritilib, mazkur hududning antik davr tarixshunosligini boshlab berdi¹².

O'zbekistonning boshqa viloyatlarida ilk temir va antik davrga mansub yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tarixiy davrning xarakterli tomoni shundaki, O'rta Osiyoda bu tarixiy davrda bronza, arxaik va antik davr yodgorliklari Xorazmda ro'yxatga olindi, ular to'g'risida tarixiy ma'lumotlar qayd qilindi. Mazkur tarixiy davrda bosqichma-bosqich O'rta Osiyo mintaqalarida temir va antik davrlarga mansub aholi markazlarida arxeologik qazish ishlari olib borildi, natijada uning manbashunosligi va tarixshunoslik fanlari rivojlandi.

1. O'zbekiston hududida temir va antik dunyo aholi turar-joylari manbashunosligi va tarixshunosligi quyidagi darajada bo'lgan. Mazkur jarayon Xorazm vohasida davom ettirildi, olingan manbalar va uning ilmiy tarixi S.P Tolstovning uchta asarida yoritildi¹³. Xorazm vohasi arxaik va antik davrga oid yodgorliklar manbalari va uning tarixiy tahlili Ya.G' G'ulomovning fundamental asarida qayd qilingan¹⁴. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlaridan M.G Vorob'yeva, Yu.A Rapoport, M.S Lapirov-skoblo, E.E Nerazik, B.I Voynberg tadqiqotlarida eng qadimgi va antik davr yodgorliklaridan olingan manbalar o'rin olgan. Shu manbalarga

¹² Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. // СА, №6, 1940, С. 168-175.

¹³ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948.

Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М.: “Наука”, 1948.

Ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарты. –М.: “Наука”, 1962.

¹⁴ Гуломов Я.Ф. Хоразмининг суғорилиш тарихи. –Т.: “Фан”, 1959.

asoslanib tarixshunoslik fanini rivojlantirdilar¹⁵. Maxalliy arxeologlardan A.V Gudkova, M. Mambetullayev, G'.K Xodjaniyozov, Yu.A Manilov¹⁶ Zarafshon voxasida, A.S Sagdullayev, T.V Belyaeva Nurtepadan temir davriga oid manbalarni olgan.¹⁷ Toshkent vodiysida temir davriga oid manbalar Oxangaron daryosining o'ng qirg'og'i o'rta oqimidagi Burgulyuksoy atrofidan olingan¹⁸.

Miloddan avvalgi III asr oxiri-II asr boshlariga oid Toshkent viloyati yangi yo'l tumani hududida joylashgan Qovunchi madaniyati o'rganilib, o'sha davrga oid manbalar olingan. Antik davrga mansub manbalar Toshkent vodiysida Kavardan, Xonqa yodgorliklaridan ham olinganligini qayd qilish joiz. Surxandaryo viloyatida temir davriga oid manbalar A.S Sagdullayev tadqiqotlari natijalari bilan bog'liq¹⁹.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy –tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Urganch Davlat Universitetining ilmiy –tadqiqot ishlari rejalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'rta Osiyo davlatchiligi manbashunosligi va tarixshunosligi (Miloddan avvalgi VII-milodiy IV asr) masalasidagi muammolarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. O'rta Osiyo qadimgi davr davlatchiligining manbashunosligi va tarixshunosligini yoritishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'rta Osiyoda bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarning temir davri jamiyati rivojlanishiga asos bo'lgan manbalarini yoritish;

¹⁵ Войнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры / Кочевники на границах Хорезма –М.: "Наука", 1979. Воробьева М.Г. Раскопки архаического поселения близ Дингильдже. / МХЭ, Вып 1. –М.: "Наука", 1959. Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзели-гыр. / АО 1971. –М.: "Наука", 1972.

¹⁶ Гудкова А.В. Токкаль. Тошкент "Фан", 1964. Мамбетуллаев М. История и культура южного Хорезма античной эпохи (город и поселения в. IV в. до н.э-IV в). Автореф.дисс.докт. ист наук. Тошкент 1994. Ходжаниёзов К. Фортификация древнего Хорезма. Автореф.дисс.кан. ист наук, Нукус, 1996. Манилов Ю.П. Городище Кят. / Ону, №7,8. 1973.

¹⁷ Беляева Т.В. Нуртепа-город древней Уструшани / Археологические работы в Таджикистане. Вип XXIII Душанбе, 1991.

¹⁸ Дуке Х. Туябугизские поселения Бургулюкской культуры. –Т.: "Фан", 1982.

¹⁹ Сагдуллаев А. Усадьба древней Бактрии. –Т.: "Фан", 1987.

Ўша муаллиф. Культура северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа. Автореф.дисс.кан. ист наук, М, 1978.

- Oʻrta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarning bronza davri tarixshunosligini oʻrganish;
- Oʻrta Osiyo ilk temir davri davlatchilining manbashunosligini oʻrganish
- Oʻrta Osiyo temir davri davlatchiligini yoritilish tarixini ilmiy jixatdan taxlil qilish;
- Antik davr tarixini oʻrganishda moddiy ashyolarni manba sifatida izohlash;
- Yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarda antik davr davlatchiligining yoritilish masalasini ilmiy jixatdan taxlil qilish;

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining manbashunosligi. XX asr tarixchi tadqiqotchilar Oʻrta Osiyoda markaz ilmiy muassasalari hamda mahalliy ilmiy markazlarning birlashgan arxeologik ekspeditsiyalari va alohida maxalliy ilmiy markazlarga rahbarlik qilib, mintaqaning tarixiy-geografik mintaqalarida olib borgan arxeologik qazishmalar natijalariga asoslangan nashrlar mazmunini qamrab olgan maʼlumotlar asosiy manba boʻlib hisoblanadi. Shu bilan birga mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda qadimgi dunyoga mansub aholi markazlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari ham qoʻshimcha manba boʻlib hizmat qiladi. Janubiy Qirgʻiziston, Qozogʻiston, Tojikiston va Turkmanistonda arxeolog olimlarning aholi turar-joylarida olib borgan qazishmalari natijalari internet orqali olish mumkin xolos.

Miloddan avvalgi VII-milodiy IV asrlarda Oʻrta Osiyo qadimgi dunyo tarixi va uning davlatchiligi manbashunosligini quyidagi tarixiy davrlarda ajratib yoritish maqsadga muvofiq. Oʻrta Osiyoda davlatchilikning eng qadimgi va antik davrga oid manbalarni arxeologik qazishma ishlari natijasida olindi va shu asosda manbashunoslik fani vujudga keldi va shakllandi: Eng qadimgi va antik davr tarixini yoritadigan manbalarning olinish darajasi quyidagicha:

- 1- tarixiy davr XX asrning 30- yillar oʻrtalari va 41-yillar.
- 2-tarxiy davr XX asrning 40- yillar oʻrtalari va 90- yillar.
- 3- Mustaqillik yillari (1991-2018 yillar) .

XX asrning boshlarida Amerikalik geolog olim R. Pumpelly janubiy Turkmanistondagi Anov yodgorligida qazishma ishlarini olib borib, olingan

ashyolar taxlili asosida yodgorlikda to'rtta davr mavjudligini qayd qilgan²⁰. Anovda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tarixi nashr qilindi. Shu tariqa Turkmanistonda arxeologik tadqiqotlar nomida eneolit va bronza davri manbashunoslik fani vujudga keldi.²¹ 1930-31 yillarda A. Ma'rushenko Ashxobod shahari yaqinidagi Oqtepada qazish ishlarini olib borib ilk temir davri tarixiga asos bo'lgan manbalarni olishga muyassar bo'lgan. Olingan natijalarning ilmiy taxlili nashrlarida yoritganligi bois, ilk temir davri manbashunosligi vujudga kelgan.²² Bukinchning janubiy Turkmanistonda Aktepada olib borgan arxeologik qazishmalar natijasida olingan ashyolar bronza va ilk temir davri tarixiga manba sifatida foydalanish mumkin.

Mazkur tarixiy davrda Xorazm voxasida S.P Tolstov rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya neolit, eneolit, bronza, ilk temir va antik davrga oid aholi markazlarida qisman qazishma ishlari olib bordilar. Shu bilan birga yuqorida qayd qilingan davrlarga oid yodgorliklarini ro'yxatga olgan. Arxeologik qidiruv va olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ma'lumotlar va ashyolar ilmiy taxlili amalga oshirilib, ular maqola sifatida e'lon qilingan. Aholi turar-joylarida qazishma ishlari natijasida olingan moddiy ashyolar ilk temir va antik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jixatidan rivojlanishiga manba bo'lganligini aloxida qayd qilish joiz. Chunki, Xorazm voxasida eng qadimgi va antik davrga oid manbalar Oqchadaryo xavzasidan olinganini eslash lozim bo'ladi. A.I Terenojkin Oqchadaryo havzasida arxeologik dala amaliyotini olib borib, antik davrga mansub aholi yodgorliklarini ro'yxatga olib, ular to'grisida ma'lumotlarni qayd qilgan xolos.²³ Tadqiqotchi ularda arxeologik izlanishlarni olib borgan emas. Albatta, mazkur ma'lumotlar tadqiqotchilar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

²⁰ Pumpelly R Archeological and Phisico-Geogrephical Reconnaissance in Turkestana Carnegie Institute of Washington, Publication, 26. 1905.

²¹ Explorations in Turkestan. E1 By R Pumpelly. Washington. Von-I, II 1908.

²² Букинч Д.Д. История первобитного орошаемого земледелия в Закаспийской области в связи с вопросы о происхождения земледелия и скотоводства "Хлопковое дело" №3-4, 1924, с 92-135.

²³ Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. / СА, №6, 1940, с. 168-175.

O'zbekistonning boshqa tarixiy-madaniy viloyatlarida ilk temir va antik davrga mansub yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tarixiy davrning xarakterli o'ziga xos xususiyati shundaki, O'rta Osiyoda bu tarixiy davrda ilk temir va antik davrlariga oid yodgorliklarida Xorazmda davom ettirildi va yangi arxeologik ekspeditsiya va guruhlar tashkil etilishi bo'ldi. Qadimshunos olimlarning O'rta Osiyo mintaqalarda mazkur tarixiy davrda aholi markazlarida keng kamravli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida noyob manbalar olinganligini diqqatga sazovar. Mazkur tarixiy davrda bosqichma-bosqich O'rta Osiyo mintaqalarida ilk temir va antik davrlarga mansub aholi markazlarida arxeologik qazish ishlari olib borildi, natijada uning manbashunosligini fanlarini yanada rivojlantirdi.

1. O'zbekiston hududida ilk temir va antik dunyo aholi turar-joylari manbashunosligi fani Xorazm voxasida rivojlanish tarixi. Mazkur jarayon Xorazm vohasida davom ettirildi, olingan manbalar va uning ilmiy tarixi S.P Tolstovning uchta asarida yoritildi²⁴. Xorazm vohasi ilk temir va antik davrga oid yodgorliklar manbalari va uning tarixiy tahlili Ya.G' G'ulomovning fundamental asarida qayd qilingan²⁵. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlaridan M.G Vorob'yeva, Yu.A Rapoport, M.S Lapirov-skoblo, E.E Nerazik, B.I Voynberg tadqiqotlarida eng qadimgi va antik davr yodgorliklaridan olingan manbalar o'rin olgan²⁶. Mahalliy arxeologlardan A.V Gudkova, M. Mambetullayev, G'K Xodjaniyozov, Yu.A Manilov²⁷ Zarafshon voxasida A.S Sagdullayev, T.V Belyaeva Nurtepadan temir davriga oid manbalarni olgan²⁸. Toshkent vodiysida ilk temir davriga oid manbalar

²⁴ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948.

Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М.: “Наука”, 1948.

Ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: “Наука”, 1962.

²⁵ Гуломов Я.Г. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Т.: “Фан”, 1959.

²⁶ Войнберг Б.И. Памятники Кююсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма –М.: “Наука”, 1979.

Воробьева М.Г. Раскопки архаического поселения близ Дингильдже. // МХЭ, Вып 1. –М.: “Наука”, 1959.

Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзелигыр. // АО 1971. –М.: “Наука”, 1972.

²⁷ Гудкова А.В. Токқалъа. –Т.: “Фан”, 1964.

Мамбетуллаев М. История и культура южного Хорезма античной эпохи (город и поселения в. IV в. до.н.э.- IV в). Автореф.дисс. докт. ист. наук. Тошкент 1994.

Ходжаниёзов К. Фортификация древнего Хорезма. Автореф.дисс.кан. ист наук, Нукус, 1996.

Манилов Ю.П. Городище Кят. / Ону, №7,8. 1973.

²⁸ Беляева Т.В. Нуртепа-город древней Уструшани / Археологические работы в Таджикистане. Вип XXIII Душанбе, 1991.

Oxangaron daryosining o'ng qirg'og'i o'rta oqimidagi Burgulyuk atrofidan olingan²⁹.

Miloddan avvalgi III asr oxiri-II asr oxirida Toshkent viloyati yangi yo'l tumani hududida Qovunchi madaniyati o'rganilib, o'sha davrga oid manbalar olingan. Antik davrga mansub manbalar Toshkent vodiysida Kavardan, Xonqa yodgorliklaridan ham olinganligini qayd qilish joiz. Surxandaryo viloyatida temir davriga oid manbalar A.S Sagdullayev tadqiqotlari natijalari bilan bog'liq³⁰.

Tadqiqot ob'ekti. Mavzuga oid arxeologik ma'lumotlar, yozma manbalar, ilmiy tarixiy adabiyotlar va tarixshunoslik ma'lumotlari tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. O'rta Osiyo davlatchiligining manbashunosligi va tarixshunosligi (miloddan avvalgi VII-milodiy IV asr) tarixi.

Magistrlik dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi.

- O'rta Osiyoda neolit, eneolit jamiyatlarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yoritildi;
- Mazkur tarixiy davrlarda jamiyatning rivojlanishi bronza jamiyati rivojlanishidagi tarixiy ahamiyati izoxlandi;
- Bronza jamiyatida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ilk temir jamiyatining rivojlanishiga asos bo'lganligi ahamiyati yoritildi;
- ilk temir davrida aholi migratsiyasi taxlil qilindi;
- ilk temir davrida aholining daryo va uning irmoqlarini magistral kanallar chiqarilishi va shu munosabat bilan dehqonchilik voxalarining bosqichma-bosqich vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari izohlandi.
- Temir davri mobaynida O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda ziroatkor aholi tomonidan shaharcha va shaharlarning qurilish tarixi yoritildi.
- mazkur tarixiy davrda aholi markazlari bosh bo'lgan madaniy-xo'jalik markazlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

²⁹ Дуке Х. Туябугизские поселения Бургулюкской культуры. –Т.: “Фан”, 1982.

³⁰ Сагдуллаев А. Усадьба древней Бактрии. –Т.: “Фан”, 1987.

Ўша муаллиф. Культура северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа. Автореф.дисс.кан. ист наук, -М, 1978.

- chorvadorlarning O'rta Osiyoda joylashish kartografiyasi belgilab olindi.
- chorvadorlarning o'troqlashishi, mahalliy aholi bilan chatishishi natijasida loy me'morchiligi bilimini o'zlashtirib olishi natijasida shaharcha va shaharlarini bino qilishi tahlil qilindi;
- antik davr madaniy-xo'jalik markazlar to'g'risida ma'lumotlar berildi;
- qadimgi davrga oid aholi turar-joylari manbashunosligi bir tizimga keltirildi,
- eng qadimgi va antik jamiyati va aholi turar-joylari tarixshunosligi qarab chiqildi;
- miloddan avvalgi VII-milodiy IV asrlarda qadimgi O'rta osiyo davlatchiligi manbalari va tarixshunosligi borasida umumlashtirilgan tadqiqot yakun topdi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Magistratura yo'nalishi bo'yicha bajarilgan mavzu mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar O'rta Osiyo mintaqasida joylashgan mustaqil davlatlarni hududlarida miloddan avvalgi VII asrdan- milodiy IV asrni qamrab olgan davrda O'rta Osiyo davlatchiligining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda muhim nazariy manba bo'ladi. Shu bilan birga o'troq aholining joylashishi, tarixiy davr va uning turli bosqichlarida olib borgan xo'jalik soxalarida erishgan zafarlarni oliy ta'lim muassasalarida, umumta'lim va litsey maktab o'qituvchilarida O'zbekiston tarixi hamda maxalliy tarixni o'rganish va o'qitishda mavzu ma'lumotlari qo'l keladi. Magistratura mavzusida qayd qilingan ma'lumotlarini qardosh xalqlarimiz internet orqali olish imkoni mavjud. Chunki, istiqlol yillarida qo'shni ijtimoiy fan o'qituvchilari bilan madaniy aloqalar barham topgan edi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy nashrlarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Tadqiqot kirish, III bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning tadqiqot qismi 91 sahifadan iborat.

I. BOB Oʻrta Osiyo bronza jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish manbashunosligi va tarixshunosligi.

1.1. Oʻrta Osiyoda bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarining temir davri jamiyati rivojlanishiga asos boʻlgan manbalari.

Ilk temir davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik jihatidan rivojlanishiga bronza davri aholisining xoʻjalikning barcha soxalarida erishgan yutuqlari asos boʻlgan. Shuning uchun Oʻrta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda bronza jamiyatini qamrab olgan tarixiy jarayonlarni qisqacha yoritish maqsadga muvofiq. Arxeologik izlanishlar natijalariga koʻra, bronza davrida Oʻrta Osiyo tarixiy-geografik hududlarda bronza jamiyatining rivojlanishi bir xil darajada kechgan emas. Albatta bu jarayon geografik xususiyatdan kelib chiqqan. Oʻrta Osiyo mintaqalarda keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalaridan maʼlumki, bronza davrida ilk temir jamiyatining tez suratlar bilan rivojlanishiga asos boʻlgan moddiy va maʼnaviy ashyolar janubiy Turkmanistonning Kopetdogʻ oldi etaklari va Murgʻob daryosi havzasi boʻlgan.

Kopetdogʻ va Murgʻob daryosi buyuk Qoraqumda joylashib, geografik joylashish xususiyati bilan boshqa mintaqalardan farqlanish kuzatiladi. Masalan Kopetdogʻ dengiz satxidan oʻrtacha balandligi 1000-2000 m. Eng baland nuqtasi Rizo choʻqqisi boʻlib, uning dengiz sathidan balandligi 2942 m³¹. Mazkur hududda Amudaryo yoki Sirdaryo kabi hajmi katta va sersuv daryolar faoliyat olib bormaydi. Ularni oʻrta darajali daryolar sirasiga kiritish mumkin. Masalan Murgʻob daryosi-Bandi Turkiston tizmasining janubiy yonbagʻridan boshlanadi. Chuqurligi 852 km keyingi faoliyatida Qoraqumda davom etadi. Qoraqumga chiqqandan sekin oqib unga singib ketadi. Suv zaxirasi juda kam. Shunday boʻlsa ham, daryoning xavzasi atroflari odamzot tomonidan neolit davridan boshlab oʻzlashtirilgan³². Demak, insoniyat manfaatiga suv taʼminoti kam boʻlsa ham xizmat qilgan. Tajan daryosi- Afgʻoniston hududidagi Sfidkoʻx (Parakamiz) va

³¹ Баратов Н, Мамбетуллаев М, А. Рафиков. Ўрта Осий табиий географияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 2002, Б 429.

³² Массон В.М. Поселение Джейтун. –М.: “Наука”, 1971.

siyoxkux tog‘laridan suv oladi. Uning uzunligi 1124 km. Mazkur daryo qoraqumda singib ketadi. Mazkur daryo eneolit davrida insonlarga xizmat qilishni olib borgan. Uchunchi suv manbasi Kopetdog‘dan oqib tushgan 30 ta jilg‘a uning etagida Qumtepaliklar oralig‘idagi yo‘laklarni suv havzalariga aylantirgan.³³

1908-yildan boshlab Kopetdog‘ etagida joylashgan Anov yodgorligida qazishma ishlari olib borilishi natijasida bronza davri tarixiga oid manbalar olingan. Amerikalik geolog R.Pampelli Anov yodgorligida qazishma ishlarini olib borib, olingan manbalarga asoslanib yodgorlikning to‘rt qurilish davrini aniqlagan³⁴. D.D. Bukinig Anov va Namozgoxtepada qisman arxeologik izlanishlarni olib borgan, uning natijalari e‘lon qilgan. Yodgorlikning saqlanib qolgan xajmi, balandligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni bergan³⁵. Yodgorliklardan kulolchilik ashyolari, bronzadan yasalgan mexnat qurollari qoldiqlari, birnecha, uy-xonalari olinganligi to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlar qayd qilingan. Ta’kidlash lozim bo‘ladiki mazkur yodgorliklar XX asrning 40 yillar oxirida arxeologik izlanishlarni olib borish ilmiy markazlarning ob’ekti bo‘lmagan. Faqatgina XX asrning 40- yillar oxiri-50- yillar boshida B.A Litvinskiy Nomozgoxtepada qazishma ishlarini olib borish, bronza davri tarixini yoritadigan manbalarni olishni boshlab bergan. Kezi kelganda ta’kidlash lozim bo‘ladiki, M.E Masson rahbarligida janubiy Turkmaniston arxeologik-kompleks ekspeditsiyasining tashkil etilishi tosh asri, neolit, bronza davri turar-joylari ro‘yxatga olindi, ularda qazishma ishlari olib borishida muhim ahamiyat kasb edi. Ekspeditsiya xodimlari temir davri jamiyatining rivojlanishi, shaxarsozlik va davlatchilik, etnogenez va etnik jarayonlar tarixini yoritadigan noyob ashyolarni olishda muvaffaqiyatga erishganlar. Xuddi shu ekspeditsiya xodimlarining bronza davri aholi turar-joylarida olib borgan qazishma ishlari natijasida temir davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik munosabatlarni yoritadigan manbalar olganliklarini aloxida ta’kidlash joiz. Ekspeditsiya tarkibida xodimlar tosh asri, eneolit, bronza, temir, antik, ilk va o‘rta asr davrlarini o‘rganishni boshlab yuborgan.

³³ Баратов П, Маматкулов, Рафиқов А. Ўрта Осий табиий географияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 2002, Б 117-118.

³⁴ Explorations in Turkestan. Ed. By R Pampelly. Washington. 1908.

³⁵ Букиниг Д.Д. Новие об Анау и Намазгохтепе “Туркменоведение” №5, 1929, с. 32-36.

Ekspeditsiyaning XIV guruhi janubiy Turkmanistonda o'troq aholi xo'jaligi tarixini o'rganishni obekt qilib olgan. Turkmaniston fanlar akademiyasining tarix, arxeologiya va etnografiya instituti bo'limi hamda fanlar akademiyasi xuzurida janubiy Turkmaniston ekspeditsiyasi arxeologik tadqiqotlarni olib borish uchun tashkil etilgan.

1947- yilda ekspeditsiya umumiy tarkibda Nisa va Marv o'rtasida arxeologik qidiruv ishlarini olib borib ziroatkor aholining turar-joylari to'g'risida ma'lumotlarni olishga muyassar bo'lganlar. Jumladan Anov, Namozgoxtepa, Ulug'depa yodgorliklari ro'yxatga olingan, ularning yuqori qismida sopol ashyolarining rasmlari bilan, qidiruv natijalarini nashr qilganlar.³⁶ 1949-yilda ekspeditsiya tarkibida qadimgi o'troq ziroatkor aholi turar-joylarini arxeologik jixatdan o'rganish maqsadida aloxida guruh tashkil etilgan. Guruh xodimlari ilk qazishma ishlarini hajmi jixatidan katta (50 ga) Namozgohtepada olib borganlar. 1949-1950 yillarda Namozgoxtepa qazishma ishlarini olib borib, so'nggi bronza davriga oid manbalarni olishga muyassar bo'lgan.³⁷ 1952- yilda B.A Kuftin Namozgoxtepa yodgorliklarini qurilish tarixini aniqlashga etibor berib, eng qadimiy madaniy qatlamgacha shurf (kvadrat shaklda) ishlarini olib borishi natijasida madaniy qatlam 34 m bo'lganligi to'g'risida ilmiy xulosaga ega bo'lib, ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilgan. Olib borilgan shurf natijasida aniqlangan madaniy qatlamlar 6 ta majmui mavjudligini namoyon qilgan. Ya'ni Namozgox I-VI chunonchi:

1-Anov 1, Namozgox-1 ilk eneolit.

2-Namozgox 2-eneolit

3-Namozgox 3-so'nggi eneolit

4-Namozgox 4-ilk bronza

5-Namozgox 5-rivojlangan bronza

6-Namozgox6-so'nggi bronza³⁸.

³⁶ Массон М.Е. Южно-Туркменистанская археологическая комплексная экспедиция (ЮТАКЭ), 1947 г. // ТЮТАКЭ, Т. 1955, с 11-20.

³⁷ Литвинский В.А. Намазгахтепе по данным раскопок 1944-1950 гг. // СЭ, №4. –М.: “Наука”, 1952.

³⁸ Куфтин Б.А. Полевой отчет о работе XIV отряда ЮТАКЭ по изучению культур первобытнообщинных оседлоземледельческих поселений эпохи меди и бронзы в 1952 г. // ТР ЮТАКЭ, Т. Ашхабад, 1956.

Arxeologik shurf natijasida olingan ashyolarning joylashishi natijasida vujudga kelgan madaniy qatlam Namozgohtepada ilk eneolitdan tortib so'nggi bronza davrida madaniy hayot davom etganligidan dalolat beradi. Namozgohtepaning uzoq vaqt faoliyat olib borishga bo'lgan omil Kopetdog'ning suv ta'minoti o'sha kezlarda yuqori darajada bo'lgan degan xulosani qayd qilish mumkin Namozgohtepa kabi ilk. O'rta bronza davrida Ulag'depa, Qoratepa yodgorliklari faoliyat olib borgan. Mazkur yodgorliklar Kopetdog' tog' oldi etaklariga ulanib ketgan hududlarda joylashgan. Anov yodgorligi bundan mustasno emas. So'nggi bronza oxiriga kelganda Kopetdog' tog' oldi hududidagi Namozgohtepa aolisining bir guruh vakillari Murg'ob daryosi xavzasiga migratsiyasi yuz berganligi bois yangi dehqonchilik markazi vujudga kelgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Murg'ob daryosi quyi havzasiga kelgan ziroatkor aholi Oltintepaga asos solganlar. Mazkur yodgorlik ilk shahar sifatida ta'riflanib, temir davri tarixining boshlanishiga bo'lgan manbalar olingan³⁹Oltintepada olib borilgan kazishma ishlari natijasida kulollar maxallasi, ark, ibodatxona qoldiklari hamda ko'p sonli kulolchilik ashyolari olingan⁴⁰.

Miloddan avvalgi X asrga kelganda Kopetdog' etaklarida hududlarda suv taqchilligi, yerning unumdorligi barham topishi, ekologik vaziyat murakkablashganligi, aholi soni oshganligi boshqaruv tizimini qo'lga olgan qoxin sug'orish manbasi bo'lgan joylarga ko'chish siyosatini olib borgan⁴¹. Kopetdog' oldi etaklaridagi yodgorliklarida madaniy hayot barham topgan bo'lsa Murg'ob daryosi quyi havzasida aholi uzoq hududlarga ko'chmasdan, faqat daryo irmoqlarini almashtirgan xolos. O'troq aholisining Murg'ob daryosining suvga serob bo'lgan irmoq soxili etagiga ulangan balandlikka turar-joyini barpo qilganlar. V.M Masson yodgorlikda qazishma ishlarini olib borib, temir davri tarixini yoritadigan moddiy ashyolarni olishga muvassar bo'lgan Yazdepada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar temir davri jamiyatini qamrab olgan tarixiy jarayonlarni

³⁹ Массон В.М. Алтындепе // Тр ЮТАКЭ. –М.: “Наука”, 1981, с 20-21.

⁴⁰ Кирго Л.Б. Культура ранней бронзы Южной Туркмении (Вопросы происхождения по материала керамических комплексов) Автореф. дисс. кан ист наук. Л, 1980

⁴¹ Сарианиди В.И. Юго-западная Азия: Миграция, арьи и зороастрийцы // ИБ. МАИКЦА, Вип,3 М, 1987 с 56-57.

yoritish imkonini beradigan moddiy ashyolar olingan.⁴² Tadqiqotchilar I. Manilov, A. Asqarovlar fikrlariga ko'ra, Marg'ianadigi o'troq aholi bronzaning ikkinchi yarmidan Baqtriyaning janubi va shimoliga ko'chib kelganlar.⁴³ Janubiy Baqtriyada V.I. Sarianidi Dashli-1,3, yodgorliklarida qazishma ishlarini olib borib, temir jamiyatining vujudga kelishi, rivojlanishiga omil bo'lgan manbalarini olgan.⁴⁴ Arxeologik natijalarga ko'ra yuqorida qayd qilingan yodgorliklarning hajmi, joylashishi, uy-xonalari, kulochilik ashyolari, iborat xonalar va mudofaa inshootlari o'rganilib, temir davrida yanada takomillashgan.

Shimoliy Baqtriyada Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Muzrabod dashtida yodgorlik A. Asqarov tomonidan arxeologik jixatidan keng miqyosda o'rganilgan. Yodgorlik butunlay ochib tashlangan. Arxeologik izlanishlar yakuniga ko'ra, u Sopollitepa nomi bilan ma'lum bo'lib, unda 8 ta turar-joy maxallalari o'rganilgan. To'rt tomoni mudofaa devor bilan o'rab olingan. Ishlab chiqarish ustaxonalari faoliyat olib borgan. Sopollitepa atroflari bronza davri bosqichlarida 47-52-72 gektardan iborat ekin maydonlarini o'zlashtirib, ziroatchilik bilan shug'ullanganlar. Albatta ular tomonidan Sherobod daryosi Ulanbuloqsoy irmog'idan katta bo'lmagan sug'orish inshootlarini chiqarganlar.⁴⁵ A. Asqarov fikricha mil. avv. 1500- yilga kelganda sopollitepa aholisining yangi avlodlari Sheroboddaryo quyi oqimiga suv kelmay qolishi natijasida, ular yanada shimoliy tomonga, ya'ni Sheroboddaryoning ko'xna o'zani Bo'stonsoy soxili etagiga tutashib ketgan balandlikka kelib joylashgan. Mazkur balandlik maxalliy aholi talaffuziga Jarqo'ton nomi bilan o'rin olgan. Yodgorlik xajmi katta, 100 ga, ikki qismdan ya'ni ark va shahriston va alohida qabristondan. Bu yodgorlik miloddan avvalgi X-IX asrlargacha faoliyat olib borgan, ya'ni to'rt devorga ajratilgan. Yodgorlik mudofaa devor bilan o'rab olingan ark aloxida devor bilan o'rab olingan, ibodatxona, metall eritadigan pechlar, qabrlar va ulardan antropologik

⁴² Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА-73, М-Л, 1959.

⁴³ Манилов И.С. К вопросу об освоении Низавый Мургаба древнеземледельческими племенами // Изв. Ан Турк ССР. Ону обш наука, №2, с 70-71. Аскарлов А. Сапаллитепа. –Т.: “Фан”, 1973, с. 64.

⁴⁴ Сарианиди В.И. Исследование памятников Дашлинского оазиса // Древняя Бактрия. –М., 1976.

⁴⁵ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Т.: “Фан”, 1977, с. 120-121, 147.

ashyolar olingan. Aloxida qabriston tashkil etilgan bo'lib, u 20 gektarni tashkil qilgan. Yodgorlikdan olingan xilma-xil kulolchilik ashyolari, ibodatxona, ark, mudofaa devorlariga mansub manbalar temir davri jamiyati rivolanishiga ahamiyati katta.

Shu bilan birga, ibodatxona koxinlari faoliyati, arkning mavjudligi boshqaruv tizimidagi yangi yo'nalish, qabrlarning uy xonalaridan tashqariga olib chiqilishi, arkning mavjudligi xukmdor va oddiy aholi o'rtasida vujudga kelgan ziddiyatlar temir davrida yanada murakkablashgan. Farg'ona vodiysida hamda Zarafshon vodiysining yuqori qismida so'nggi bronza davri yodgorliklari arxeologik jixatidan o'rganilishi munosabati bilan temir davri jamiyati tarixiga manbalar olingan. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra Farg'ona vodiysida so'nggi bronza jamiyatining madaniy hayotda Chust madaniyati muhim o'rin egallagan. Farg'ona vodiysi bronza davri yodgorliklarini tadqiq qilishda XX asrning 50- yillarida Pomir Farg'ona ekspeditsiyasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan. Farg'ona vodiysida so'nggi bronza va temir davri yodgorliklari:

1-Chust yodgorligi – V.I Sprishevskiy tomonidan o'rganilgan. Hajmi 4 ga to'la mudofaa devor bilan o'rab olinmagan. Ilk bor Yu.A. Zadneprovskiy Chust madaniyati atamasini taklif qilgan edi⁴⁶. Keyinchalik 1954-1958 yillarda V.I Sprishevskiy Chust manzilgohida arxeologik izlanishlarni olib borib, yerto'la uy-joylar, yodgorlik madaniy qatlamidan qo'lda ishlangan qizil rangli, ayrim xolatda qora tusga ega bo'lgan sopol ashyolari olingan. Chust manzilida madaniy hayot miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oidligi to'g'risida xulosalar mavjud.⁴⁷ So'nggi bronza va temir davriga oid yodgorlik Dalvarzintepa arxeologik jixatidan yetarli darajada o'rganilgan. Shu bilan birga Ashkoltepa, Dehqon va hajmi o'ta kichik aholi turar-joylari o'rganilgan. Shu yodgorliklardan biri Dalvarzintepada kechgan tarixiy jarayonlarga e'tiborni qaratamiz. Yodgorlikning umumiy xajmli 25 ga. U uch qismdan iborat bo'lib, ular mudofaa devorlarga ega. Maydoni 2 ga bo'lgan

⁴⁶ Заднепровский Ю.А. Об этническом составе населения древней Ферганы // КСИИМК, 1956.

⁴⁷ Спришевский В.И. Чустское поселение Автореф. дисс. кан. ист наук. – Тошкент, 1963 с. 3-22.

inshootlar qurilmagan; turar-joylar xuquqi-18 ga. Umuman ochiq maydon-5ga⁴⁸. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, yodgorlikning to'rt tomoni mudofaa devor bilan o'rab olingan. Ichki tuzilishi manzarasini yerto'lali uy-xonalaridan iborat. Ochiq hududlar ham tashkil etilgan. U chorva mollari uchun mo'ljallangan albatta.

Yu.A Zadneprovskiy Eylagan yodgorligi so'nggi bronza davri va ilk temir davriga oidligini namoyon qilgan makonlarni olishga muyassar bo'lgan.⁴⁹ Zarafshon vodiysining yuqori qismida ham So'g'dning temir davri tarixiga oid moddiy ashyolar olinganini qayd qilish joiz. Masalan: A. Asqarov xulosasiga ko'ra, Tajan daryosidagi ziroatkor aholining bir guruh vakillari Zarafshon vodiysining yuqori qismi (Pandjikent yaknida) ga kelgan. Mazkur hudud tarixiy adabiyotlarda Sarazm atamasi bilan qayd qilingan. A.Asqarovning taxmin qilishicha Geoksyur vohasi aholisi suv ta'minoti keskin kamayganligi nazarga olib, uzoq yo'l yurib, yuqoridagi qishloqqa kelib joylashib, ota-bobolari turar-joy bilimini yangi hududda rivojlantirganlar. Tojikistonlik arxeolog olim A.Isakov yodgorlikda qazish ishlarini olib borishi natijasida to'rtta bosqichga ega ekanligining aniqlashga muvofiq bo'lgan ya'ni Sarazm-1Yu Sarazm-2, 3, 4 bosqichlardan iborat bo'lgan. 4 ta tarixiy devorni yoritadigan manbalar olingan⁵⁰. Nashrlarda Sarazmliklarning keyingi taqdiri to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi. Lekin ko'chmanchi qabilalar tarixiga oid fikr-muloxazalar o'rin olgan tarixiy adabiyotlarda.⁵¹

O'rta Osiyoning boshqa tarixiy-geografik xudularida aholining xo'jaligi, turmush tarzi, mehnat qurollari, turar-joylar qurilishi texnologiyasi issiq mintaqalarda istiqomat qilgan qabilalar madaniyatidan keskin farqlanish mavjudligi kuzatildi. Bu neolit davrida vujudga kelgan, uning eneolit va bronza davrida davom etishi bilan izoxlanadi. Ma'lumki, O'rta Osiyoning tog' va yarim

⁴⁸ Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА № 118. –М.: “Наука”, 1962.

⁴⁹ Заднепровский Ю.А. Городище Эйлатан. // СА, №3, 1960 с. 87-94.

⁵⁰ Исаков А. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долина. –Душанбе, 1991, с 3-115.

⁵¹ Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т.: “Университет”, 2007.

Аванесова Н.А. Новые материалы эпохи бронзы Зарафшанской долины // Археологические исследования в Узбекистане 2001. С. 20-21.

dasht, dasht hududlarida kasbini chorvachilik xo‘jaligi belgilab olgan aholi joylashgan. Ularning moddiy ashyolari ular qoldirgan qabrlardan olingan. Har bir tarixiy-geografik hudud o‘z geografik xususiyatiga egaligi turar joylar tuzilishida o‘z isbotini topgan. Arxeologik izlanishlar natijasida yuqorida qayd qilingan maxalliy xususiyat o‘z ma’nosini topgan. Tarixiy ma’lumotlarga e’tiborni qaratamiz.

1. Turkmanistonning janubi-g‘arbiy hududida, Artek daryosi havzasi atroflari bronza davrida ko‘chmanchilar dunyosi markazi bo‘lgan. Mazkur ko‘chmanchilar keyingi tarixiy davrda o‘troq aholi bilan madaniy aloqalar olib borishi natijasida o‘troqlashib, temir davriga qadam qo‘yganlar.
2. Janubiy Tojikiston-mazkur mintaqa geografik xususiyati bilan boshqa mintaqalardan ajratib turadi. Bi hududning 90%ni tog‘lar egallab olganligi bois, u aholining xo‘jaligi yo‘nalishini ham belgilab bergan. Bu mintaqadagi aholi chorvachilik bilan shug‘ullangan. Tarixiy adabiyotlarda Xisor madaniyati nomini olgan. Xisor madaniyatining tarixiy ildizlari neolit davriga borib taqaladi. So‘nggi bronza oxirida uy chorvachiligi ustunligi saqlanib qolgan.⁵²

Arxeologik izlanishlar natijalaridan ma’lumki, Xisor tog‘i etaklari suv ta’minoti yuksak darajada bo‘lsa ham, istiqomat qilgan aholi kundalik faoliyatida sivilizatsion g‘oyalari ko‘zga tashlanmaydi. Mazkur bilim faqat miloddan avvalgi VI asrga borib taqaladi, u alohida paragrafda qarab chiqiladi. Janubiy Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlarida istiqomat qilgan aholida chorvachilik xo‘jaligi ustunlik qilib, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurganlar. Xorazm vohasi, markaziy, g‘arbiy Zarafshon hududi, Toshkent viloyatlarida xo‘jalik yo‘nalishlari chorvachilik bo‘lgan aholida loy me’morchiligi bilimi kurtaklari paydo bo‘lmagan edi. Xorazm vohasida bronza asri ikkinchi yarmidan keyin xo‘jalikni olib borgan aholi “Qayr” dehqonchiligini olib borgan bo‘lsa ham sivilizatsiya issiq shabadalaridan darak yo‘q edi⁵³.

⁵² Ранов В.А. Каробкова Г.Ф. Туткавул-многослойная поселение Гиссарской культуры в Южном Таджикистане. // СА, №2, 1972, с. 133-147.

⁵³ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: “Наука”, 1962.

Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр ХАЭЭ, Т X, М, 1977.

Yuqorida keltirilgan tarixiy ma'lumotlar mazkur paragrafni quyidagicha yakunlashni taqazo etdi:

- O'rta Osiyo mintaqalarining joylashishi, iqlim sharoiti bronza jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida notekis xolati saqlanib qolgan. Aholining joylashishi ularning O'zbekistonning Farg'ona vodiysi to'rt tomoni tog'lar bilan o'rab olingani bois tosh davridan turmush tarzini olib borgan ovchilar va ularning vorislari mezolit, neolit, eneolit davrida faoliyatni olib borganlar. Eneolit davri aholi bronza jamiyati rivojlanishiga manba bo'lgan bo'lsa, mazkur manba takomillashib temir davrida yuz beradigan jarayonlarga manba bo'lgan. Baqtriyada bronza davri ikkinchi yarmida Murg'ob daryosi ko'chib kelgan ziroatkor aholi bronza jamiyatini rivojlanishiga xissa qo'shganligi oydin bo'lib qoldi. Surxon voxasiga ko'chib kelgan ziroatkor aholi yangi geografik sharoitga moslashib, xunarmandchilikni ko'ptarmoqli soxaga aylantirganlar. Mazkur aholining hayoti tajribasini uning vorislari Jarqo'tonda yanada rivojlantirganlar. Darxaqiqat issiq mintaqalarda xo'jalik yo'nalishlarini olib borgan ziroatkor aholi temir jamiyatining rivojlanishiga asos bo'ladigan madaniyatni yaratganlar. Kopetdog' tog' oldi etaklari, Murg'ob daryosi xavzasi, Surxon voxasining shimoliy qismi hududlarida o'rnatilgan ziroatkor aholi bronza jamiyatini miqdoriy va sifat jihatidan rivojlantirishi arxeologik izlanishlar natijalaridan ma'lum.

Murg'ob daryosi havzasidagi Oltintepa, shimoliy Baqtriyadagi Jarqo'ton ilk shaharlar bo'lib, ilk temir davri jamiyatining rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy asos bo'lgan. Mazkur jamiyatning miqdoriy va sifat jihatidan o'rganishi Oltintepa, Jarqo'ton yodgorliklarini barpo qilgan ziroatkor aholi va uning raxnamosi koxinlar faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Albatta, janubiy Tojikiston, janubi-g'arbiy Turkmaniston, Qizilqum, janubiy Qozog'iston, Zarafshon, Xorazm va Toshkent tarixiy-madaniy hududlarda shaharsozlik madaniyati qaror topmagan. Mazkur hududning geografik xususiyati aholining xo'jaligini belgilab bergan. O'rta Osiyo mintaqalarida aholi ba'zi joylarda zich joylashgan (Murg'ob daryosi xavzasi Muzrabod, Bo'ston).

Zarafshon daryosi quyi xavzasi, Xorazmda Amudaryodan ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog'i atroflarida doimiy turar-joylar faoliyat olib bormaganlar. Ular irmoqlar soxili bo'ylab ko'chib yurganlar. Shu sababdan ko'p mehnat talab qilmaydigan yengil-yelpi turar-joylarni qurib ularda turmush tarzini belgilab olganlar. Ma'lumki O'rta Osiyoning katta qismini bronza davrida chorvadorlar egallab olgan. Ayniqsa bu xolat markaziy, janubiy Sug'd, janubi Tojikiston va Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmanistonning janubi-g'arbiy, O'zbekistonning Toshkent viloyatini ham jalb qilish mumkin. Oltintepa, Jarqo'ton yodgorligida istiqomat qilgan aholi rang-barang mehnat qurollarini ishlab chiqargan, ko'psonli idish-tovoqlar, muhrlar va turli haykalchalar, ibodatxonalar faoliyatlari temir davri tarixiga manba bo'lib xizmat qilgan.

1.2. O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarning bronza davri tarixshunosligi.

XX asrning 30- yillar o‘rtalaridan O‘rta osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda qadimshunos olimlarning olib borgan arxeologik izlanishlar natijalariga bag‘ishlangan nashrlar mazmunini qamrab olgan tarixiy ma’lumotlarni quyidagi bosqichlariga ajratish mumkin:

- 1- XX asrning o‘rtalari – 1940- yillar
- 2- XX asr 40- yillar o‘rtalari – 1990- yillar
- 3- 1991-yildan - hozirgi davr tarixiy ma’lumotlar.

Tadqiqotchilar nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda bronza davriga mansub aholi turar-joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tarixiy sanada ahamiyatning rivojlanmaganligi qayd qilinadi. Masalan Xorazm, Zarafshon, Toshkent tarixiy-geografik hududlarda bronza davri qabilalari xo‘jaligi Surxon voxasi, Farg‘ona vodiysi aholisi olib borgan moddiy va ma’naviy madaniyati darajasidan keskin farqlanishi kuzatish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Xorazm, Toshkent va Zarafshon hududlarida istiqomat qilgan qabilalar turmush tarzida uy chorvachiligi, qisman dehqonchilik, zeb-ziynat buyumlarini yasash kabi xo‘jaliklar utunlik qilgan.⁵⁴ Surxon voxasi va Farg‘ona vodiysida o‘rnashib olgan aholi sun‘iy sug‘orish asosida dehqonchilik, uy chorvachiligi va xunarmandchilikning turli soxalarini rivojlantirib ilk davlatchilikning ilk manbalarini hosil qilgan⁵⁵. Sho‘ro davri tarixshunosligida o‘rin olgan tarixiy ma’lumotlarni nazarga olib bronza davri tarixshunosligini yoritishga harakat qilamiz.

Arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, Yu.A Zadneprovskiy Farg‘ona vodiysi bronza davri tarixshunosligini o‘z monografiyasida yoritgan. Ma’lumki, neolit davrida jamiyatning boshqarish tizimida “donishmand ona” faoliyat muhim o‘rin egallagan. Tadqiqotchilar neolitdan tortib, bronza asri oxirigacha jamiyatni boshqarish masalasiga etiborni qaratganlar. Shu tariqa Ziroatchilar tarixshunosligi fan sifatida tarix faniga olib kirganlar. Masalan tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta

⁵⁴ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948.

Ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарты. –М.: “Наука”, 1962.

⁵⁵ Заднепровский Ю.А. кўрсатилан асар.

Osiyo davlatchiligi manbachiligi va davlatchilik tarixiga oid ma'lumotlar ilk yozma manba Avesto kitobida aks etgan. Shu bilan muqaddas kitob tarixiy-madaniy viloyatlar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar aholining joylashishi, urugʻ, qabila va davlat atamalari toʻgʻrisida tarixiy ma'lumotlari bilan mashxur. Avesto kitobida Oʻrta Osiyoda davlatchilik va tarixshunoslikning rivojlantirishga etiborni qaratamiz. Ma'lumki, Oʻrta Osiyoning qadimgi jamiyati tarixi toʻgʻrisida ma'lumotlar yozma manbalar – “Avesto”, Ahamoniylar davri qadimgi fors yozma yodgorliklarida qayd qilingan. Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov haqqoniy tarixni asl manbalarga tayangan holda yaratish zaruratini taʼkidlab,⁵⁶ “Avesto” ning ahamiyati toʻgʻrisida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oraligʻida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan maʼnaviy, tarixiy merosidir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim oʻlkada buyuk maʼnaviyat, buyuk madaniyat boʻlganligidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi”.⁵⁷ Ma'lumki, “Avesto” dastlab, 1771-yilda fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan. Gʻarbiy Evropada “Avesto”ni oʻrganishga F. Altxeym, V.B. Xenning, E. Xersfeld, I. Gershevich, M. Boys, R. Fray va boshqalar muhim hissa qoʻshganlar⁵⁸

XX asr mobaynida E.E. Bertels M.M. Dkonov, V.I. Abayev, I.S. Braginskiy, V.A. Livshits, I.M. Oranskiy va boshqa olimlarning asarlarida keltirib oʻtilgan⁵⁹. Soʻnggi yillarda ushbu roʻyxat I.V. Raka va I.V. Pyankovlar

⁵⁶ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 6-жилд. Б. 127.

⁵⁷ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 7-жилд. Б. 137-138.

⁵⁸ Altheim F. Awestische Textgeschichte. - Halle (Saale), 1949. — 32 s.; Herzfeld E. Zoroaster and his world. Vol. I-II. - Princeton, 1947. -411 p; Henning W.B. Zoroaster: politician or witch doctor? — Oxford, 1951. P. 40-54; Gershevitch I. The Avestan hymn to Mithra. — Cambridge, 1959. - 356 p.; Фрай Р. Наследие Ирана // Пер. с англ. В.А. -Липшица и Е.В. Зеймаль, -М.: “Наука”, 1972. 468 с.; Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи // Пер. с англ. И.М. Стеблин-Каменского. –М.: “Наука”, 1987. 302 с.

⁵⁹ Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. Избранные труды. - М.: Изд. вост. лит., 1960. Т.1 - 556 с.; Дьяконов М.М. Очерки истории древнего Ирана. –М.: “Изд. вост. лит.”, 1961, с. 444; Абаев В.И Миф и история и Гатах Зороастра // Историко-филологические исследования. –М.: “Наука”, 1974, С. 310-321; История таджикского народа –М.: “Изд. вост. лит.”, 1963. Т. 1. с.596; Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. –М.; “Изд. вост. лит.”, 1956, с.496; Лившиц В.А. Общество Авесты // История таджикского народа. –М.: “Изд. вост. лит.”, 1963. Т. 1. С. 143-148; Оранский И.М. Иранские языки в историческом освещении. –М.: “Наука”, 1979, с.238

tomonidan to'ldirilgan.⁶⁰ XIX asrning 60-yillaridan XX asr 30-yillariga qadar bir qator G'arbiy Yevropa olimlari (V. Geyger, I. Markvart va b.) o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyoda davlatchilikning vujudga kelishi masalasini yozma manbalar asosida hal qilishga harakat qilganlar⁶¹. Ammo yozma ma'lumotlarning kamligi bu masalani to'liq hal qilish imkonini bermasdi, shuning uchun ham mavzu kam darajada o'rganilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'arb olimlarining asarlarida qadimgi O'rta Osiyo, "Sharqiy Eron" tushunchasi sifatida qadimgi forslar va midiyaliklar tarixi bilan bog'langan holda ko'rib chiqilgan edi. Bunga yorqin misol, V. Geygerning 1882- yilda chop etilgan "Qadimda Sharqiy Eron madaniyati" nomli asari⁶² yoki Yu. Prashekning 1906- yilda nashr qilingan "Makedonlar istilolariga qadar Midiya va Fors tarixi" nomli asarlari yorqin misol bo'la oladi.⁶³ Shuni ta'kidlash joizki, XIX asrdan boshlab olimlarning tadqiqotlarida "Avesto"ning yaratilish vaqti va o'rni bilan bog'liq dolzarb masalalarga e'tibor qaratildi. Keyinchalik "Avesto" tilining (asosan, XX asrning 40-70-yillarida) va shu bilan bir qatorda jamiyat boshqaruvi tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarini aks ettiruvchi qismlarining o'rganilishi manba matnini talqin etishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, "Avesto"ning eng qadimgi qismlari ("Yasht" va "Gatlar", taxminan miloddan avvalgi IX-VIII asrlar) yozuvsiz zamonlarga oid tasavvurlarni o'zida ifoda etgan. "Avesto" chorvadorlar va ziroatchilar jamiyati haqida ma'lumot beradi. Ushbu jamiyat "harbiy demokratiya", ya'ni ilk davlatchilikka o'tish bosqichidagi turli ijtimoiy guruhlar va toifalardan iborat bo'lgan⁶⁴. "Avesto" bo'yicha jamiyat to'rt qismga bo'lingan - oila, urug', qabila, qabilalar ittifoqi ("nmana", "vis",

⁶⁰ Авеста в русских переводах (1861 1996) // Сост., общ. ред., примеч. И.В. Рака. - СПб., 1998; Пьянков И.В. Авеста // История таджикского народа. - Душанбе, 1998. Т. 1. — С. 216-238.

⁶¹ Geiger W. Ostiranische Kultur in Altertum. - Erlangen, 1882; Markwart I Wehrot und Arang. — Leiden, 1938.

⁶² Geiger W. Ostiranische Kultur in Altertum... - 520 S.

⁶³ Prasek J. Geschichte der Meder und Perser bis zur makedonischen Eroberung. Journal of Hellenic Studies, 1907.282 S.

⁶⁴ Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон ... - Б. 23; Пьянков И.В. Авеста // история таджикского народа. -Душанбе, 1998. Т. 1. – С. 216-217.

“zantu”, “daxiyu”). Ushbu tushunchalarni S.P. Tolstov, I.M. Dyakonov, V.I. Abayev, V.A. Livshits, I.M. Oranskiy, I.M. Steblin-Kamenskiy va boshqa olimlar uy, qishloq jamoasi, tuman, viloyat va mamlakat tushunchalari bilan bog‘laganlar⁶⁵. XX asr 30-40 yillarida mashhur qadimshunos S.P. Tolstov mintaqa qadimgi jamiyati tarixiga oid bir qator maqolalar va monografiyalarda “Avesto”ga asoslangan holda qadimgi Xorazm tarixiga oid masalalarni yoritgan⁶⁶. XX asrning 70-80 yillaridagi tadqiqotlarda “Avesto” jamiyatining tarkibi, jamoadagi o‘zaro aloqalar va aholiniig hududiy joylashishi masalalarini yoritishga asosiy e’tibor qaratiladi⁶⁷.

Mustaqillik yillarida M. Ishoqovning nashrlariga e’tibor qaratish lozim⁶⁸. Tadqiqotchi “Avesto”dagi ayrim atamalarning mazmun-mohiyati, tarixiy geografiyaga doir masalalar, falsafiy qarashlar kabi muammolarni tahlil qilgan. A. Sagdullaevning qo‘llanmasida quyidagi mavzular yoritildi: “Avesto” va zardushtiylar, “Geografik, hududiy nomlar”, “Ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar”, “Siyosiy tarix”, “Diniy falsafa va turli ma’lumotlar”, “Dafn etish marosimlari”⁶⁹. Tadqiqotchi R. Abdukamilovning fikriga ko‘ra, “Avesto”dagi uy, oila – “nmana”, “dmana”, qishloq jamoasi – “vis”, qabila, tuman – “zantu”, viloyat – “daxiyu” atamalari, yagona davlat “Aryanam Xshatram”ning tarkibiy qismlarini anglatadi⁷⁰.

⁶⁵ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации ... – С. 96; Дьяконов И.М. История Мидии ... – с. 180; Лившиц В.А. Общество Авесты ... – С. 143-146; Абаев В.И. Миф и история в Гатах Зороастра // Историко-филологические исследования. – М.: “Наука”, 1974. – С. 310-321; Оранский И.М. Иранские языки в историческом освещении. – М.: “Наука”, 1979. – 239 с; Авеста. Избранные гимны // Пер. с авестийского И.М. Стеблин-Каменкого. – Душанбе: “Адиб”, 1990, с.174

⁶⁶ Толстов С.П. К вопросу о периодизации истории первобытного общества // Советская этнография. – 1946 - № 1. С. 25-30; Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации... с. 93. Ушбу асарнинг ўзбек тилига таржимаси, қаранг: Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. –Т.: “Фан”, 1964, Б.441 Ўша муаллиф. Древний Хорезм.. С. 77-82.

⁶⁷ Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Издание второе. – Душанбе: “Ирфон”, 1989. Кн. 1. С. 66-71.

⁶⁸ Исхаков М. Ҳақиқат энг олий неъмат. “Авесто”нинг Хўрмузд Яшт алқовидан парча // Фан ва турмуш. – 1993. №3. –Б. 18-22; Ўша муаллиф. Хазорасп. “Минг от”ми? // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1997. №1. Б. 72-75. Ўша муаллиф. Авесто. Ардвӣ Сура алоқавӣ // Ўзбек тили ва адабиёти. 1999. №3 с. 65-72. №4. С. 67-72; Ўша муаллиф. Эзгу ўй, эзгу сўз, эзгу амал. –Т. 2001. Б. 7-22.

⁶⁹ Сагдуллаев а. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда ... Б. 16-29.

⁷⁰ Абдукамилов Р. Авестийские тексты о государственности и праве: вопросы генезиса и эволюции структуры // О'zbekiston tarixi. – 2000. - №3. С. 17.

I.M. Dyakonov “Avesto”da “shahar” va “shahar jamoasi” tushunchalari uchramaydi”, deb yozgan⁷¹. Ayrim zamonaviy tadqiqotlarda va “Avesto” boblarining o‘zbek tiliga tarjimalarida “shahar” so‘zi keltiriladi, misol uchun, A. Qayumov “Yasht” boblarining tarjimalarida: “Men Axuramazda o‘z qudratim bilan Anaxitani yaratdim, uy va qishloq, shahar va mamlakatni”. D. Qodirovaning ta’kidlashicha, “Avesto” kitobida “shahar” degan “sof urbanistik tushuncha yo‘q”, lekin manbada tilga olingan “vara”, ya’ni “qal’a” shaharning nomiga ko‘chgan.⁷² Ziroatchilar jamiyatida o‘zlashtiruvchi xo‘jaliklarga asoslangan jamoalarning iqtisodiy munosabatlariga nisbatan turlicha ishlab chiqarish faoliyati rivojlangan. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, miloddan avvalgi III ming yillikning boshlariga kelib, O‘rta Osiyoning janubida aholisi 1000-2000 kishidan iborat o‘troq qishloqlar paydo bo‘lgan⁷³.

Namozgohtepa, Oltintepa kabi shahar shaklidagi aholi punktlari yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlariga aylangan⁷⁴. Shu davr ziroatchilari alohida vohalarda istiqomat qilib, qabila va qabila uyushmalariga birlashgan.

Arxeologik dalillarga ko‘ra, Oltintepa aholisi hunarmandlar, ziroatchi shahar aholi va zodagonlar guruhlariga bo‘linib, ular maydoni 90-50-100 kv.m.dan iborat alohida uylarda yashaganlar⁷⁵. Bu yerda turlicha ishlab chiqarish faoliyati to‘g‘risida ixtisoslashgan hunarmandchilik (kulolchilik, metallchilik, to‘qimachilik, zargarlik), binokorlik va sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik dalolat beradi⁷⁶. Bronza davrida Surxon vohasidagi ziroatchilarning qishloqlari atrofida o‘rtacha 50-76 gektar maydonda erlarga ishlov berilgan (asosan arpa bilan bug‘doy ekilgan⁷⁷. Boshqaruv zarurati dehqonchilik ishlarini, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo‘jaliklarida yer va suvni taqsimlash, irrigatsiya ishlarini amalga oshirish vazifalari bilan

⁷¹ Дьяконов И.М. История Мидии ... С. 7.

⁷² Қодирова Д. Зардуштийликнинг илк босқичлари ҳақида мулоҳазалар // “Авесто” китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи. –Т., 2000, Б. 66.

⁷³ Энеолит Средней Азии... – С. 55.

⁷⁴ Массон В.М. Алтын-Депе/Тр. Южно-Туркменстанской археологической комплексной экспедиции. – Ашхабад, 1981. – Т. XVIII. С. 119-121.

⁷⁵ Массон В.М. Алтын-Депе... – С. 101-104.

⁷⁶ Ўша асар ... –С. 98-100.

⁷⁷ Асқаров А. Сапаллитепа. –Т.: “Фан”, С. 130-131.

bogʻlangan⁷⁸. Dehqonchilik va chorvachilik xoʻjaliklari doirasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jamiyat hayotida sifatiy oʻzgarishlarga asos boʻlgan. Alohida uy-joylar, tomorqa, chorva, mehnat qurollari va roʻzgʻor buyumlari xususiy mulkka aylangan.⁷⁹ Shu davrda jamiyatning ijtimoiy munosabatlarida urugʻchilik tuzumiga xos hususiyatlarning mavjudligini faraz qilish mumkin. Katta oila aʼzolari umumiy uy-joyda hayot kechirganlar, bunday uylar qishloqlarda urugʻga tegishli guzarlarni tashkil etgan.

A.Asqarovning tadqiqotlariga koʻra, Janubiy Oʻzbekistondagi bronza davriga oid Sopollitepada 8 ta alohida guzarga tegishli uy-joy qoliqlari tekshirilgan. Uylar turar joylar, roʻzgʻor va xoʻjalik xonalaridan iborat boʻlgan⁸⁰. Tarixshunoslikda aks ettirilgan dalillarga koʻra, ijtimoiy mansablarning vujudga kelishi sabablaridan yana biri — bu jamoadagi eʼtiqod, urf-odatlarini bajarish bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Eʼtiqod, ilk diniy qarashlar tosh davrida paydo boʻlib, eneolit va bronza davrlarida oʻtga, quyoshga, yerga, suvga, hosildorlikka sigʻinish keng tarqalgan⁸¹. Adabiyotlarda mavjud maʼlumotlarga koʻra, metallchilik sohasida texnologik yangiliklarni tatbiq etilishi, mehnat qurollari ishlab chiqarish uslublari oʻzgarishi bilan odamlar xom ashyo konlarini (mis, qoʻrgʻoshin, qalay konlari) izlab topishga majbur boʻlganlar. Tabiiy qazilma boyliklar, metall konlarini qidirish, yangi hosildor erlar va suv manbalarini oʻzlashtirish natijasida, ziroatchi aholining uzoq hududlarga tarqalishi jarayoni boshlanadi⁸². Bronza jamiyati davrida yirik markaziy maskanlar shahar koʻrinishiga ega, ularning qurilishida meʼmoriy rejalashtirishga amal qilingan (koʻchalar, maydonlar, guzarlar va katta jamoa binolari)⁸³.

XX asrning 30-yillaridan boshlab, shoʻro davri adabiyotlarida ibtidoiy jamiyat, uning boshqaruv tizimi va ilk davlatchilikka oʻtish muammolarini

⁷⁸ Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи ... – Б. 61.

⁷⁹ Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ. – Л.: “Наука”, 1976, С. 180.

⁸⁰ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Т.: “Фан”, 1977, С. 16-27.

⁸¹ Энеолит Средней Азии ... –С. 58-60.

⁸² Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё ... Б. 24-25.

⁸³ Массон В.М. Алтин-Депе ... –С. 35.

o'rganishda L. Morganning "Qadimgi jamiyat" asarining konsepsiyalari juda katta ta'sir qilgan⁸⁴. Ushbu g'oyalarni tadqiqotchilar A.I. Pershits, N.D. Butinov, B.C. Titov, Yu.I. Semenov va boshqalar o'z asarlarida yangi asoslarda rivojlantirganlar. XX asr 50-60-yillarida arxeologik tadqiqotlar tufayli, O'rta Osiyoning bronza va ilk temir davri chorvador-ko'chmanchi aholisi tarixi to'g'risidagi malumotlar yanada kengaydi. Ulardan chorvadorlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tarixini o'rganishda foydalanildi. Bu masalada S.P. Tolstov, Ya.G' G'ulomov, A.M. Mandelshtam, B.A. Litvinskiy, A.A. Asqarov, M.A. Itina va boshqa olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega⁸⁵. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bronza davri ishlab chiqaruvchi kuchlarning yuksalishi bilan izohlanadi. Metallchilik va chorvachilikning rivojlanishi natijasida patriarxal oilalarning ahamiyati xo'jalikda, ijtimoiy hayotda o'sib borgan, dashtlarda aholi sonining ko'payishi yuz bergan, chorvadorlar tomonidan keng yaylovli hududlar egallangan. Chorvadorlar jamoasi oila, urug' va qabiladan iborat bo'lib, qabilalar uyushmasiga birlashgan. Bunday birlashmalar Orololdi, Turkmanistonning shimoliy-g'arbi va Janubiy Tojikiston hududlarida mavjud bo'lgan⁸⁶.

Sho'ro davri tarixshunosligida kasbiy boshqaruvning ajralib chiqishi sabablari jamiyatda mulkiy tensizlik va ijtimoiy tabaqalanishning rivojlanishi bilan bog'liq holda o'rganilgan. Ushbu mavzu mazmuni etnograflar, sharqshunoslar va qadimshunoslar tomonidan tahlil qilingan⁸⁷. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ijtimoiy mansablarni egallash ayrim shaxslarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish, jamoa mahsulotidan olinadigan ulushni o'zlashtirishga intilishi bilan bog'langan. Jamiyatda

⁸⁴ Орган Л. Древнее общество. –Л.: Институт народов Севера, 1934. – С. 350.

⁸⁵ Толстов С.П. Приаральские скифы и Хорезм // советская этнография. – 1961. №4. – С. 114-146.

⁸⁶ В.М.Массон .Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. –М.: "Наука", 1966.–С. 233, 240.

⁸⁷ "Касбий бошқарув" тушунчаси, илк давлатчилик тизимида ўтиш даврида ишлаб чиқаришдаги режалаштириш, ташкиллаштириш, назорат қилиш ва бошқариб туриш каби вазифалар вазифалар билан банд бўлган шахсларнинг сараланиши ва улар томонидан бошқарув мансабларини эгаллаш яъни жамиятдаги бошқарувнинг касбий фаолиятга айланиши билан боғланади. Мансаб ва лавозимларни эгаллаган шахслар айнан ўзлари ишлаб чиқариш жараёнида иштирок қилмаганлар. Массон В.М. Становление раннеклассового общества на Древнем Востоке .. –С. 85-86.

egallangan baland ijtimoiy o‘rin moddiy farovonlikka poydevor bo‘lgan⁸⁸. Ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarishdan tashkiliy boshqaruv faoliyati ajralib chiqib, ishlab chiqarish bilan doimiy shug‘ullanmaydigan ijtimoiy va xo‘jalik hayotini boshqaradigan shaxslar uchun jamoa mahsulotini taqsimlash paytida, uning yirik qismini o‘zlashtirishga asos bo‘lgan⁸⁹. Zamonaviy tarixshunoslikdagi xulosalarga ko‘ra, boshqaradigan shaxslarning saralanishiga, ularning shaxsiy axloqiy xislatlari, bilim va nufuzlari sabab bo‘lgan⁹⁰.

I.M. Dyakonov, E.A. Grantovskiy va boshqa olimlar “Avesto”da tilga olingan “ijtimoiy-kasbiy” guruhlariga o‘z e’tiborini qaratganlar. Bular kohin, jangchi, ziroatchi-chorvador va hunarmanddir⁹¹. V.M. Masson, A.A. Asqarov, V.I. Sarianidi, I.S. Masimov, T.Sh. Shirinov va boshqa olimlar O‘rta Osiyodagi bronza davri yodgorliklarini o‘rganib, bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanganligini qayd etganlar. Bronza davrida ixtisoslashgan hunarmandchilik vujudga kelgan⁹². B.A. Kolchin, E.V. Saykoning fikrlariga ko‘ra, kasbiy boshqaruvning vujudga kelishi ishlab chiqarishni tashkillashtirish zarurati va iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan⁹³. V.I. Sarianidi bronza davrida maxsus hunarmandchilik ishlab chiqarishi vujudga kelishi, mutaxassis kulollar va temirchilar paydo bo‘lishiga o‘z e’tiborini qaratgan. Olimning ta’kidlashicha “u paytda Baqtriyada sinflar shakllanishi jarayoni boshlanib, diniy-mafkuraviy funksiyalarni amalga oshirish ayrim shaxslarning kasbiy faoliyatiga aylandi: jamoa zodagonlari va harbiy zodagonlar paydo bo‘ldi”⁹⁴.

⁸⁸ Массон В.М. Становление раннеклассового общества на Древнем Востоке ... -С. 85.

⁸⁹ Хазанов А.М. Разложение первобытно-общинного строя и возникновение классового общества // Первобытное общество. –М.: “Наука”, 1975, С. 111.

⁹⁰ Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи ... –Б. 61.

⁹¹ Дьяконов И.М. История Мидии .. С. 154. Грантовский Э.А. Индоиранские касты у скифов // XXV Международный конгресс востоковедов. –М., 1960, С. 3.

⁹² Массон В.М. Протогородская цивилизация юга Средней Азии // Советская археология. 1967. №3. С. 165-190.

⁹³ Колчин Б.А., Сайко Э.В. Особенности развития и организации производства // Становление производства в эпоху энеолита и бронзы –М.: “Наука”, 1977, С. 9-34.

⁹⁴ Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистанаю –М.: “Наука”, 1977. С. 152.

A.Asqarov yuqorida qayd etilgan V.I. Sarianidining xulosalarini tanqidiy tahlil etib, Dashtli-3 yodgorligida qazib ochilgan saroy va ibodatxona aslida oddiy dehqonchilik manzilgohlari bo'lganligini ta'kidladi⁹⁵. A.Asqarov bronza davri Baqtriya aholisining ijtimoiy hayotida V.I. Sarianidi tasvirlagan darajadagi katta o'zgarishlar sodir bo'lmaganligini qayd etgan⁹⁶.

XX asr adabiyotlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bronza davrida O'rta Osiyo janubiy viloyatlarida e'tiqod, diniy marosimlar aholining hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, maxsus kohinlar guruhi paydo bo'lgan. A.S. Sagdullaev ijtimoiy mansablar va boshqaruvning vujudga kelishi masalasini tahlil qilar ekan, boshqaruvning paydo bo'lishi asoslari ishlab chiqarish, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalalanish, ijtimoiy masalalarni hal qilish zaruriyatidan kelib chiqqanligini ta'kidladi⁹⁷. Bularning barchasi rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish, nazorat qilish vazifalarini yuzaga chiqarib, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini boshqarib turishni talab etgan. Boshqaruv tizimida funksiyalarning kengayishi natijasida dastlabki ijtimoiy foydali boshqaruv kasbiy faoliyatga aylangan⁹⁸. Boshqaruvning iqtisodiy funksiyalari bilan bog'liq tashkiliy hamda ishlab chiqarish elementlari va tamoyillari mavjud bo'lganligi quyidagicha qayd etilgan:

- ishlab chiqarishning turli sohalaridagi iqtisodiy munosabatlarni boshqarish va nazorat qilish;
- texnologik yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish;
- mahsulot ishlab chiqarishni zaruriy ashyo va uskunalar bilan ta'minlash;
- iqtisodiyotning tashkiliy sohalariga yangiliklarni tatbiq etish⁹⁹.

XX asr tarixshunosligida kasbiy boshqaruvning vujudga kelishi O'rta Osiyoda ilk shaharlarning paydo bo'lishi bilan bog'langan. Ma'lumki, ilk shaharlar turli ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy hamda madaniy funksiyalarni

⁹⁵ Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Т.: “Фан”, 1977, С. 132-134.

⁹⁶ Асқаров А. Ўша асар. С. 135.

⁹⁷ Сагдуллаев А.С. Бошқарув асосларининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари // Жамият ва бошқарув. 2004. №1. Б. 9-10. Сагдуллаев А, Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи ... Б. 35.

⁹⁸ Сагдуллаев А, Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи ... Б. 35.

⁹⁹ Сагдуллаев А. Менежментнинг шаклланиши тарихи... Б. 5, 22.

(shahar-ishlab chiqarish, iqtisodiy va harbiy markaz, bosh ibodatxonalar joylashgan maskan, yirik inshootlar - saroy va qal'alar mavjud markaz) bajargan.¹⁰⁰

E.V. Sayko kasbiy boshqaruvning kelib chiqish masalasini mehnat taqsimotining ajralishi va ijtimoiy tabaqalanishining vujudga kelishi bilan bog'lagan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ushbu tarixiy vaziyat turli ko'rinishdagi boshqaruv vazifalarini amalga oshirishni talab etardi¹⁰¹. E.V. Rtveladze yozma manbalarga tayangan holda boshqaruvni harbiy-siyosiy jihatdan ahamoniylar davrigacha O'rta Osiyoda mavjud hukmdorlarning faxriy unvonlari bilan bog'ladi. Ushbu unvonlar "Avesto"da "kavi" (hukmdor, podsho), "daxiyupati" (viloyat hokimi), "sastar" (harbiy yo'l boshchi hamda viloyat hokimi), "daxiyusasti" (barcha viloyatlar hududiy birlashuvining hukmdori), yunon tarixchilari asarlarida "basilevs", ya'ni podsho (saklarning podshosi Amorg, Baqtriya hukmdori Oksiart) shakllarida keltirilgan.¹⁰² E.V. Rtveladze fikriga ko'ra, "kavi" unvonining kelib chiqishi mahalliy bo'lib, milodiy VI-VII asrlarga oid Buxoro hukmdorlari buxorxudotlar tanga pullarida ham uchraydi. Demak, ushbu unvon "Avesto" davridan boshlab hatto ilk o'rta asrlarda ham dastlabki ahamiyatini saqlab kelgan.¹⁰³

Yuqorida keltirilgan dalillardan kelib chiqib, xulosa sifatida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

- sho'ro davri tarixshunosligida qadimgi kasbiy boshqaruv faoliyati tarixi yozma manbalar, etnografiya va arxeologiya manbalariga tayangan holda o'rganilgan bo'lib, shu davr mafkurasi talabiga ko'ra, mavzu mulkiy, ijtimoiy tabaqalanish masalasi bilan bog'lanib, ilmiy-uslubiy jihatdan chegaralangan holda yoritilgan;
- XX asr tarixshunosligida, O'rta Osiyoda ijtimoiy-iktisodiy va harbiy-siyosiy omillarga asoslangan kasbiy boshqaruvning ajralib chiqishi bronza davrida,

¹⁰⁰ Муфассал қаранг: Литвинский Б.А. Древний Среднеазиатский город (местные традиции и иноземные модели) // Древний Восток. Города и торговля. Ереван, 1973. С. 99-125.

¹⁰¹ Сайко Э.В. Предпосылки и условия формирования древнего города // Древние города. –Л., 1977, С. 15.

¹⁰² Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. –Т., 2005, С. 58-61.

¹⁰³ Ўша жойда. С. 61.

ya'ni mil. avv. II ming yillikda sodir bo'lgan.

II. BOB. O'rta Osiyo temir davri davlatchiligi tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari.

2.1. O'rta Osiyo ilk temir davri davlatchilining manbashunosligi.

XX asrning 30-yillaridan boshlab markaz tomonidan ishlab chiqarilib jamiyatda o'zining o'rnini topgan tarixiy davrning mazmun va mohiyatini sotsialistik jamiyatda totalitar boshqaruv tizimi ustunlik qilgan paytda O'rta Osiyoda faoliyat olib borayotgan ittifoqdosh respublikalarda tarixiy davr va uning turli bosqichlarida aholi tomonidan qoldirilgan yodgorliklarni o'rganish maqsadida turli nomga ega bo'lgan arxeologiya-etnografiya, kompleks ekspeditsiyalar, arxeologik guruhlar tashkil etadi. Mazkur ekspeditsiyalar insoniyat tarixining ibtidoiy jamiyat arxaik, antik ilk va o'rta asr yodgorliklarida arxeologik ekspeditsiyalarni olib borishga keng yo'l ochib berganligini qayd qilish joiz. Xususan, quyidagi ekspeditsiyalar O'rta Osiyo mintaqalarida faoliyat olib bordilar.

1. S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining Uzboy, Sariqamishbo'yi, Xorazm voxasida ibtidoiy jamiyat, arxaik, antik, ilk va o'rta asr tarixini namoyon qiladigan moddiy manbalar olindi. Mazkur ekspeditsiya 1937-1990 yillarda faoliyat olib bordi. Ittifoq parchalanib ketgandan keyin ekspeditsiya faoliyati yakun topgan.

2. 1936-1938 yillarda M.E. Masson rahbarligida termiz arxeologik ekspeditsiyasi eski termizda qazish ishlarini olib borib antik davrga mansub moddiy ashyolarni olishga muvaffaq bo'lgan. Termiz shahrining qurilishini miloddan avvalgi III asrga oidligi to'g'risida xulosa qilingan.

3. 1936-1941 yillarda A.N. Bernshtan rahbarligida arxeologik guruhi Qozog'iston va Qirg'iziston xudularida arxeologik izlanishlarni olib borgan.

4. O'zbekiston fanlar akademiyasi tarkibida M.E.Masson rahbarligidagi arxeologik guruhi katta Farg'ona kanali qurilishi munosabati bilan qazishma ishlari olib borgan.

5. 1938-yilda V.A. Shishkin rahbarligidagi arxeologik guruh Buxoro vohasida arxeologik tadqiqotlarni olib borgan.

V.A. Shishkin Varaxsha va uning atroflarida dala amaliyoti hamda Varaxsha yodgorligida qazishma ishlarini olib borgan. 1930-yillar boshida Ya.G'.G'ulomov Xorazm viloyatida arxeologiya fani bo'yicha dala amaliyotini olib borishi jarayonida Olmaotishgan 1,2 yodgorliklari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi Xorazm vohasi va unga ulanib ketgan janubiy sarxadlarda davlatchilikning bronza davri aholi turar-joylarida davlatchilikning ilk tarixiy ildizlariga oid moddiy ashyolardan olishga erishgan. Shu bilan birga, arxaik davri tarixini yoritadigan manbalar qisman bo'lsa ham olingan. S.P. Tolstovning Xorazm vohasi va unga ulanib ketgan Sariqamishbo'yi va Uzboy hududlarida olib borgan arxeologik qidiruv natijasida 400 dan ziyod aholi markazlari va ularning ba'zilarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari uchta asarida aks etgan¹⁰⁴.

M.E. Masson eski Termizda olib borgan moddiy ashyolari antik davr davlatchiligi, V.A Shishkinning Varaxshada olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar so'nggi antik davr tarixini yoritadigan manbalar olingan¹⁰⁵. Qirg'iziston, Qozog'iston va Farg'ona vodiysida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, asosan tosh asriga oid makonlar o'rganilgan. Ta'kidlash lozim bo'ladiki, XX asrning 30-40 yillarda O'rta Osiyoda arxeologik izlanishlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham, davlatchilik tarixini yoritadigan ashyolar kam miqtorda olingan. S.P. Tolstov ilk davlatchilik tarixiga oid kam materiallarni nazarga olib, XX asrning 30-yillar o'rtalaridan O'rta Osiyoda davlatchilik muammosi masalasini keng ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan edi. Lekin, bu tashabbus tadqiqotchilar tomonidan ko'llab quvvatlanmadi. Chunki, bunga sabab davlatchiligining ilk tarixiy ildizlariga oid manbalar olinmagan, mazkur muammoga oid fikr-muloxazalarini ilgari surgan ilmiy kadrlar yetishmas edi. Rus tadqiqotchisi V.V. Bortold yozma manbalarda ma'lumotlar asosida O'rta Osiyo jamiyatda kechgan tarixiy jarayonlarni davrlashtirish tizimini

¹⁰⁴ Толстов С.П. Древний Хорезм –М.: “Наука” 1948.

Ўша муаллифлар. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М-Л, 1948.

Ўша муаллифлар. По древним дельтам Окса и Яксарта –М.: “Наука”, 1962.

¹⁰⁵ Массон Е.М. Термезская археологическая комплексная экспедиция в 1936-1938 гг// Труды Ан Узбекский ССР. История, археология, Т 1, Тошкент 1945. В.А. Шишкин. Варахша. –Т.: “Фан”, 1963.

ishlab chiqqan edi. Tadqiqotchi xulosasiga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari tarixi (davlatchiligi) "Musulmonchilikka bo'lgan davr", "Mug'ullargacha bo'lgan davr", "Mug'ullar davri", Temuriylar davri bilan davlatchilik hamda xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi davrlashtirilgan¹⁰⁶.

Tadqiqotchining O'rta Osiyo xalqlarini moddiy va ma'naviy madaniyatining davrlashtirilishi bir qator munozaraga olib kelishi bir gap. Masalan: Musulmonchilikkacha bo'lgan davrda O'rta Osiyoda qanday davlatlar mavjudligi, keyingi tarixiy davrlarda siyosiy maydonga chiqqan davlatlar, birlashmalar to'g'risida tarixiy ma'lumotlar mavjud emas. Negaki, O'rta Osiyomintaqalarda aholi tomonidan qoldirilgan yodgorliklarda keng tarzda arxeologik izlanishlarni olib bormasdan turib davlatchilikning tarixiy ildizlari va unga bo'lgan manbalarga ega bo'lmasdan turib, faqat yozma manbalar asosida yoritish juda mushkul. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, jahon urushi tamom bo'lgandan keyin O'rta Osiyo respublikalarida arxeologik izlanishlarni olib boradigan ekspeditsiyalar geografiyasi kengaygan. Masalan: S.P. Tolstov rahbarligidan Xorazm ekspeditsiyasi Quyi Sirdaryo xavzasi va o'rta qismida, Uzboy, Sariqamishbo'yi va Xorazm voxasida keng qamrovli arxeologik qidiruv va qazishma ishlarini olib bordilar. V.A Shishkin Buxoro voxasida arxeologik izlanishlarni davom ettirdi.

M.E.Masson rahbarligidagi Termiz arxeologiya kompleks ekspeditsiyasi faoliyati Surxon voxasida to'xtagan. Uning o'rniga L.I Altaum rahbarligidagi O'zbekiston respublikasi tarix va arxeologiya instituti tomonidan tashkil etilgan arxeologik guruh ish boshladi. Shu bilan birga XX asrning 40-yillar o'rtalaridan birqator ekspeditsiyalar tashkil etilib, ular faoliyatlarini boshlab yubordilar. Jumladan: 1944-1949 yillarda Tyan-Shan Oloy ekspeditsiyasi, 1946-1949 yillarda Pomir ekspeditsiyasi, 1950-yili Pomir-Farg'ona, 1951-1955 yillarda G.F. Debets rahbarligida Irg'iziston kompleks ekspeditsiyalari tashkil etilib, arxeologik izlanishlarini olib bordi. 1945-yildan M.E. Masson rahbarligida janubiy Turkmaniston arxeologiya-kompleks ekspeditsiyasi, A.Yu. Yakubovskiy

¹⁰⁶ Бартольд В.В. История культурная жизнь Туркистана. –Л., 1927, с 3-4.
Ўша муаллиф. Сочинения. Т-2, часрь 1, 1930, С. 171.

rahbarligida Tojikiston fanlar akademiyasi va Davlat ermitaji arxeologiya guruhi Tojikiston, tadqiqotlarini boshlab yuborgan. Keyinchalik bu ekspeditsiyaga M.M Dyakonov, keyin A.M. Belenitskiy rahbarlik qilganlar. Yuqorida qayd qilingan yirik arxeologik ekspeditsiyalar va arxeologik guruhlarining olib borgan qazishma natijalari asosida davlatchilikning manbalariga oid moddiy ashyolar olinishiga erishilgan¹⁰⁷. Ma'lumki, arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyoning qadimgi davlatchiligi tarixiga oid aholi turar-joylarida olib borilgan qazishma ishlari natijasida Xorazm voxasidan olingan. Arxeologik qazishma ishlari natijalari va uning davlatchilik tarixini yoritish Xorazm voxasidan boshlash maqsadga muvofiq.

Xorazm voxasi va unga janub tomondan geologik jixatidan ulanib ketgan Sariqamishbo'yi, Uzboy hamda Sirdaryoning quyi xavzasi va o'rta qismidagi aholi markazlarida aholi markazlarida olib borilgan arxeologik ishlanishlar natijasida olingan manbalar quyidagicha xolatda bo'lgan bo'lib, ular asosan XX asrning 50-yillaridan boshlangan. S.P. Tolstov, B.I. Voynberg, M.G. Vorob'yeva, D.Durdiev, N. Pilipko asarlarida eng qadimgi O'rta Osiyo davlatchiligi manbalari aks etgan. Xorazm voxasi va unga hududiy jixatidan yagonalikni namoyon qilgan Sariqamish xavzasida quyidagi aholi turar joylari bo'lgan yodgorliklarida qazishma ishlari olib borilgan.

O'rta Osiyo davlatchiligining arxaik davriga oid manbalar Sariqamishbo'yi xavzasidagi yodgorlik Ko'zaliqir, Qang'qaqal'a, Butentou-1 hamda o'ng soxil Oqchadaryo janubiy xavzasida joylashgan Ding'ilja yodgorliklaridan olinganyodgorlik to'g'risida ilk ma'lumotlar S.P. Tolstovning ikki nashrida o'z o'rnini topgan¹⁰⁸. 1953-yildan ko'zaliqirda qazishma ishlari olib borilgan. Uning rejasida berilgan mexnat qurollari, ya'ni bronzadan qilingan kamon o'qlari, kabi manbalar olingan. Uning markazida qazishma ishlari olib borilib, uning mudofaa devori va madaniy qatlamlari aniqlangan. Yodgorlikdan ikki xonali o'choq 20 ga

¹⁰⁷ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: “Наука”, 1962, с 6-7 с 7 рис 2 харита.

¹⁰⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948, С. 77-82.

Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М-Л., 1948, С. 93-109.

Ўша муаллиф. Городища с жилищами КСИИМК №110, 1947. С. 3-8.

yaqin uy xonalari ochilgan. I-VII shurf ishlari amalga oshirilgan. Qazishma ishlari yakuniga ko'ra, yodgorlik miloddan avvalgi VI-V asrlarga oid bo'lgan¹⁰⁹.

S.P.Tolstov 1955-yilda ekspeditsiya xodimlari tomonidan ro'yxatga olingan Oqchadaryo irmog'i janubiy soxiliga tutashgan tekislikka aholi tomonidan bino qilishgan. Ding'il'ja yodgorlik, uning miloddan avvalgi V asrga oid degan xulosa qilgan, lekin tadqiqot ishlarini olib bormagan¹¹⁰. Shu bilan birga, tadqiqotchi ilk monografiyasida Kaltaminor sug'orilishkanali tizimiga kirgan hududda arxaik davrga oid yodgorliklarni eslab o'tgan, lekin qazishma ishlari olib borilmagan¹¹¹. Ma'lum bo'ladiki, miloddan avvalgi VI asrdan boshlab kaltaminor sug'orish inshooti atroflari aholi tomonidan o'zlashtirilishi natijasida arxaik davr tarixini yoritadigan manba beradigan turar-joylarni barpo qilganlar, bu esa kichik xajmli mikrovoxalarning faoliyat olib borishiga imkon berganligini ta'kidlash joiz.

1958-1960 yillarda Xorazm ekspeditsiyasi xodimi M.G. Vorobeva Ding'ilja atamasidagi aholi turar-joyida, arxeologik izlanishlarni va uning atroflarida 58 ta uy-joylarni ro'yxatga olgan. Ding'ilja yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga qaraganda 20 ga yaqin uy-xonalari olib o'rganilgan. Katta hajmli ko'p xonaga ega bo'lgan uy-xonasi (43x25m) o'rganilgan. Olingan kulolchilik ashyolari arxaik davrga oid degan xulosaga kelingan, uning tarixiy sanasi miloddan avvalgi V asr yakun topishi esa milodiy IV asrga mansubligi aniqlangan¹¹². Yodgorlik qurilishida to'g'riburchakli (50-52-42-44-10-12 sm yoki 42x44-12 sm). Yodgorlik so'nggi arxaik davrga oid. D.Durdiev Sariqamishbo'yi havzasi janubi-g'arbiy qismida joylashgan Butentou balandligiga aholi tomonidan shu atamada qurilgan yodgorligida qazish ishlarini olib borib arxaik davri tarixiga mansub manbalarni olgan¹¹³. Vatanimiz mustaqilligi yillarida E.B.Bijanov, G.X

¹⁰⁹ Толстов С.П. Хорезмская археология-этнографическая экспедиция в 1950 г / СА XVIII. 1953 с. 318.

Ўша муаллиф. Итоги работ Хоремской археолого этнографической экспедиции. Ан СССР за 1951-1953 гг. 1954 с. 14-15.

Ўша муаллиф. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции 1949-1953 гг.

¹¹⁰ Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция 1955-1956 гг. СА, №1, 1958, С. 116-118.

¹¹¹ Толстов С.П., Б.В. Андианов Новые материалы по истории ирригации в Хорезме. КСИЭ, XXVI, 1957. С. 7-8.

¹¹² Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция Ан СССР (1945-1948). Тр ХАЭ Т-1 М 1952, с 13, рис 1. Воробьева М.Г. Дингильжа. в Древнем Хорезме. –М.: "Наука", 1973.

¹¹³ Дурдиев Д. Археологические исследования на территории Ташаузской области // Каракумские древности, Вып-5, "Илим", 197, С. 137-138.

Xodjaniyozov Butentou kompleksida arxeologik izlanishlarini davom ettirib, D.Durdiyev tomonidan taklif qilingan tarixiy sanani etirof qilganlar¹¹⁴.

Turkmanistonlik arxeolog olim V.N. Pilipko Amudaryo o'rta qismi so'l soxilga ulanib ketgan balandlikka aholi tomonidan qurilgan turar-joyda arxeologik izlanishlarni olib borganlar. Chunonchi Odoytepa va Qumqal'a yodgorliklarining miloddan avvalgi IX-VI asr birinchi yarmiga mansubligi to'g'risida xulosaga kelgan¹¹⁵.

Xorazm voxasiga sharqiy tomondan qo'shni bo'lgan Zarafshon vodiysida arxaik davrda turar-joylar qurilishini olib borgan ziroatkor aholining tarixi yoritiladigan ashyolar arxeologik izlanishlar natijasida olingan edi. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, Zarafshon vodiysining markaziy va janubiy hududlarida arxaik davrda odamlar hajmi katta va kichik xajmli shaharcha va shaharlarni barpo qilganliklarini isbotlaydigan manbalar olingan¹¹⁶. Chunonchi Afrasiyab va Ko'ktepa arxaik davriga oid aholi turar-joylari bo'lgan Yerqo'rg'on va janubiy Zarafshondagi Kesh, Sangirtepa, Uzunqir kabi yodgorliklaridan ham olingan¹¹⁷. Baqtriya (shimoliy qismi Surxon voxasi), hududda arxaik davr davlatchiligi tarixiga oid manbalar Qiziltepa, Bandixon, Talashkan tepa, Xaytabod, Jondavlat yodgorliklaridan olingan. A.S Sagdullayev, Tadqiqotlari natijalari muhim ahamiyat kasb etadi. E.R. Rtveladze Surxon voxasida arxeologik qidiruv izlanishlarni olib borib, miloddan avvalgi I ming yillik boshlari va o'rtalariga oid bo'lgan aholi turar-joylari to'g'risida ma'lumotlar berdi. Shu bilan birga Kampirtepada arxeologik izlanishlarni olib borib, ilk davlatchilik tarixiga oid manbalarni olishga erishgan¹¹⁸.

¹¹⁴ Бижанов Е.Б., Ходжаниёзов Г. Археологический комплекс Бутентоу / Археология Приаралья. Нукус, 2003. С 32-60.

¹¹⁵ Пилипко В.Н. Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области // АО 1974. –М.: “Наука”, 1975, С 527-528. Ўша муаллифлар. Древнее городище Одейтепе на среднем течении Амударьи // Каракумские древности. Ашхабад, 1979. Исмаддинов М. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. Т. 2002.

¹¹⁶ Тереножкин А.И. Согд и Чач/КСИИМК, XXXIII 1950 с 153-156. Шишкина Г.В. Древний Самарканд и его округа// Городская культура Бактрии-Тохаристан и Согд. Античность, Раннее средневековье Материалы советско-Французского колоквиума. –Т.: “Фан”, 1987, с. 164.

¹¹⁷ Сулейманов Р.Х., Сагдуллаев А.С. Сложение и развитие урбанизованной культуры Кеша в древности и средневековье// Шахрисабз шахрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. –Тошкент, 2002.

¹¹⁸ Ртвеладзе Э.В. Новые древнебактрийские памятники на юге Узбекистана //Л-д, 1976, с. 93-94.

Tadqiqotchi Surxon voxasida arxaik davrga oid ko'psonli aholi turar-joylarni ro'yxatga olinganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi turar-joylarida arxeolog olimlar tomonidan qazishma ishlarini olib borib, arxeologik ashyolar olinsa, o'sha davr jamiyatini qamrab olgan tarixiy jarayonlarni yoritishga manba bo'lib hisoblanadi. Arxeologik qidiruv natijasida xajmi o'sha kichik yodgorliklar to'g'risida ilk tarixiy ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilinganligi diqqatga sazovor. Masalan: Bandixon-1 makoni, xajmi 90x80 m/ xatto bir metr maydonga ega emas. Uning qurilishida paxsa va to'rtburchak xom g'isht ishlatilgan.

A.Asqarov, L.I Albaum nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Sherobod tumanidagi xajmi kichik aholi turar-joyi bo'lgan Kuchuktepada olib borgan arxeologik izlanishlar natijasiga olingan ashyolar arxaik davrtarixini yoritishga asosiy manba bo'lib hisoblanadi ¹¹⁹. A.S Sagdullaev tadqiqotlari natijalaridan ma'lumki, arxaik davrga oid aholi turar-joylari Qizilcha, Bandixon-II, Kuchuktepa Bandixon-I qurilishi va xajmini aynan takrorlaydi. Bandixon-II hajmi jixatidan Bandixon-I dan sezilarli katta, ya'ni (110x100 m). Qurilishi paxsa va xom to'g'riburchakli g'isht, tashqi devorlar yarim aylanali burjlarga ega Arxaik davlatchiligi tarixiga oid manbalar Qiziltepadan olingan. Uning xajmi 420x360 m ya'ni yodgorlikdan arxaik va antik davr tarixiga oid manbalar olingan. Olingan manbalarga asoslanib, turar-joyining qurilishi 3 tarixiy davrdan iborat bo'lgan. Qizil I, II qurilish davri arxaik davrga oid bo'lgan ¹²⁰. Ilk davlatchilik tarixiga oid manbalar janubiy Tojikiston va janubi-sharqiy Turkmanistonda (Kopetdog' tog' oldi etaklari Murg'ob va Tajan daryolari havzasi) tutashib ketgan hududlardagi Kalampir, Gaurqal'a (Merv), Yazdepa yodgorliklaridan olingan edi.

M.M. Dyakanov Kafirnagan (Kobodkan) daryosi quyi havzasida joylashgan Kalai-Mir yodgorligining quyi madaniy qatlamidan arxaik davrga mansub bo'lgan

¹¹⁹ Аскарлов А.А, Альбаум Л.И Поселение Кучук-тепе. –Т., 1979, С. 14-30.

¹²⁰ Сагдуллаев А.С. Культура юга Средней Азии VII-IV вв. до.н.э. / Бактрия, Маргиана, Согд / Ташгу, –Т., 1987, С. 10-16.

Ўша муаллиф. Оседлые области юга Средней Азии в эпоху раннего железа / Автореф на соис. уч.ст. докт ист наук. –М., 1989, С. 8-9.

manbalarni olishga muyassar bo'lgan¹²¹. V.M. Masson janubiy Turkmanistonda, xususan Kopetdog' tog' oldi etaklari va Murg'ob daryosi xavzasida olib borgan arxeologik izlanishlari mazkur hududa ilk davlatchilikning vujudga kelishi, shakllanishiga sabab bo'lgan manbalarni olishga erishgan. Chunonchi, Murg'ob daryosi havzasida bronza davrida xo'jalik soxalarini olib borgan Olintepaliklarning avlodi suv ta'minoti doimo bo'ladigan yangi hududga kelib joylashib Yazdepaga asos solganlar. V. Masson yodgorlikda arxeologik qazishma ishlarini olib borib, Murg'ob daryosi havzasida davlat siyosiy birlashmalarning vujudga kelishi g'oyasini ilgari surgan. Bizningcha Yazdepa dehqonchilik voxa markazlarining bosh shahri bo'lgan. Shu bilan birga shahar-davlat vazifasini ham bajargan. Tadqiqotchi shu bilan birga Erkqal'a (Gaurqal'a) (1-ilova) Murg'ob daryosi xavzasidan Yazdepadan tashqari, Atrek daryosi quyi havzasida Izatquli yodgorligi to'g'risida ham ma'lumotni beradi. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik izlanishlarni olib borib, davlatchilik tarixini yoritadigan manbalar olingan¹²².

Shu tariqa, yuqorida bildirilgan fikr-muloxazalar natijasi quyidagi umumiy xulosaga kelishga imkon berdi. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, O'rta Osiyo ilk davlatchilik tarixini yoritadigan manbalar tarixiy davr va uning turli bosqichlarida olingan. Davlatchilikning ilk tarixiga oid manbalar O'zbekistonning Xorazm, Surxandaryo voxalarida, Janubiy Tojikiston, janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy Turkmaniston hududlaridan olinishi arxaik davrda aholining joylashish geografiyasi kengayganligidan dalolat beradi. Miloddan avvalgi VII-V asrlarda o'troqlashgan aholi turar-joylardan olingan manbalar asosida jamiyatni qamrab olgan jarayonlarni yoritish mumkin. Arxeologik manbalarni ilmiy-nazariy taxlil asosida davlatchilikning vujudga kelishi va shakllanishi tarixini yoritishni quyidagi tarzda taklif qilamiz:

¹²¹ Дьяконов М.М. Археологические работы в нижнем течении реки Кафирнигана (Кобадиян) (1950-1951 гг) МИА, № 37, 1954 с 279-282, рис 18,19.

Ўша муаллиф. Сложение классового общества в Северной Бактрии // СА, XIX, 1954. С. 130-136 рис 2,6.

¹²² Массон В.М. Древнемаргианское поселение Яз-депе // Из-я Аи Турк. ССР 1955, №3 стр 3-9.

Ўша муаллиф. Поселения поздней бронзы и раннего железа в дельте Мургаба/ КСИИМК, № 64, 1956 с. 62-67, рис 25.

Ўша муаллиф. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, № 73, 1959.

Ilk davlatchilik manbalari –moddiy manbalar.

Arxeologik ashyolar yozma manbalar mazkur manbalar Oʻrta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda ilk davlatchilik tarixini yoritish imkonini beradi. Shu manba asosida Surxon voxasida Sherobod, Bandixon, Qiziltepa Qshqadaryoda Uzunqir, Sangirtepa, kabi dehqonchilik vohalari vujudga kelgan. Xorazm voxasida Qangʻqaqalʼa, Butentou, Odoytepa, Qushqalʼa, Dingʻilja dehqonchilik voxalari shakllangan. Tojikistonda kalai-Mir, janubiy Turkmanistonda Yazdepa, Gaurqalʼa, janubi-gʻarbiy Izatquli, Madad kabi dehqonchilik vohalari tashkil topgan. XX asrning 90-yillar boshida dunyoning 1/6 hududini egallagan buyuk siyosiy birlashma hududiy jixatidan boʻlinishi natijasida uning tarkibidagi ittifoqdosh respublikalar milliy mustaqillikka erishdilar. Ular oʻz xalqi rahbari rahnamoligida eski jamiyat manzarasidan tubdan farqlanadigan jamiyatni qurish harakatini boshladilar. Xususan, Oʻrta Osiyoda faoliyat olib borgan Qozogʻiston, Tojikiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston va Oʻzbekiston respublikalari mustaqillik yoʻliga chiqib olgandan keyin, geografik xususiyat, tabiiy sharoit, ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, iqtisodiy jixatidan darajasidan kelib chiqib, har xil nomga ega boʻlgan dasturlar ishlab chiqdilar va shu asosda yangi jamiyat va davlatchilik poydevorini yaratishni kundalik vazifalardan biri sifatida tanlab olgandilar.

XX asrning 20-yillari oʻrtalaridan boshlab 30-yillar boshlarigacha Oʻrta Osiyoda yuqorida qayd qilingan respublikalarning yer yuzasi xilma-xil lekin sernam va serunum hudud xisoblanadi. Oʻziga xos geografik sharoit, iqlimiy oʻzgarishlarni hisobga olgan xolda yolgʻiz xalq oʻtmishini, shaharsozlik va davlatchilik asoslarini oʻrganishga kirishdilar. Bu soxada maʼlum darajada yutuqlarga ham erishdilar. Masalan Oʻzbek xalqi jasorati natijasida jamiyatni rivojlantirishning “Oʻzbek modelini” tarix saxifasiga olib chiqishga muvofiq boʻldi. Shu bilan milliy mustaqillik yillarining oʻziga xos xususiyatlari ham koʻzga tashlanadi. Chunonchi: Markaz tashabbusi bilan tashkil qilingan arxeologik ekspeditsiyalar faoliyatlari yakun topdi. Bu birinchi xususiyati boʻlgan boʻlsa, navbatdagi xususiyati esa Osiyo, Yevropa davlatlari ilmiy markazlari bilan hamkorlikda birlashgan xalqaro ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Xorazm voxasida

Avstraliyaning Sidney Universiteti bilan hamkorlik ekspeditsiyalar. Shuningdek, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Polsha, Chexoslovaniya, Xitoy, Janubiy Kareya va boshqalar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hududida ilk temir davri aholi turar-joylarini arxeologik jixatidan o'rganishda Fransiya-O'zbekiston arxeologik ekspeditsiyasining Afrasiyob yodgorligida qazishma ishlarini olib borgan, natijasida miloddan avvalgi VII asrga oid manbalar olingan diqqatga sazavor. O'zbek arxeolog olimi M.Isomiddinov Fransiya davlati ilmiy muassasi bilan hamkorlikda (P. Bernar). Afrosiyob yodgorligida qazishma ishlarini olib borib, ilk temir davri tarixiga oid moddiy ashyolar olingan. Arxeologik izlanishlar natijalarining ilmiy taxlili asosida yodgorlikning barpo qilingan. Miloddan avvalgi VI asrga oidligi to'g'risida xalqaro ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Arxeologik natijalarga asoslangan. Maxsus monografiya nashrdan chiqqanligi ma'lum. Shu bilan birga, Samarqand viloyati hududidagi Ko'ktepada qazishma ishlari olib borilganligi bois, ilk temir davri tarixini yoritadigan manbalar olingan.¹²³ Demak, Marokanda O'rta Osiyoda Marv bilan bir qatorda eng qadimiy shaharlardan biri bo'lgan. Xorazm voxasidagi aholi turar-joylar qurilish tarixini o'rganishda Qoraqalpog'istonlik qadimshunos olimlar hamda Xorazm ma'mun akademiasining qaytadan tashkil etilganligi muhim voqea bo'ldi. Akademiya tarkibida arxeologiya, tarix va falsafa bo'limi tashkil qilindi. Viloyat hududida mavjud bo'lgan tarixiy obidalarni arxeologik jixatidan o'rganish maqsadida arxeologiya guruhi tashkil etildi. Shu bilan birga, Urganch Davlat Universiteti 1 bosqich tarix talabalarining arxeologiya fani yuzasidan olib boradigan amaliy mashg'ulotlarini viloyat hududidagi aholi turar-joylarda qazishma ishlarini olib bordilar.

Xorazmdagi Xumbuztepa va Hazorasp yodgorliklaridan ilk temir davriga mansub manbalar olingani ma'lum. Yodgorlikdan kulolchilik ashyolari, qadimgi,

¹²³ Исомиддинов М. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. –Т., 2002.

Xorazm yozuvi namunalari topib olingan¹²⁴. Bunday yozuv belgilari S.B. Balelov Xumbuztepada olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan edi¹²⁵. Ta'kidlash kerak bo'ladiki, miloddan avvalgi VIII asr oxiri-VII asrlarda Xumbuztepa kulolchilik va etnik markaz bo'lgan. Xumbuztepada keyingi yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasining R.Baratov rahbarligidagi arxeologiya guruhi qazishma ishlarini doimiy ravishda olib bormoqda. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, Xumbuz qoldiqlari, olov ibodatxonasi ochib o'rganilib, avvalgi tadqiqotlarning yodgorlikning tarixiy sanasiga tadqiqotchi qo'shilgan¹²⁶. Shu bilan birga, R.Baratov rahbarligidagi guruh Hazorasp shahrining qurilish tarixini o'rganish borasida, uning janubi-g'arbiy burchagida shurf va mudofaa devorini tozalash ishlarini olib bordi. Natijada miloddan avvalgi VI asr o'rtalariga oid manbalarni olishga muvaffaq bo'ldi¹²⁷. Qoraqalpog'istonlik arxeologlar asosiy ilmiy yo'nalishni Xorazmning antik davr poytaxti Aqshaxanqal'a va Toshxirmon qishloq tilidagi yodgorlikka qaratdilar va kutilgan natijaga ham erishdilar. Ilk temir davri davlatchiligi tarixiga oid manbalar faqat Xumbuztepa va Hazorasp yodgorliklarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olinganini alohida ta'kidlash lozim. O'zbek arxeologlari Samarqand shahri yaqinidagi Afrasiyobda, chelek qishlog'idagi Ko'ktepada olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida ilk temir davlatchiligi tarixiga oid manbalarni olishga erishganlar. Masalan: O'zbek-Fransuz arxeologiya kompleks ekspeditsiyasining Afrasiyobda olib borgan arxeologik izlanishlari natijasida O'rta Osiyoda eng qadimgi shahar sifatida faoliyat olib borilganligini isbotlagan¹²⁸.

A.A. Gritsinaning Sirdaryo viloyatidagi tarixiy obidalarga olib borgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, shaharsozlik madaniyatining ildizlari

¹²⁴ Мамбетуллаев М. Хум с городиша Большая Айбўйиркала с древнейшей надписью в Средней Азии // Вестник Каракалпакского филиала Ан Руз. Нукус, 1979.

¹²⁵ Балелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма (вторая половина I тыс.я до.н.э) Приаралье на перекрестке культур. Самарканд-Тошкент 2013.

¹²⁶ Баратов С.Р. Рахманов У, Матрасулов Ш, Сагдуллаев Б, Рахимов Ш. Археологические исследования поселения Хумбузтепа в 2011-2012 годах/ Археологические исследования в Узбекистане в 2012 году. Самарканд, 2013.

¹²⁷ Баратов С.Р. Рахманов У. Новые археологические материалы к древнейшей истории города Хазарасп // Материалы республиканской научной конференции Антик давр цивилизацияси тараккиётида Хоразмнинг ўрни. Хива-Хазорасп. 2011.

¹²⁸ Исомиддинов М. Кўр асар.

Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. –Т., 2006.

miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga mansub bo'lgan¹²⁹. B.X Matbabaevning Farg'ona vodiysidagi arxeologik yodgorliklarida, jumladan Eylagan, Andijon shaharlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk temirning so'nggi bosqichini yoritadigan ashyolarini olishga muyassar bo'lgan.¹³⁰ O'rta Osiyoning boshqa respublikalari ilmiy markazlarining tarixiy obidalarda olib borgan arxeologik izlanishlarning natijalarini faqat internet orqali olish imkoni mavjud. SHunday qilib, yuqorida keltirilgan tarixiy ma'lumotlar ushbu paragrafni quyidagicha yakunlash imkoni vujudga keldi.

XX asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlab, O'rta Osiyo hududida S.P Tolstov Xorazm voxasida ilk bor ilk temir davriga mansub aholi turar-joylari to'g'risida ma'lumotlarni bergan. Tadqiqotchi, Xorazm shaharlarining rejasi rasmi to'g'risida ma'lumotlarni ikki monografiyasida bayon qilgani bor gap. XX asrning 40-yillar o'rtalaridan 80-yillar oxirigacha O'rta Osiyo respublikalaridagi ilk temir davriga oid yodgorliklar qadimshunos olimlar rahbarligidagi turli nomga ega bo'lgan ekspeditsiya va guruhlar tomonidan ro'yxatga olindi, ba'zilarida qazishma ishlarini olib bordilar. Masalan. Janubiy Tojikistonda Kalai-Kir, janubiy Turkmaniston, Murg'ob daryosi xavzasida Mari, Yelkandepa, Yazdepa, Atrek daryosi xavzasida Izatquli, Surxon voxasida Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon, Talashkan, Xaitobod, Jondavlat, Kuchuktepa yodgorliklari ilk temir davrida qurilgan. Qashqadaryo viloyatida Uzunqir, Yerqo'rg'on, Sangirtepa, Daratepa, Samarqand viloyatida Afrasiyob, Ko'ktepa Jizzax viloyatida Nurtepa, Odoytepa, Qushqal'a, Hazarasp, Xumbuztepa, Ko'zaliqir, Ichanqal'a, Butentou, Qang'qa qal'alar ilk temir davri yodgorliklaridir. Ziroatkor aholi tomonidan ilk temir davrida qal'alar daryo xavzasi atrofida, balandlikka, tekislik ham ko'chmanchilar bilan chegarada qurilgan. Yuqorida qayd qilingan aholi turar-joyida shahar-davlat sifatida markazlashgan davlatning shakllanishi va rivojlanishida asosiy poydevor bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz.

¹²⁹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарынской области. –Т.: “Фан”, 1992.

¹³⁰ Матбабаев Б. Ранний город Ферганы и вопросы начального этапа государственности. // Археология, история и культура Средней Азии. ТД. МНК –Тошкент, 2002.

2.2. O'rta Osiyo temir davri davlatchiligini yoritilish tarixi.

O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda qadimshunos olimlar rahbarligida ekspeditsiyalar va guruhlar tomonidan keng miqyosda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari asos bo'lgan nashrlar, mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar qadimgi jamiyatning siyosiy manzarasini namoyon qilgan davlatlar tarixini yoritishda nazariy manba bo'lib hisoblanadi. Sho'ro hokimiyati davrida O'rta Osiyo respublikalari hududlarida eng qadimgi davrda aholi tomonidan qad ko'tarilgan shaharcha va shaharlarda keng miqyosda arxeologik izlanishlar natijalaridan kelib chiqqan tarixshunoslik fani vujudga kelgan. Tarixshunoslik fanini vujudga kelishi va uning fan sifatida tarix fani saxifalaridan o'rin olishi Xorazm vohasida boshlangan edi. Bunda S.P Tolstov, YA.G' G'ulomov, E.E Nerazik, Yu.A Rapoport, M.G Vorobeva, M.S Lapirova-Skoblo, Yu.P Manilov, M. Mambetullaev, G'. Xo'janiyozov, B.I Voynberg tadqiqotlari natijalari qadimgi davr tarixshunosligini boshlab berdi. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining uchta monografiyasini hisobga olmaganda ekspeditsiyasining XVI maxsus tomi nashr qilindi¹³¹.

Xorazm vohasida ilk temir davri davlatchiligi tarixshunosligining rivojlanishini yoritishni Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari nashrlariga asoslangan xolda nazariy-taxlil qilishdan boshlaymiz. Xorazm voxasi va unga hududiy jixatidan tutashib ketgan Sariqamishbo'yi sarxadlarida temir davri aholi turar-joylarining qurilish tarixini yoritishdan boshlaymiz. Chunki ilk davlatchilik tarixiga oid arxeologik manbalar va ularni ilmiy taxlili natijasida vujudga kelgan nashrlar dastlab Xorazm voxasi ilk davlatchiligi tarixining yoritilishicha imkon bergan. Shuning uchun ham O'rta Osiyo ilk davlatchiligi tarixshunosligini Xorazm voxasidan boshlaymiz.

O'rta Osiyo ilk davlatchiligi tarixiga oid ma'lumotlar S.P. Tolstovning ilk monografiyasida qayd qilingan edi. Tadqiqotchi Yevropa tadqiqotchilari ya'ni I.Markvart, V.Tarn asarlari mazmunini aks ettirgan janubiy Turkmaniston

¹³¹ Толстов С.П. Работы Хорезмской-археологической экспедиции. Ан СССР. Т. I-XV. Древности южного Хорезма. –М.: "Наука", Т-XVI. 1991.

Kopetdog‘ tog‘ oldi etaklari va Murg‘ob vohasi, Xuroson va Sug‘dni qamrab olgan Xorazm podsholigi haqida xulosalari yozma (Avesto) manbalariga asoslanganligi uni Aryonam Vayjo mamlakatni yuqorida qayd qilingan Katta Xorazm bilan solishtirgan degan xulosaga kelgan. Tadqiqotchi yana fikrini davom ettirib, mazkur siyosiy birlashma birnecha qabilalarining birlashgan harbiy demokratik konferensiyasi ya‘ni davlat birlashmasi bo‘lib, bu jarayon miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga to‘g‘ri kelgan deydi¹³². Shu bilan birga ilk monografiyada Xorazmda davlatchilikning ilk namunalari II bo‘limda qayd qilinadi. Mazkur bo‘limda Sariqamishbo‘yi xavzasidagi 1939-yilda arxeologik manbalar Toshxovuz viloyati hudularidagi Ko‘zaliqir, va Qalaliqirdan (2-ilova) olingan edi. Ko‘zaliqir yodgorligi yuqori hududidagi kamon o‘qlari, sopol siniqlari texnologiyasidan kelib chiqib, miloddan avvalgi VI-V asrlar bilan belgilagan. Mazkur ma‘lumotlar tadqiqotchining ilk maqolasida o‘rin olgan¹³³. Arxeologik izlanishlar Ko‘zaliqir mudofaa devorida olib borib, mudofaa devor yo‘lak va yo‘lakda odamlar yashaganliklari, olov mavjudligini qayta tiklangan rasmda tasvirlanganligi ma‘lum¹³⁴. Shu bilan ushbu tadqiqotda miloddan avvalgi V asrga mansub bo‘lgan Qalaliqir yodgorligining rejasi, mudofaa devorlari va ichki tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotni qayd qilgan¹³⁵ tadqiqotchilarning ilmiy-ommabop asarida ham Ko‘zaliqir va Qalaliqir yodgorliklari to‘g‘risidagi fikr-muloxazalarini davom ettiradi. Asarda Ko‘zaliqir va Qalaliqir yodgorliklari rejaviy tuzilish, mudofaa tuzimi va ularning tarixiy sanasini yana bir marta qayd qiladi (3-ilova)¹³⁶.

XX asrning 60-yili boshlarida tadqiqotchi tomonidan chop qilingan monografiyasida maxsus paragraf ilk temir davlati tarixiga manba beradigan Ko‘zaliqir, Qalaliqir va Ding‘ilja yodgorliklarining arxeologik jixatidan o‘rganilish tarixiga oid ma‘lumotlar o‘rin olgan. Ta‘kidlash lozimki, 1939-yilda Sariqamishbo‘yi xavzasidagi arxaik davrga oid yodgorlik Ko‘zaliqirda qisman olib

¹³² Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948, С. 103-107.

¹³³ Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма. ВДИ, №2, 1941, С. 178.

¹³⁴ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948. С. 79, 81 рис-20.

¹³⁵ Толстов С.П. кўр. асар. С. 80, рис 19.

¹³⁶ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации –М-Л, 1948, С. 93.

borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tarixshunoslikda keng oʻrnak olgan edi¹³⁷. Turli nomli nashrlarda Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasining Koʻzaliqir, Qalaliqir va Dingʻilja aholi turar-joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar yakunlari yoritilgan. Tadqiqotchining oxirgi monografiyasida Koʻzaliqir rejasi, uning markazida olib borilgan arxeologik izlanishlar VI joyida olib borilganligi, olingan ikki va uch qanotli kamon oʻqlari, 20 ga yaqin uy xonalari rasmlari berilgan. Koʻzaliqirning yuqori qurilishini miloddan avvalgi V asr bilan belgilaydi. Uning mudofaa devorining bir qismi, yarim aylana burj devor va burjlarda toʻgʻri burchakli shinaklar rasmlari oʻrin olgan¹³⁸. SHu bilan birga Dingʻilja qishloq tipidagi aholi turar-joyida olib borilgan qazishma ishlari natijalari toʻgʻrisida tarixiy maʼlumotlar oʻrin olgan. Dingʻiljaning 20 dan ortiq uy-xonali tuzilishi berilgan yodgorlikni miloddan avvalgi V asr oxiri bilan belgilangan¹³⁹. Shuningdek, Koʻzaliqir balandligi yaqinidagi Qalaliqir balandligida aholi tomonidan bino qilingan balandlik atamasidagi yodgorlik rejaviy tuzilishi, mudofaa inshootlari rasmi, ochib tashlangan uy-xonalari, saroy qoldiqlari, saroy ichki qismida bir-biriga toʻgʻri qoʻyilgan baza-ustunlar va may ichadigan qadah-riton hamda meʼmoriy tuzilishi har xil ostadonlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni qayd qilgan¹⁴⁰.

1959-1960 yillarda janubiy Oqchadaryo havzasidagi Dingʻilja atamasidagi uyida arxeologik tadqiqotlari olib borib, miloddan avvalgi V asrga oid moddiy ashyolar olingan¹⁴¹. Yuqorida qayd qilingan tarixiy sanalarda M.G Vorobʻyeva Dingʻilja yodgorliklarida qazishma ishlarini olib borishi natijasida u katta uy-xonasi (34x24 m) va 7 ta xona va ichki hovlidan qurilib, ular toʻgʻriburchak reja

¹³⁷ Толстов С.П. Древний Хорезм, С. 77-82. По следам древнехорезмийской цивилизации –М., 1948, С. 93-109. Городища с жилыми стенами/ КСИИМК, XVII. 1947, С. 3-8. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция 1950-СА, XVIII, 1953, С. 318. Итоги работ Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР за 1951-1953 гг. доклады советской делегации на XVIII международном конгресс востоковедов. Секция Ирана, Армении и Средней Азии. –М., 1954, С. 14-15. Итоги работ Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР 1953 г. ВДИ №3 1955, С. 193-197. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1949-1953 гг. Тр ХАЭЭ. –Т., 1958, С. 143-153.

¹³⁸ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: “Наука”, 1962, С. 96-101 рис-43, рис-44, рис-45, рис-48.

¹³⁹ Толстов С.П. Кўр асар, Б. 101-102. Рис-49.

¹⁴⁰ Толстов С.П. Кўр асар, С. 109, рис-51, С. 111, рис-52, С. 113, рис-54, С. 114, рис-55, С. 156, рис-57.

¹⁴¹ Воробьева М.Г. Раскопки археологического поселения близ Дингильже // МХЭ. –М.: “Наука”, 1959, С. 70-80.

asosida qurilgan. Uning ichki tuzilishi g'arb va sharqiy tomonga yo'lak orqali ajralgan. Yodgorlik to'rt tomoni qalinligi 2-2,4 m devor bilan o'ralgan. Yodgorlik ikki qurilish davridan iborat, ya'ni 1-qurilish davri paxsa, ikkinchi qurilish davrida esa kvadrat g'ishtdan tiklangan va ta'mirlash ishlarida ishlatilgan¹⁴². Muhandislar va loy me'morlari yodgorlik ichki qismida turar-joylar, oshxona omborxona, yog'och ustunli zallari reja asosida qurganlar zalning markazida olov-o'choq aniqlangan, u e'tiqod marosimlarga mo'ljallangan. Turar-joylarning janubiy tomonida keng xovlida paxsa devorlari xom g'ishtdan qurilgan chuqur hovuz (13,5x9 m) qoldig'i to'g'risida tarixiy ma'lumotlar mavjud. 1970-1982 yillar davomida tadqiqotchi O.A. Vishnevskaya Ko'zaliqir yodgorliklarida qazishma ishlarini qaytadan olib borib, uning tarixiga oid yangi ma'lumotlarni olishga muvassar bo'lgan. Tadqiqotchi fikricha, yodgorlikning tarixi quyidagicha bo'lgan. Yodgorlikning bunyod qilinishi, uning rejaviy tuzilishi, me'moriy tuzilishiga oid keng ma'lumotlarni olishga muvassar bo'lgan. Qazishma natijalari II maqolada o'z aksini topgan¹⁴³.

S.P. Tolstov Ko'zaliqir yodgorligi to'g'risidagi xulosasida istehkom ichki qismidan podaxona sifatida foydalanilgan¹⁴⁴. O.A Vishnevskaya esa yodgorlikdan olingan moddiy ashyolarni ilmiy muomalaga olib kirib, yangicha qarashlar va yondoshuvlarni ilgari surgan. Chunonchi: Ko'zaliqir ikki qismdan, Ya'ni yuqori va pastdan iborat bo'lgan. Yodgorlik ilk adabiyotlarda 40 ga deb qayd qilingan, yangi izlanishlar natijasida uning xajmi qisqargan, ya'ni 25 ga. Yodgorlikning ichki qismida 20 ta xona aloxida ustunli zallar hamda maydoni 800 kv.m hovli qoldig'i o'rganilgan. Xom g'ishtdan qurilgan supalar, olovxona. Mudofaa tizimi tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar olingan, ular oralig'i 30-35 m yarim burjlarga ega kabi tarixi keng yoritilgan¹⁴⁵. XX asrning 50-yillari oxirida Ya.G' G'ulomovning fundamental asarida Ko'zaliqir, Qalaliqir aholi markazlari to'g'risida

¹⁴² Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба середины I тыс.я до.н. э Древнем Хорезме // МХЭ, Вып 9, 1973. С. 17-84.

¹⁴³ Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзели-гыр // АО 1971. –М.: “Наука”, 1972, С. 532-533. Ўша муаллиф. Раскопки городище Кюзели-гыр // АО-1977. –М.: “Наука”, 1978, С. 544-545.

¹⁴⁴ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948, С. 80.

¹⁴⁵ Вишневская О.А, Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели-гир. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // ВДИ, №2, 1997, С. 150-173.

ma'lumotlarni qayd qilib, ularning tarixini yanada rivojlantirgan¹⁴⁶. V.N Pilipko Amudaryo o'rta qismi (so'l soxilida) aholi tomonidan barpo qilingan Odoytepa, Qushqal'a yodgorliklarda olib borgan arxeologik izlanishlar natijalarini bir qator maqolalarda yoritdi. Maqolalarda yuqorida qayd qilingan yodgorliklarining rejaviy tuzilish, mudofaa tizimi tarixiga oid ma'lumotlarni e'lon qilgan¹⁴⁷. XX asrning 70-yillarda D.Durdiyev Qang'qaqal'a tarixiga oid tarixiy ma'lumotlarni ilmiy jamoatchilikka taqdim qilgan. U Qang'adaryo soxili etaklariga ulanib ketgan hududlarni qamrab olgan madaniy-xo'jalik markazlarini bosh shahri bo'lgan.

Hazorasp va Xiva (Ichon qal'a) yodgorliklarining arxaik davrga oidligi to'g'risida muloxazalar tadqiqotchilar o'rtasida bod-bod uchrab turdi, lekin arxeologik manbalar mavjud emasligi, haqiqiy g'oyalarga aylanmagan. Vatanimiz milliy mustaqillikka erishganidan keyin Qoraqalpog'istonlik qadimshunoslar E.Bijanov, G'.Xo'janiozovlar Butentou balandligiga qurilgan shu atamadagi Butentou 1,2,3 yodgorligiga oid materiallarni olib, ularning tarixini yoritishga muvaffaq bo'lganlar¹⁴⁸. Mustaqillikning dastlabki yillarida Xiva shahrining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan. XX asrning 80-yillar o'rtalaridan boshlab tadqiqotchi M. Mambetullaev Xiva shahrining ichki qismida, mudofaa devorida qazishma ishlarini olib borib, uning natijalari bir nechta maqola va doktorlik dissertatsiyasida yoritildi, bu esa Xiva shahri tarixshunosligini boshlab berdi¹⁴⁹.

Milliy mustaqillik yillari nashrlarida Xiva shahrining qurilishi miloddan avvalgi V asrda amalga oshirilib, unda madaniy hayot hozirgi kunda ham davom etmoqda deb qayd qilingan. Shu bilan birga Hazorasp yodgorligining qurilishi, uning rivojlanishiga oid tarixshunoslikda yangi ma'lumotlar o'rin olganligi ma'lum. XX asrning 90-yillari o'rtalarida tadqiqotchilar Q.Sobirov, S.Ro'zimov,

¹⁴⁶ Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. –Т.: “Фан”, 1959, С. 78.

¹⁴⁷ Пилипко В.Н. Из работ Амударьинского отряда АО-1968. –М.: “Наука”, 1969, С. 428. Ўша муаллиф. Раскопки в Дейнауском район Чорджоуской области // АО-1974. –М., 1975, С. 528.

¹⁴⁸ Бижанов Е.Б, Хожаниёзов Ғ.К. Археологический комплекс Бутентоу. Нукус. 2003, С. 45-50.

¹⁴⁹ Мамбетуллаев М. Ягодин В.Н. К оценке хронологии и динамики культурного слоя. Хивы // Ону №3, 1986. Мамбетуллаев М. Хива антик даврда (милoddan аввалги VI-миолидй II аср). –Тошкент, 1977, Б. 170-171.

R.Abdirimov maqolalarida Hazoraspning tarixi yangicha rivojlantirildi¹⁵⁰. Arxaik davriga mansub yodgorliklarning qurilishi, mudofaa tizimi rivojlanish tarixi Q.Sobirov, G'.K Xo'janiyozov monografiyasida aks etgan bo'lib, tarixshunoslik fani yanada yangicha ma'lumotlar asosida rivojlantirildi¹⁵¹. Xususan tadqiqotchi Q.Sobirov monografiyasining bir bo'limi arxaik davr yodgorliklari, ularning tuzilishi, xajmi va mudofaa tizimi tarixiga oid ma'lumotlar qayd qilingan. Darxaqiqat, monografiya arxaik davri tarixshunoslik fani tadqiqotiga munosib xissa qo'shgan. G'.K Xo'djaniyozov monografiyasida arxaik davri tarixiga oid qisman ma'lumotlar qayd qilingan edi. Tadqiqotchi X. Matyaqubov Xorazmda ilk davlatchiligi va uning rivojlanishini yoritib, yangi ma'lumotlar asosida tarix fani yanada rivojlantirdi. X. Matyaqubov Xorazm voxasining bronza davri va ilk temir davrida o'zbek davlatchiligi tarixi, uning manbalari to'g'risida ma'lumotlarni qayd qilgan¹⁵². Monografiyada Ko'zaliqir, Qal'aliqir (4-ilova), Ding'ilja, Quysisoy yodgorliklari to'g'risida yangicha fikr-muloxazalarini bayon qilgan tadqiqotchilar tomonidan fikr-muloxazalari ham keltirilgan.

1996-1997 yillarda S. Bolelov Xumbuztepada qazishma ishlarini olib borib, undan olingan ashyolarni ilmiy muomilaga olib kirib, yangi g'oyalarga ega bo'lgan tarix fanini yanada rivojlantirdi¹⁵³. Xorazm Ma'mun akademiyasi S. Baratov rahbarligidagi guruh Xumbuztepada va Hazoraspda arxeologik izlanishlarni davom ettirib, miloddan avvalgi VII-VI asr boshlari tarixiy sanasini tarixshunoslik faniga olib kirdi¹⁵⁴. Shu bilan birga S. Bolelov arxeologik materiallarga asoslanib Xorazmning ilk tarixini (ilk temir davri) yoritgan¹⁵⁵. Tadqiqotchi N. Egamberdieva Xorazmning arxeologik va arxeografik tadqiqotida arxaik davri tarixi yozma manbalar va arxeologik manbalar asosida yangi g'oyalar va yondoshuvlar asosida

¹⁵⁰ Собиров Қ, Рўзимов С. Археологические работы в Хазараспе / Вестник ККО АНРУз. Нукус, №4, 2003. С. 108-109. Собиров Қ, Абдиримов Р. Хазарасп и вопросы периодизации ранних этапов развития оседлоземледельческих культур Хорезма. Нукус-Бустан. 2000, С. 34-35.

¹⁵¹ Собиров Қ. Хоразмнинг кишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. –Т.: “Фан”, 2001. Хожаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т.: “Фан”, 2007.

¹⁵² Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза даври ва ilk темир даври тарихи. –Т., 2017.

¹⁵³ Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбуз тепе // Ону, Т №9-10, 1999 с. 85-90.

¹⁵⁴ Баратов С. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма//Ўзбекистон тарихи №4, 2007. С. 31.

¹⁵⁵ Балелов С. Ранний перевод истории древнего Хорезма // по археологическим данным (ранний железный век) // Ўрта осий археологияси, тарихи ва маданияти. –Т., 2002, С. 44-45.

yoritilganligini eslash joiz¹⁵⁶. 2002-2003 yillarda S.Baratov Xorazmda qazishma ishlarini olib borib, miloddan avvalgi VI asr boshiga oid bo'lgan tarixini yoritadigan ashyolarni oldi. Shu ashyoga asoslanib, uning arxaik davri tarixini yoritgan maqolani e'lon qildi¹⁵⁷. Shu tariqa, Xorazm voxasi va unga janubiy tomondan ulanib ketgan Sariqamishbo'yi xavzasida arxaik davri Xorazm tarixshunosligi sho'ro davrida S.P. Tolstov, M.G. Vorob'yeva, B.I Vaynberg, Ya.G' G'ulomov, D.Durdievlar tomonidan rivojlantirilgan. Ma'lumki, XX asrning 30-yillaridan e'tiboran yuqorida qayd qilingan hududlarda 300 dan ziyod ilk temir davri davlatchiligiga oid yodgorliklar ro'yxatga olingan. Ularning ayrimlarida qazishma ishlari olib borilishi natijasida olingan manbalar tarixshunoslik fanining vujudga kelishi va rivojlanishini boshlab bordi.

Vatanimiz milliy mustaqilligi yillarida M.M Mambetullayev, V.N. Yagodin, G.Xo'janiyozov, S.Ro'zimov, Q.Sobirov, S.Bolelov, S.Baratov tadqiqotlari Xorazmning mustaqillik yillari tarixshunoslik fani rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar. XX asrning 50-yillaridan boshlab, qadimgi O'zbekistonning markaziy, janubiy hamda Farg'ona vodiysida qadimshunoslar tomonidan arxaik davrga mansub aholi markazlarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalariga asoslanib chop qilingan nashrlar o'zbek xalqi ilk davlatchiligi tarixini yoritishga yangicha qarashlar va yondoshuvlar asosida yoritish imkonini vujudga keldi. V.A Shishkina, Ya.G' G'ulomov, A. Asqarov. M. Isomiddinov, R. Sulaymanov, B. Matbabayev, A.S Sagdullayev, Yu.A Zadneprovskiylar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari ilk davlatchilik tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi. Zarafshon voxasi markaziy qismida vujudga kelgan ilk davlatchilik tarixi Samarqand (Marokanda, Afrosiyob) shahari madaniy qatlamlaridan olingan moddiy ashyolar asosida yoritildi. Chunonchi: Ya.G' G'ulomov rahbarligida Samarqand shahrining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixini o'rganish maqsadida maxsus

¹⁵⁶ Эгамбердиева Н.А. археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (VI-IV вв до н.э.) Авто реф. Нукус. 2001.

¹⁵⁷ Баратов С.Р, Матрасулов Ш. Археологические работы в Южном Хорезме//Археологические исследования в Узбекистане 2002 г. Самарканд. 2003, С. 43-44.

Afrasiyob ekspeditsiyasi tashkil etadi. Mazkur ekspeditsiya xodimlari Afrasiyob yodgorligi ko'pqatlamli ekanligini yoritadigan ashyolarni olishga erishganlar.

XXI asrning birinchi o'n yilliklarida Xorazm tarixiga bag'ishlangan konferensiyalar va seminarlar bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanlarda Xorazm tarixshunosligi yanada rivojlantiriladi. Samarqand (Afrasiyob, Ko'ktepa) bilan tamom bo'lgan ekan, undan avval Xorazmda davlatchilik tarixi bor ekan. Shu yanada davom etadi tadqiqotchilar Avesto kitobi xalqaro miqyosda yubileyi o'tkazilgandan keyin kitob mazmunidagi tarixiy ma'lumotlarni e'tiborga olib yangidan-yangi ma'lumotlarni qamrab olgan nashrlarni ilmiy jamoatchilikka taqdim qildilar. Xususan 2017-yil o'tkazilgan "Xorazm voxasi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixi kontekstida: yangi ilmiy tadqiqot natijalari" mavzusidagi respublika konferensiyasida tezisda Xorazm davlatchiligi tarixi yoritildi. Shu bilan birga mualliflar hamkorligida 2013-yilda O'zbekiston davlatchiligi tarixi yuzini ko'rdi. Shu munosabat bilan Xorazm davlatchiligi tarixi nashrida tadqiqotchilar maqolalariga etiborni qaratamiz. Mazkur nashrda E.V Rtveladze, V.N Yagodin, S.B Bolelov maqolalari o'rin olgan. V.N Yagodin Xorazm ahamoniylar davlati satrapi deb nom olgan maqolasida ahamoniylar davrigacha Xorazm geografik chegaralari noaniq ekanligi, Geradotning Xorazm to'g'risidagi ma'lumotlari va uning xos viloyat sifatida ekanligini qayd qilgan¹⁵⁸. E.V Rtveladze asosiy e'tiborini "Katta Xorazm" masalasi, Xorazm davlati chegaralari hamda siyosiy va sulolalar tarixiga qaratgan¹⁵⁹. A. Balaxvansev Xorazmning Ahamoniylar davlati tarkibidan ajralib chiqishi masalasini maqolasida qayd qilgan. Ya'ni, muallif bu masalada tadqiqotchilar o'rtasida turli g'oyalar borligini qayd qilgan. Masalan V.M Masson Xorazmning mustaqil bo'lishi miloddan avvalgi IV asr boshlarida bo'lgan desa, B.Ya Staviskiy Xorazm miloddan avvalgi V asr oxiri- IV asr boshida degan g'oyasi mavjud. B.I Voynberg miloddan avvalgi IV asr o'rtasida, I.V Pyankov esa miloddan avvalgi V asr oxiri- IV asr boshida degan ma'lumotlarga e'tiborni

¹⁵⁸ Ягодин В.Н. Хоразм-сатрапия государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2013, С. 45-48.

¹⁵⁹ Ртвеладзе Э.В. Государственно объединение "Большой Хорезм" – Миф, созданный учеными или историческая реальность. // 5-ша нашрда, с 30-35. 5-ша муаллифлар. Между Бактрей и Маргианой-первоночная территория расселения хорасмиев // 5-ша нашрда, с. 35-41.

bergan. Tadqiqotchi esa Xorazmning mustaqil bo'lishini miloddan avvalgi V asr oxiri bilan degan¹⁶⁰.

Xorazm tarixi zamonaviy tadqiqotlarda deb nomlangan nashrda Xorazm voxasining eng qadimgi va ilk o'rta asr tarixshunosligi masalalari qamrab olgan. Sh.B Shaydullayev, A.Sh Shaydullayev maqolada Xorazm atamasining paydo bo'lishi va asosiy mazmuni Xorazmning kelib chiqishi, N.Egamberdieva Xorazm arxaik madaniyati xususiyatlari, S.R Baratov Quyi Amudaryoda urbanistik madaniyatning manbasi, Xorazm shaharlari Ko'zaliqir va Hazorasp qal'alari mudofaa tizimi tarixi. Ilk o'zbek davlatchiligining rivojlanish bosqichlarida Xorazm voxasi kabi maqolalar e'lon qilinib, tarixshunoslik fanini yangi materiallar bilan yanada rivojlantirdilar. Janubiy sug'd (Qashqadaryo voxasi) ilk temir davri tarixshunosligini R.Suleymanov o'z tadqiqotlarida yanada rivojlantirdi. T.V Shishkina Samarqand shahrining ilk temir davri tarixshunosligini o'z maqolasida aks ettirgan¹⁶¹. Janubiy sug'dning ilk temir davri tarixshunosligi R.X Sulaymonov tomonidan mustaqillik yillarida yanada rivojlantirildi. Maqolada Qarshi, Nasaf va Naxshab shaharlari misolida ilk temir davridan milodiy VII asrgacha bo'lgan tarixiy jarayonlar taxlil qilingan¹⁶². Surxon voxasida faoliyat olib borgan davlatchilik tarixi A.Sagdullayev, Sh. Shaydullayev tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Tadqiqotchi N.M Bozорова maqolasida sherobodda kechgan tarixiy voqealarni taxlil qilib, Sherobodda davlatchilik asoslari bronza davridan vujudga kelganligi, uning tarixiy rivojlanishi Sayitobod qishlog'idagi Jondavlat, Talashkantepa yodgorliklari tarixida davom etganligini aks ettirgan¹⁶³.

Farg'ona vodiysining ilk temir davri tarixshunosligi Yu.A Zodneprovskiy, S.Qudratov, mutaqillik yillarida B. Matbabayev tadqiqotlarida o'z ma'nosini topgan. Xususan, Yu.A Zadneprovskiy monografiyasida Farg'ona vodiysida ilk

¹⁶⁰ Балахванцев А. Отделение Хорезма от государства Ахеменидов // ўша нашрда. С. 49-60.

¹⁶¹ Шишкина Г.В. Древний Самарканд и его округа // Городская культура Бактрии-Тохаристана и Согда. Материалы советско-Французского коллектива. –Т.: “фан”, 1987, С. 164.

¹⁶² Сулайманов Р.Х. Карши-Насаф-Нахшаб в системе мировой цивилизации. //Роль города Карши в истории мировой цивилизации / Материалы международной научной конференции посвященной 2700 летнему юбилею города Карши. Тошкент-Карши. –Т.: “Фан”, 2006.

¹⁶³ Бозорова Н.М. Кадимий ва ўрта асрларда Шерободда урбанизация жараёнлари // Урбанизационные процессы в Узбекистане: История и современность. –Т., 2007.

temir davri urbanizatsiyasiga manba Chust va Dalvarzintepa aholisi ijodi bo'lgan degan xulosaga kelgan¹⁶⁴. Mustaqillik yillarida Temir davri tarixiga oid nashrlarni B.Matbabayev, A.Anarboev tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

¹⁶⁴ Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА № 118. –М.: “Наука”, 1962.

III BOB. O'rta Osiyo antik davr siyosiy birlashmasining yoritilishi manbashunosligi va tarixshunosligi.

3.1. Antik davr tarixini o'rganishda moddiy ashyolar manba sifatida.

Arxeologik izlarishlar natijalariga ko'ra, O'rta Osiyo antik dunyo tarixini qamrab olgan jarayonlarni o'rganishda markaz va mahalliy ilmiy markazlarning hamkorlik ekspeditsiyasi va aloxida arxeologik guruhlarining O'rta Osiyoning tarixiy-viloyatlarida aholi turar-joylari madaniy qatlamlaridan olingan ashyolar Antik davr tarixini har tomonlama o'rganishda muhim manba bo'lib hisoblanadi. XX asrning 30-yillar o'rtalari – 90-yillar mobaynida qadimshunos olimlar O'rta Osiyo tarixiy viloyatlarida aholi turar-joylarida arxeologik qazishma ishlarini olib borishi natijasida antik davr tarixini yoritadigan manbalarni olishga erishganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, antik davrga mansub yodgorliklarni arxeologik jixatidan o'rganilishi natijasida manbalar Xorazm voxasi hamda S.P Tolstov rahbarligidagi Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari, tomonidan olingan.

XX asrning 60-yillar o'rtalaridan boshlab bu ishga Qoraqalpog'istonlik arxeolog olimlar tomonidan manbalarni olishni boshlaganlar. Natijada arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining Xorazm voxasida keng ko'lamda olib borgan arxeologik izlanishlari natijasida antik davrda kechgan tarixiy jarayonni yoritadigan manbalar olinganligini ta'kidlash joiz. Shu sababdan O'rta Osiyo tarixiy viloyatlarida istiqomat qilgan ajdodlarimizning tarixiga oid manbalarning arxeologik jixatidan olinish tarixini Xorazm voxasidan boshlanganligini nazarga olib, antik davr manbashunosligini Xorazm voxasidan boshlash haqiqatdir.

Bozorqal'a — Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani hududida, deyarli kvadrat shaklda (600x560m) qurilgan, uning maydoni 33 ga. Devor pastki qismining qalinligi 8.5-9 m. Devor ikki qatorli bo'lib, ular o'rtasida yo'lak — koridor hosil bo'lgan. Tashqi devor nayza o'qi uchli shinaklarga ega. Devor va uning tashqi burchagida yarim aylanali burjlar joylashgan bo'lib, ular o'rtasidagi masofaa 30-50 m, kengligi 5,5 m, devordan yon o'sib chiqishi 6,5 m. Qal'a darvozasi shimoliy devor o'rtasida joylashgan, kengligi 5m, ikki yon tomonida yarim aylanali burjlarga ega. Ark

yodgorlikning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan, kvadrat shaklida (120x120 m). Uning maydani 1,4 ga teng. Ark ikki qatorli devor bilan o‘rab olingan bo‘lib, yarim aylana burjga ega. Arkning kirish qismi bir tirsakli to‘g‘ri burchakli “labirint”ga ega, hajmi 22x17 m. Labirint, o‘z navbatida, kengligi 2,1 m yo‘lakka ega. Uning shimoli-g‘arbiy burchagi ikki tomonga yo‘nalgan “qaldirg‘och dum”li burjlar bilan mustahkamlangan. Ark devorining saqlanib qolgan qismi 9-10 m. Devor nayza o‘qi uchli shinaklarga ega, ular o‘rtasidagi oraliq 1,6-2 m. Devor va burj qurilishida 47x47x10-12 sm xom g‘isht ishlatilgan. Bozorqalada mil.avv. IV asrda madaniy hayot bo‘lib, uning qadimgi davrdagi tarxi saqlanib qolgan, qal’aning umumiy maydonida o‘zgarish yuz bermagan. Antik davrda paxsadevor ustiga xomg‘ishtdan qurilgan bo‘lib, ular o‘rtasidan kengligi 2,30 sm yo‘lak o‘tgan. Devor yarim aylanali burjlarga ega, ular o‘rtasidagi masofa 30-50 m, kengligi 5,5 m, uzunligi 6,5 m bo‘lgan (jami 44). Shahar darvozasi shimoliy qismidagi devor markazida joylashgan, labirintga ega emas, lekin ikki yon tomondan yarim aylanali burjlar bilan mustahkamlangan. Shimoli-sharqiy burchagida ark-a’lo joylashgan bo‘lib, to‘g‘ri burchak holda uning hajmi 120-120 m, devor balandligi 4 m, pastki qismining qalinligi 8,5-9 m. Ark darvozasi g‘arbiy devor o‘rtasida bo‘lib, murakkab inshoot bilan mustahkamlangan (22-17m). Murakkab inshoot yarim aylanali burjlar bilan mustahkamlangan. Devor va burjlar nayza o‘qi uchli shinaklar bilan bezatilgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi masofa 1,6-2 m, tashqi tomondagi hajmi 1,2 m, ichki tomonda esa 0,60 sm. Bozorqal’a tarixi ikki qurilish davridan iborat bo‘lib, mil. avv. VI-milodiy IV asrgacha shaharda madaniy hayot davom etganligi to‘g‘risida manbalar olingan¹⁶⁵.

Tuproqqal’a (Ellikqal’a)- Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari yodgorlikning sarayoldi qazish ishlarini olib borib, so‘nggi antik davr tarixini qamrab olgan moddiy va ma’naviy manbalarni olishga erishgan. Saroyda olib borilgan qazishma natijalarini e’tiborga olsak noyob manbalar olingan. Saroy

¹⁶⁵ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948, с. 112.

tashqi devori ustki qismi xaykalchalar bilan bezatilgan. Saroy xonalarida turli xizmat ishlari olib borilgan. Bir qancha xizmat turidan bir-biridan farq qiladigan uy xonalari o'rganilgan. Masalan: maydoni 280 kv m bo'lgan "podsholar zali" bo'lib, uning devorlari loydan yasalgan xaykalchalar, Xorazm podsholari, uning xotinlari, xizmatkorlari o'rganilgan. Saroyga kiraverishda "alebastr xaykalcha"lariga ega bo'lgan zal-xonasi joylashgan. Shu bilan birga "Bug'ular zali", "askarlar zali", "uzum zali" va "kanizaklar zali" va boshqalar. Shuningdek uy-xonalaridan arxiv materiallari "Arfa chalayotgan ayol" rasmi, uzumni uzayotgan ayol rasmlari uy xonalari devorlarini bezab turibdi. Niqob kiygan kishilar xonasi o'rganilib, u uychaga tushadigan zal mavjud bo'lgan. Arxeologik ashyolardan eng muhimi so'nggi antik davr voha aholisining tili qanday usulda bo'lganligini isbotlaydigan yozuv namunalari bo'lgan. Tuproqqal'a saroyidan olingan manbalar nafaqat yodgorlik tarixini, balki qadimgi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jixatidan rivojlanish tarixini o'rgansada muhim manba bo'lib xizmat qiladi¹⁶⁶.

Aqshaxanqal'a – Yodgorlik Beruniy tumanida joylashgan kvadrat shaklda, umumiy maydoni 55 ga. Yodgorlikda olib borilgan qazishma ishlari natijasida antik davrda yuz bergan tarixiy jarayonlarni yoritadigan ashyolari olingan. Chunonchi: Katta xajmli ibodatxona va saroy qoldig'i hamda yo'lak devorlarida podsho rasmi, uning kiyik boshi, yuqori qismida qush xaykali o'rnatilgan¹⁶⁷ (5-ilova).

Ding'ilja- 1956, 1959-1960-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi xodimi M.G.Vorob'yeva tomonidan arxeologik izlanishlar olib borilgan. Janubiy Oqchadaryo havzasida faoliyat olib borgan Kaltaminor kanali sohiliga tutashgan tekislikka joylashgan aholi maskani tarxi to'g'riburchak shaklda, hajmi 60x9x48 m. U yagona devor bilan o'rab olingan, uning qalinligi 2-2,4 m. Hajmi 0,5 ga. Arxeologik tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, hajmi kichik

¹⁶⁶ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: "Наука", 1962, С. 209-223.

¹⁶⁷ Хожаниёзов Г., Хелмс С.У. Снеддон Э. Археологические исследования на городище Акшахан калъа. В 2001 г. Самарқанд, 2002, С. 165-167.

manzilgohning qurilishi ikki tarixiy davrdan iborat bo'lgan. 1-qurilish davrida maskan paxsa devor bilan o'rab olingan. Mazkur davrda faqat 4 to'g'riburchak va kvadrat hajmli uy-xonalari faoliyat olib borgan. Ikkinchi qurilish davrida uy-xonalari 30 dan ziyod uy-xonalari qurilgan. Manzil qurilishida kvadrat xom g'isht ishlatilgan. Uy-xona devorlari va yo'laksiz mudofaa devor qurilishida 45x43x44 - 40x12, 43x40-39x11 sm kvadrat g'ishtlar ishlatilgan. Uy-xonalaridan sopol ashyolar, kamon o'qlari va loydan yasalgan yadrolar olingan. Maskan mil.avv. IV asr boshida qurilib, milodiy IV asrga kelganda madaniy hayot o'z yakuniga etgan. Aynan o'sha sanalarda uning atrofida 58 ta manzilgohlar ro'yxatga olingan. Mazkur ma'lumotlar o'sha tarixiy sanalarda qishloq tipidagi manzil atroflari aholi tomonidan keng ravishda o'zlashtirganliklari bois, obod va gulshan diyorga aylangan. Janubiy Oqchadaryo havzasi bosh shahri va dehqonchilik vohasi markazi.

Yonboshqal'a - Kaltaminor sug'orish inshootining shimoli-sharqiy etagida, Yonboshqal'a fermer xo'jaligi hududida joylashgan. Qizilqumning manzarasini namoyon qilgan Yonboshqal'a tepaligi yon qiriga aholi tomonidan mil.avv. IV asrda bino qilingan (*6-ilova*). To'g'riburchak shaklda umumiy maydoni 3,4 ga. Uning rejaviy tuzilishi to'g'riburchak shaklda bo'lib, uning faoliyati ikki tarixiy davrdan iborat bo'lganligi aniqlangan. 1-qurilish davrda ikki qatorli yo'lakka (2,80 m) ega bo'lgan paxsadan tiklangan devor o'rab olgan. Shimoliy devor o'rtasida darvoza joylashgan. U G-paxsadan tiklangan yo'lakli labirintga ega. Maskan ichki qismiga labirint darvozasi orqali kirilgan. Ikkinchi qurilish davrida paxsa devorga kvadrat (40x40x10 sm) g'ishtli devor tiklangan, yo'lak ustki qismi ravoq bilan birlashtirilgan. O'qchilar turadigan yo'lak ochiq holatda bo'lib, ularning dushman harakatlarini kuzatish qulayligini hosil qilgan. Tashqi devor shaxmat usulda nayza o'qli shinaklarga ega. Ularning oraliq maydoni 1.2 sm. ichki tomon kengligi 18-20 sm, tashqi tomonida 0,75 sm, Darvoza kengligi 4 m, uning old qismi tashqi devordan oldinga o'sib chiqqan 18 m, yo'lakli ikki qatorli bir tirsakli devor bilan o'rab olingan, umumiy maydoni 0,1 ga.

Darvozadan qarshi tomonga kengligi 30 m ko'cha o'tib, maskan ichki tuzilishini ikki mahallaga ajratgan, har bir mahallada taxminan 200 xonadon joylashgan. Yodgorlik milodiy IV asrga kelganda faoliyati tugatgan. Bozorqal'a - madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi bosh shahri.

Qo'yqirilganqal'a - To'rtko'l tumani hududida mil. avv. IV asrda aylana shaklda bino qilingan, umumiy maydoni 86,5 m. Ichki qurilishi ikki tarixiy sanadan iborat. 1-qurilish davrida yo'lakka paxsa devor bilan o'rab olingan, ichki va tashqi devor oralig'i 2 m. Darvoza paxsadan devor bilan bir sanada qurilgan. Uning oldi qismi bir tirsakli paxsadan tiklangan labirint bilan o'rab olinib, uning tashqi devordan o'sib chiqishi 18 m, eni 10 m.

Ikkinchi tarixiy davrda paxsa va labirint devoriga kvadrat xom g'ishtdan devor tiklangan. Tashqi devor yon tomonida oralig'i 8,2 m, kengligi 9 m. yarim aylana joylashgan burjlar mavjud. Markaziy qismida ichki devordan 14,5 m uzoqlikda aylana shaklda, qurilgan, uning ichki qismi 8 xonadan iborat inshoot qad ko'targan. Devor, burj, darvoza devori va uning labirint devori va markazda bino qilingan ikki qavatli inshoot nayza o'qli shinaklar qal'aga me'moriy-estetik uyg'unlikni bergan. Yodgorlikda 2000 dan ziyod kamon o'qli shinaklar mavjud bolgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, markazdagi aylana inshoot samoviy yulduzlar xarakatini kuzatish joyi bo'lgan. Yodgorlik so'nggi faoliyati davrida aholi tomonidan qabristonga aylantirilgan. Bozorqal'a - madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi bosh shahri.

Qo'rg'oshinqal'a - yodgorlik tarxi to'g'riburchak shaklda qurilgan 132-89,2 m (7-ilova). Qadimda kengligi 2,35 m yo'lakga ega bo'lgan ikki qatorli devor o'rab olgan. Mudofaa devorning saqlanib qolgan balandligi 14-16 m. Tashqi devor qalinligi 2,35 m, ichki devorniki esa 2,05-2,20 m. Tashqi va ichki devor pastki qismi paxsadan qurilib, uning balandligi 1,52 m, keyin esa kvadrat shaklli xom g'ishtdan devor tiklangan (40 41x10-1 sm). Mudofaa devor yarim aylana va to'g'ri burchakli burjlarga ega Burjlarning joylashishi turlicha maydonni hosil qilgan, ya'ni shimoli sharq tomondagi 27-37 m,

janubi-sharq tomondagi devor burjlari o'rtasidagi maydon 6-31 m. ularning devordan yon tomonga o'sib chiqishi 7,6-8 m, kengligi 6,8-8,4 m. Mudofaa devor burjlarida nayza o'qi uchli shinaklar joylashib, shinaklar o'rtasidagi maydon 1,9 m kengligi 0,24 sm. Yodgorlikning kirish qismi aylana shakldagi burjlar bilan himoyalangan. Yodgorlik mil.avv. IV milodiy II asr bilan belgilangan¹⁶⁸. Bozorqal'a — madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri.

Ayozqal'a-3 - Sulton Uvays tog'i tizimidagi Ayozqal'a-1, Ayozqal'a-2 yodgorliklari yaqinida joylashgan bo'lib, uning rejasi to'g'ri to'rt burchak shaklida 250x180 m, ya'ni 4,5 ga ikki qatorli devor bilan o'rab olingan, yo'lak kengligi 3 m. Tashqi devor qalinligi 3,20 m, ichki devor esa 2,10 sm. Umumiy devor qalinligi 4,6 m. Devor, o'z navbatida, yarim aylanali burjlarga ega bo'lib, kengligi 7,5 m, Burjlar hajmi 7-8 m, 6-8 m, 9,5-8 m. Burjlar o'rtasidagi masofa 22-25 m. Devor va burjlarining pastki qismi paxsa bloklardan tiklangan bo'lib, uning hajmi 64-65 sm, 90-70 sm, 70-60x80 sm, keyinchalik devor va burjlar xom g'ishtdan tiklangan (38x42x10 sm).

Yodgorlikning janubiy qismida darvoza joylashib, bir tirsakli murakkab inshoot bilan kuchaytirilgan, uning saqlanib qolgan balandligi 2,3 m. Shimoli-g'arbiy burchagida to'g'ri burchak shaklida ark joylashib, uning hajmi 40x60 m¹⁶⁹. Ayozqal'a- madaniy xo'jalik markazi bosh shahri.

Qizilqal'a - Beruniy shahridan 27 km shimoldagi "Qizilqal'a" fermer xo'jaligi hududida joylashgan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan dastlabki manbalar asosida u milodiy I-IV, VI-VIII va XII-XIII asrlariga oidligi qayd etildi. G'.Xo'janiyazov yodgorlik pastki qatlami ilk kushon davriga mansubligi to'g'risida xulosaga kelgan. Yodgorlikning tarxi kvadrat shaklida 65x63 m. Mudofaa devori yaxshi saqlanib, qalinligi 3 m. Uning balandligi 13-16 m. Devor yaqinidan xandak o'tgan. To'rt tomoni devori markazida, yon tomoni 0,50-1 m o'sib chiqqan to'g'ri burchakli burjlar mavjud bo'lgan. Mudofaa devor va burj, dastavval,

¹⁶⁸ Хожаниязов Г.К. Оборонительные сооружения городища Кургашинок. В.сб. Археология Приаралья. Вып.№2. -Т., 1984.

¹⁶⁹ Неразик Э.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XV н.э.вв). -М.: "Наука", 1976, С. 41 (рис. 19).

paxsadan keyin esa xom g'ishtdan qurilgan (39-40-41, 39x40-13 sm). Devor yo'lakka ega bo'lib, uning kengligi 1-1,6 m. Tashqi devor qalinligi 1,6-1,9 m, ichki devorniki esa 1,1-1,6 m. Tashqi devorda nayza o'qi uchli shinaklar mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi masofa 1,6-2 m. Shinaklarning kengligi 0,18-0,20 sm, ichki tomondagi uzunligi 0,80-0,90 sm, tashqi tomoni esa 20-1,30 sm¹⁷⁰. Tuproqqal'a - madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi bosh shahri.

Gaurqal'a - Sulton Uvays tog'ining Qoratog' tizmasida joylashib, uning tarxi noto'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, shimoldan janub tomon cho'zilgan. Qadimda ikki qatorli mudofaa devor bilan o'rab olinib, avval paxsadan, kvadrat g'ishtdan qurilgan. Shimoliy tomondagi devor uzunligi 200 m, g'arbiy - 400 m, sharqiy - 450 m. Tadqiqotchilar tomonidan Gaurqal'a shimoli-g'arbiy burchagida arxeologik qazish ishlari olib borilishi natijasida mudofaa devorining balandligi 15 m, pastki qismi qalinligi 9 m. Paxsa devor ustiga qurilgan g'isht devorda nayza o'qli shinaklar mavjud bo'lib, ularning kengligi 20 sm, balandligi 60 sm, oraliq maydoni 2 m. Devor burji yarim aylana shaklda bo'lib, yon tomonga o'sib chiqishi 7,5 m, kengligi 9 m. Devor va burjlar kvadrat xom g'ishtdan tiklangan (40x40x9 sm)¹⁷¹. Sulton Uvays tog'i - Qoratov tizimidagi madaniy-xo'jalik markazi bosh shahri.

Kichikqirqqizqal'a - Sulton Uvays tog'i tizimidagi tekislikka bunyod qilingan. Yodgorlik ikki qismdan iborat bo'lib, tarxi jihatidan bir-biridan farq qiladi. G'arbiy qismining tarxi 85-75 m. G'arb tomondagi devorda darvoza joylashgan. Qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olinib, kengligi ikki metr yo'lakka ega bo'lgan. Devor paxsa poydevorga qurilgan. Tashqi devor balandligi 10 m, qalinligi 2,5 m, ichki devor 6 m, qalinligi 2 m. G'ishtdan qurilgan devorda nayza o'qli shaklidagi shinaklar joylashgan, ular o'rtasidagi oraliq 1,25-1,30 m. tashqi devordagi shinaklar uzunligi 1,85-1,95 m, ichki tomon kengligi 20-24sm. Yodgorlik sharqiy qismi aylana shaklida rejalashtirilgan. Devor va burjlar 1 m balandlikda paxsa bloklaridan

¹⁷⁰ Хожаниязов Г.К. Кзылкала (Работы 1981-1982 гг). Археология Приаралья. Вып. 2. –Т., 1986, С. 51-64.

¹⁷¹ Рапопорт Ю.А. Трудновская С. А. Городище Гауркальа. ТХАЭЭ. Т 2. –М.: “Наука”, 1958.

tiklangan. Darvoza shimoli-sharqiy tomondagi devor oʻrtasida joylashgan, kengligi 6 m. S.P.Tolstov fikricha, yodgorlik mil.avv. IV asrdan - milodiy I asrgacha, Y.Gʻ.Gʻulomov xulosasiga koʻra, mil.avv. II-I asrlarda yodgorlikda xoʻjalik-madaniy hayot mavjud boʻlgan. Mazkur atamada madaniy-xoʻjalik markazi bosh shahri.

Angaqalʼa - Amudaryoning oʻng sohilidagi hududda joylashgan boʻlib, uning tarxi kvadrat (75x75 m), ikki qatorli mudofaa devor bilan oʻrab olingan. Devorda toʻgʻriburchakli, burchakda esa kvadrat burjlar joylashgan boʻlib, ularning soni 9 ta. Mudofaa devor va burj devori, avvalo, paxsadan keyin, kvadrat xom gʻisht bilan qurilgan (40x40x10 sm). Qalʼaning kirish qismi janubi-sharqiy devor oʻrtasida joylashgan, ikki yon tomoni toʻgʻriburchakli burj bilan kuchaytirilgan, uning maydoni hajmi 5x8 m. Mudofaa devor va burjlar nayza oʻqi shinaklar bilan mustahkamlangan, ularning ichki qismi kengligi 1,20 sm, tashqi tomonidagi chiqishi esa 1,90 sm. Afsuski, arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan¹⁷². Eresqalʼa - madaniy-xoʻjalik markazi mikrovohasi bosh shahri.

Ayozqalʼa-1 - Ellikqalʼa tumanidagi Sulton Uvays togʻi tizmasida 60 m balandlikda toʻrtburchak shaklida qurilgan boʻlib, uning hajmi 182x152 m (8-ilova). Yodgorlikning uch tomoni chuqur jarlik bilan himoyalangan. Qadimda ikki qatorli devor oʻrab olinib, uning saqlanib qolgan balandligi 5-10 m. Tashqi devor qalinligi 2-4 m, ichki devor esa 21 m. Tashqi va ichki devor oʻrtasida 2,5 m yoʻlak boʻlgan. Paxsa devor yopiq yoʻlak 1,87 m, balandlikda svod (ravoq) shaklida gʻishtlar bilan berkitilgan. Darvoza janubiy devorda joylashib, toʻgʻriburchakli labirint inshoati bilan mustahkamlanib, balandligi 5-8 m, uning tashqi devordan yon tomonga chiqishi 37 m, sharqiy tomonga burilishi 27 m. Murakkab labirintga kirish sharqiy devorda boʻlib, kengligi 4 m. Tashqi devor boʻylab yarim aylanali burjlar qurilgan. Ularning soni 35 ta. Yodgorlik darvozasini himoya qilgan labirint ham yarim aylanali

¹⁷² Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948, С. 114, рис. 50;

Ходжаниязов Г.К. Ангакала-позднеантичная крепость древнего Хорезма. ВКФ АН УзССР, Нукус, №1, 1986.

burjlarga ega boʻlib, jami 3 ta. Devordagi burjlar orasidagi maydon hajmi turlicha. Sharqiy va gʻarbiy devordagi burjlar orasidagi oraliq 13,8 m, shimoliy tomonda m, janubda esa 9-15 m. Devor burchaklarida “qaldirgʻoch dumi” shaklida yarim aylanali burjlar joylashib, yon tomonga devordan chiqishida oraliq maydoni 1,50 m, oxirgi qismidagi chiqishida 3,5 m, devordan umumiy chiqish uzunligi 6-8 m, burjlarning devordan yon tomonga chiqishi 8-10 m, kengligi 6-8 m. Paxsa va burj devorlarida kvadrat gʻishtlar ishlatilgan. Gʻisht devorlarda shaxmat uslubda nayza oʻqi shaklida shinaklar joylashgan boʻlib, ularning kengligi 13-20 sm, kirish qismi balandligi 0,48 m, chiqishi esa 2,9-3,5 m, ular oʻrtasida oraliq 1,5 m. Burjlarda 7 ta shinak joylashib, ularning oʻrtasi qiyshiq yoʻnalishga ega boʻlgan¹⁷³. Ayoqzalʼa-3 - madaniy-xoʻjalik markazi mikrovohasi bosh shahri.

Jildiqalʼa - Beruniy tumani hududida tekislikka kvadrat shaklida qurilgan (50x50 m). Qadimda ikki qatorli mudofaa devor bilan oʻrab olinib, uning balandligi 14 m. Paxsa devor ustiga xom gʻishtli devor qurilib, uning balandligi 8 m, qalinligi 2,5-3 m. Yodgorlikning kirish qismi janubiy tomondagi burchakda joylashgan. Devor qurilishida kvadrat xom gʻisht ishlatilgan (42x42x10 sm). E.E.Nerazik tadqiqotlari natijalariga koʻra, yodgorlikda ilk oʻrta asrlarda madaniy hayot davom etgan. Mudofaa devor va burjlarida taʼmir ishlari olib borilgan. Qirqqizqalʼa madaniy-xoʻjalik markazi mikrovohasi bosh shahri.

Burliqalʼa - Elliqalʼa tumani hududidagi Sulton Uvays togʻi tizimida joylashgan, tarxi toʻrtburchak shaklida 120x95 m. Qadimda ikki qatorli mudofaa devor bilan oʻrab olingan. Burliqalʼa - madaniy-xoʻjalik markazi bosh shahri.

Toshxirmontepa - Beruniy tumanida joylashgan boʻlib, qadimda mudofaa devori bilan oʻrab olingan. Yodgorlikning shimoliy tepaligida qazish ishlarini olib borilishi natijasida sharqiy va gʻarbiy tomonda devor oʻrganilib, ular oʻrtasidagi oraliq maydon - 5,4 m. Paxsa devorning pastki qismi

¹⁷³ Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. –М.: “Наука”, 1940 СА, №VI, С. 174.

balandligi 0,9-1,3 m, ilk devorga xom g'isht qo'yilishi munosabati bilan uning balandligi 1,2-1,5 m (41x43x41x10x12 sm). Yodgorlik mil.avv. IV milodiy - IV asrlarga mansub bo'lgan¹⁷⁴. Aqshaxonqal'a- madaniy-xo'jalik markazi mikrovohasi bosh shahri.

Jigarband - 1974-1975-yillarda O.A.Vishnevskaya Darg'onota hududida joylashgan Jigarbandda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida uning tarxi to'rtburchak, shaklda, hajmi 80-90 m (1 ga yaqin). Xalqaro karvon yo'lida joylashgan. Yodgorlik mug'ullar istilosidan keyin iqtisodiy inqirozga uchragan. Mazkur dehqonchilik vohasi madaniy-xo'jalik markaz bosh shahri.

Xiva – mustaqillik yillarida yodgorlikning ichki qismi, ya'ni arkida hamda mudofaa devorining o'nta joyida qazishma ishlari olib borilib, antik davr qurilishi tarixini yoritadigan manbalar olingan. Arxeologik izlanishlar natijalaridan ma'lumki, yodgorlikning ikkinchi va uchinchi qurilish davrlari antik davrga oid, bo'lganligi to'g'risida manbalar olindi¹⁷⁵.

Hazorasp – voxaning janubida ziroatkor aholi tomonidan bunyod qilingan. Kvadrat shaklda umumiy maydoni 10 ga. Unda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, miloddan avvalgi VI asr birinchi yarmida bunyod qilinib, antik davrda faoliyat olib borgan¹⁷⁶.

Ko'hna Urganch – mahalliy aholi o'rtasida "Ko'hna" nomi bilan ma'lum. Yodgorlikdan olingan arxeologik ashyolarning isbotlashicha, miloddan avvalgi IV asrda qurilgan bo'lib, uning maydoni 400 ga. Shahar to'g'risidagi dastlabki manbalari arab sayyohlari, jo'g'roflari asarlarida uchraydi. Shaharda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, xorazmshoxlar davlati tarixiga mansub ashyolar olindi.

¹⁷⁴ Беттс А.Б., Ягодин Б.Х. Раскопки Ташкирмантепе. Археологические исследования в Узбекистане. 2001. –Самарканд, 2002.

¹⁷⁵ Асқров А. Хива шаҳар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий босқичлари. Инсонларнинг илмий ва маданий мероси-учинчи минг йилликка. // Бухоро ва Хива шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. –Тошкент, 1997, Б. 165-168.

Мамбетуллаев М. Хива антик даврда. Ўша тезисда, Б. 170-171.

¹⁷⁶ Собиров Қ, Рўзимов С. Археологические работы в Хазараспе / Вестник ККО АН Руз №3-4, 2003, С. 108-109.

Zamaxshar (Zumuxshur) – to‘g‘riburchak shaklda maydoni hajmi 350x250m, ya‘ni 9 ga. Arab sayyohlari va geograflari asarlari yodgorligi hamda manbalarni olish mumkin ya‘ni ma‘lumotlar uchraydi. Al-Muqaddasiy darvoza, keng ko‘cha, qamoqxona, bozor borligi haqida yozadi, uning atrofi xandak bilan o‘rab olingan. Zamaxsharning yuqori qatlamida arxeologik tadqiqotlarning olib borilishi natijasida olingan arxeologik ashyoviy dalillar ilk o‘rta asrga oid ekanligi aniqlandi¹⁷⁷.

Toshqal’a-2. Qishloq tipidagi aholi markazi. Yer sathidan saqlanib qolishi 1,5-2 m. Rejasi kvadrat maydoni 50x50 m. Arxeologik tadqiqotlar Toshqal’a-2 yodgorligida olib borilishi natijasida ikki qatorli mudofaa devori o‘rganilib, ular o‘rtasidan o‘tgan yo‘lakning kengligi 2 m. Tashqi devor qalinligi 170 sm, ichki devor esa 150 sm.ga teng. Devor burchagida va devorda yarim aylana burjlar o‘rganildi, devordan yon tomonga o‘sib chiqishi 3,5 m, devor va burjlar, o‘z navbatida nayza o‘qi uchli shinaklar kabi moddiy ashyolar olindi¹⁷⁸.

Shohsanam – Charmanyop kanalining oxirgi qismida bunyod qilingan. Qal’a rejalashtirilishi to‘g‘ri bo‘lmagan ko‘pburchak holda, uzunligi 970 m. Shimoli-sharqiy qismi hajmi 50x55 m bo‘lib, shimoliy devorga birlashgan. Tashqi devor balandligi 3,2 m, qalinligi 3,3 m. Devor, avval, paxsadan, keyin kvadrat xomg‘ishtdan qurilgan (40 x40 x10). Tashqi devor va burjlarda nayza o‘qi uchli shinaklar mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi masofa 2,4 m, balandligi 1,05 sm, kengligi 0,5-0,20 sm. Shaharning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi qisman o‘rganilgan.

Tuproqqal’a - Yangiariq tumani hududida joylashgan. Rejalashtirilishi to‘g‘ri burchak shaklida, umumiy maydoni 3,5 ga. Qadimdan ikki qatorli devor bilan o‘rab olingan. Tashqi devor qalinligi 2,4 m, ichki devor 2,2 m. Yo‘lak kengligi 2 m. Devor, o‘z navbatida, to‘g‘riburchakli burjlar, ular o‘rtasidagi masofaa 22-24 m. Devordan yon tomonga o‘sib chiqishi 7 m, kengligi 9 m.

¹⁷⁷ Ершов С.А. Археология Туркменской ССР за 20 лет. // Известия Туркм. Фан ССР 1944 №2-3 С. 29. Вактурская Н.Н. Воробьева М.Г. Хроника работ Хорезмской экспедиции. ТХАЭЭ Т-1. –М.: “Наука”, 1952, С. 619-622.

¹⁷⁸ Баратов С., Матрасулов Ш. Археологические работы в южном Хорезме.//Археологические исследования в Узбекистане. 2003 г. Самарканд, 2004.

Mudofaa devor yaqinidan 20 m xandak o'tgan. Qal'a yagona darvozaga ega. Yodgorlik mil. avv. IV asr bilan belgilangan hamda manbalar olingan.

Mangirqal'a – Yodgorlik qadimda to'rt tomoni devor bilan o'rab olinib, yarim aylanali burjlari to'g'risida manbalar olingan¹⁷⁹.

Jigarband - Darg'onota shaharidan 40 km shimoli-g'arbiy tomonda joylashgan, uning tarxi to'rt burchak shaklida qurilgan (80-90 m). Yodgorlik devor bilan o'rab olinib, alohida arkka ega bo'lgan. Yodgorlik to'g'risida dastlabki ma'lumotlar X asrga mansub tarixiy adabiyotlarda uchraydi. Shahar xalqaro savdo yo'lida joylashganligi sababli madaniy xayot uzluksiz davom etgan. Shahar mudofaa devori, burj va ark devorlari ta'mirlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra miloddan avvalgi IV-milodiy IX asrlarga oid manbalar olingan¹⁸⁰.

Sadvar – Yodgorlikning rejalashtirilishi to'g'ri yo'nalishga ega, maydoni 20 ga. Qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan yodgorlik arkning janubiy burchagida qazish ishlari olib borilib, arkning mudofaa devori o'rganildi. Uning qalinligi 9,5 m, balandligi 2,2 m. Paxsadevor pasttekislikka qurilgan, balandligi 1,5 m, undan keyin g'ishtdan devor qurilgan (40x40x10 sm). Tashqi devor shinaklarga ega bo'lib, nayza o'q uchli shaklda bo'lganligi to'g'risida manbalar olingan.

Kaparas - Amudaryoning so'l sohilida, Elharas yaqinida Tuyamo'yinning janubi-sharqiy tomonida joylashgan. Rejalashtirilishi to'g'ri burchak shaklida (128-110 m). Qadimdan devor bilan o'rab olingan bo'lib, yo'lakka ega, umumiy kengligi 2,5 m. Mudofaa devori bo'ylab yarim aylanali burjlar joylashgan. Shimoliy mudofaa devor o'rtasida darvoza joylashgan, o'z navbatida, murakkab inshoot bilan mustahkamlangan. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari yodgorlikda arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan, natijada qal'ada ikki qurilish davri mavjudligi aniqlangan. 1-qurilish davri mil. avv. IV-II

¹⁷⁹ Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН в 1950 г. // СА. № XVIII. 1953. С. 314.

¹⁸⁰ Вишневская О. Раскопки Джигербанд. АО. – 1975. –М.: “Наука”, 1976, С. 544.

asrlarga oid boʻlib, xomgʻishtdan devor qilingan, milodiy I-II asrlarda qaytadan tiklanish ishlari olib borilgan. Kaparasning dastlabki devori paxsadan qurilgan, balandligi 0,26-1,8 m. Bu davrda mudofaa devori oʻrtasida yoʻlak boʻlib, uning kengligi 1,75 m. Kaparas burj yarim aylana shaklda, yopiq usulda boʻlib, yoʻlak orqali aloqa boʻlgan. Burj kengligi 8 m, yon tomoni chiqish joyi 6,5 m, devor qalinligi 2,1-2,6 m. Devor burchagidagi burj kengligi 8 m, chiqishi 11 m. Yon tomonidagi burj qalinligi 4 m. Burjning ichki xonasi hajmi 3x3 m. Burjlar oʻrtasidagi masofa turlicha. Gʻarbiy tomondagi devorlardagi burjlar oʻrtasidagi masofa 24,5-27 m. Sharqiy tomoni esa 23-28 m, janubida 19 - 22 m. Darvoza oldi murakkab inshooti burjlar bilan kuchaytirilgan, uning hajmi 40-15 m. Murakkab inshootdan 9 m uzoqlikda qoʻshimcha devor oʻrganilgan¹⁸¹.

Qoʻrgʻoncha (Qublondiqalʼa). Taxtak oʻpirdan 18 km uzoqlikda joylashib, uning tarxi toʻgʻri burchak shaklda 400x380 m. Qadimda ikki qatorli devor bilan oʻrab olinib, tashqi devor boʻylab yon tomonga 3-3,5 m oʻsib chiqqan burj qoldiqlari saqlanib qolgan.

Koʻnarliqalʼa. Charmanyop sugʻorilish tizimida joylashgan boʻlib, uning tarxi kvadrat shaklda (50x50). Yodgorlik mudofaa devori bilan oʻrab olingan boʻlib, uning qoldiqlari saqlanib qolgan¹⁸².

Shunday kilib, yukorida qayd qilingan muloxazalardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining yarim asrdan ziyod tarixiy yillarda ziroatkor aholining tarixiy davr va uning turli boskichlarida turar-joylarni keng suratda qurish ishlari olib borganliklarini arxeologik izlanishlar natijalariga koʻra, koʻpsonli xarbiy mazmunga egaligi isbotlaydigan materiallar olingan.

¹⁸¹ Воробьева М.Г. Капарас//Древности южного Хорезма. –М.: “Наука”, 1991.

¹⁸² Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948, С. 101.

3.2. Yozma manbalar va tarixiy adabiyotlarda antik davr davlatchiligining yoritilishi.

Mazkur paragrafni yoritishda tarixiy nashrlardagi tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda yozma manbalardagi ma'lumotlar jalb qilinishi muhim ahamiyatga molik. Chunki yozma manbalar mazmunini qamrab olgan ma'lumotlarni tarixiy adabiyotlar mazmuni bilan umumlashtirishgan xolda yoritish kutilgan natijani beradi. Ma'lumki O'rta Osiyo tarixchiligining ilk ma'lumotlari Avesto kitobida o'rin olganligini qayd qilish lozim. Avesto kitobini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlarga e'tibor bergan Gersfeld, Markvart, B.To'raev, E.Bertelvs, V. Struve, K. Trever, M. Boys, I. Dyakonov, M. Dyakonov, R.Fray, S.P. Tolstov kabi ko'plab olimlar Avesto kitobidagi tarixiy-madaniy viloyatlar va ular bilan bog'liq davlatchilik masalalariga qaratganlar. Tadqiqotchi A.S Sagdullayev fikricha "Avesto" dagi eng qadimgi davlatlar O'rta Osiyo va O'rta Sharq, Eronning shimoli-sharqiy hududlari bilan bog'langan¹⁸³. Ilk yozma manbada tog'lar, to'liqlanib faoliyat olib borayotgan daryolar Mouru, Xvarizim tomon oqadi degan ma'lumotlardan Amudaryo, Sirdaryo to'g'risida gap ketmonda deb qayd qilish mumkin bo'ladi.

Avestoda jamiyat boshqaruv tizimi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan, ya'ni oila va uning a'zolari, urug', hududiy qo'shnichilik jamoasi, qavm, qabila va ularning birlashmasi to'g'risida ma'lumotlar qayd qilinadi. Shu bilan birga boshqaruv tizimida oila boshlig'i, urug' sardori, oqsoqollar kengashi, xalq yig'ini kabi boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan. Tadqiqotchilar o'z nashrlarida qadimgi dunyo tarixini yoritishga keng e'tibor berganlar.

Tadqiqotchi I.M Dyakonov xulosasiga ko'ra, oriylar joylashgan hudud Oriylarning sayxon yerlari Oriylar mamlakati yoki "Avesto xalqi" ma'nolariga ega bo'lgan. Shu bilan birga, tadqiqotchi Aryoshayan, Arenam Vaysha – bu Avestoda o'z aksini topgan davlat uyushmasi bo'lgan. Ushbu davlat uyushmasi faqat

¹⁸³ Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Тошкент, 1996, Б. 19-20.

Qizilqum bepayon hududni va boshqa viloyatlari qo'shib olgan¹⁸⁴. Tadqiqotchi xulosasini qo'llash mumkin. Chunki tadqiqotchi Avestodagi viloyatlarning aniq chegarasini bermaydi. Ta'kidlash kerak bo'ladiki, Avestoda tarixiy-madaniy viloyatlarning hududiy chegaralari hozirgi hududiy ma'muriy chegaralarga to'g'ri kelmaydi. Ilk yozma manbalarda xarbiy yo'l boshchilar, askar-jangchilar, harbiy harakatlar, podsholar-kayoniylar sulolalari (Bunga Abu Rayxon Beruniy Xorazm tarixida kayoniylar sulolasiga etiborni qaratgani ma'lum) davlatchilik va siyosiy boshqarilish tizimi xaqida ma'lumotlar qayd qilinadi.

Tadqiqotchilar V.I Abayev, S.P. Vinogradovlarning tarjima qilgan Avestoning Yashtida u mamlaktning jasur sardorlari ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar qiladi. Avesto tadqiqotchilar tomonidan Evropada lotin tiliga tarjima qilinganligi bois, XIX asrdan boshlab yozma mazmunda mavjud bo'lgan siyosiy tarixiy jarayonni o'rganishda yozma manba ma'lumotlarni o'z nashrlarida aks ettirishni boshlaganlar. Masalan: R. Fray, V.A. Rivshits, I.V. Pyankov va birqator tadqiqotchilar va birqator tadqiqotchilar hukumdorlarni qayd qiladilar. Chunonchi: Xaushyanxa (Shohnomada Xushang), Yima Xshayta (Jamshid), Syovarshan (Siyovush hozirga kelib xukmronlikni o'rnatgan va uning vakillari vohani boshqargan), Kavi Usam (Kay-kovus), Kavi-Xausrav (Kay-Xisrav), Kavi-Kavat (Kay-Qubot), Kavi Arshan, kavi Vishtasp (Gushtasp)¹⁸⁵. Ta'kidlash lozim bo'ladiki, sho'ro davrida tadqiqotchilar bilan umumlashtirgan xolda qadimgi dunyo siyosiy manzarasini yoritishga harakat qilganlar va albatta ular uddasidan chiqqanlar. Bu masala bo'yicha ilk bor S.P. Tolstov, I.M. Dyakonov, V. Masson tadqiqotlarni olib borganlar va ma'lum darajada zafarlarga erishganlar ham. Tadqiqotchilar ilk temir davri tarixini yoritishda mazkur davrga mansub bo'lgan aholi turar-joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolardan unumli foydalanganlar. Mustaqillik yillarida vatanimizda ijtimoiy fan tadqiqotchilari Avesto kitobining 2700 yilligi munosabati bilan xalqaro miqyosda o'tkazilishi arafasida va undan keyingi yillarda ko'plab maqola, risola va

¹⁸⁴ Дьяконов И.М. Восточный Иран до Кира История иранского государства и культуры. –М.: “Наука”, 1971, С. 131-137.

¹⁸⁵ Фрай Р. Наследие Ирана. –М.: “Наука”, 1972, С. 62-63.

dissertatsiyalar hamda monografiyalar ilmiy jamiyatchilikka taqdim qilindi. Bu borada xalq ijodi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar T. Jo'rayev, M. Jo'rayevlar Avesto ma'lumotlarini xalq ijodi bilan bog'lab, fikr-muloxazalarini bayon qilsa¹⁸⁶, adabiyotshunos olim X. Abdullaev Avesto ma'lumotlarini voxa aholisining ijodi bilan bog'lash bilan ajdodlarimiz tomonidan olib borilgan ijod namunalari hamda ma'lumotlarni qayd qilgan¹⁸⁷. Ta'kidlash kerak-ki 1991-2001 yillar davrida Avesto kitobining turli boblari o'zbek tiliga tarjima qilindi va shu manba ma'lumotlariga tayangan xolda maqolalar, risola va monografiyalar tadqiqotchilar tomonidan tayyorlandi va nashrlar chop qilindi. Markur nashrlardagi ma'lumotlar Avesto mazmunini o'rganishda xizmat qiladi.

XX asrning 30-40 yillarda S.P Tolstov rahbarligidagi Xorazm va M.E Masson rahbarligidagi Termiz arxeologiya kompleks ekspeditsiyalari Xorazm voxasi va eski Termizda qazishma ishlarini olib borib, antik davrga oid manbalarni olishga erishgan. V.A Shishkin g'arbiy Buxoroda xususan Varaxsha shahrida arxeologik izlanishlarni olib borib, so'nggi antik davrga mansub moddiy ashyolarni olishga erishgan. O'rta osiyo boshqa tarixiy-madaniy viloyatlarida antik davrga mansub yodgorliklarida qazishma ishlari olib borilgan emas. SHuning uchun ham o'sha hududlarda aholining bunyodkorlik faoliyatini yoritishning imkoniyati mavjud emasligini alohida ta'kidlash joiz. Shu sababdan Xorazm voxasida qal'alar hamda eski Termizni Avesto manbasidagi ma'lumotlar bilan bog'lash mumkin.

Baqtriya tarixi tadqiqotchisi A.S Sagdullayev Avestoda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni hududlarga joylashtirish ishini olib borgan, ya'ni Baxdi-Surxon voxasi, janubiy Tojikiston, shimoliy Afg'oniston. Gava sugda-Zarafshon vodiysi, Xvarizam-Xorazm voxasi mouru-Murg'ob daryosi xavzasi deb ularning hududini aniqlashtirgan¹⁸⁸. Tadqiqotchilarning qadimgi yozma yodgorliklar maqolasida Avesto, Ahamon va Yunon-Rim tarixchilari asarlariga e'tibor qaratganlar¹⁸⁹. E.V

¹⁸⁶ Мирзаев Т, Жураев М. "Авесто" мифологияси ва ўзбек халқ оғзаки ижоди // Ўзбекистон тарихи 2001, №3, Б. 30-37.

¹⁸⁷ Абдуллаев Х "Авесто" ва Хоразм вохаси фольклори // Ўзбекистон тарихи 2001, №3, Б. 38-42.

¹⁸⁸ Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. –Т.: "Ўқитувчи", 1996.

¹⁸⁹ Қаяюмов А, Исҳоқов М, Отахўжаев А, Содиқов Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т.: "Ёзувчи", 2000.

Rtveladze, A.X. Saidov, E.V Abdullayevlar esa Avesto mazmunidagi tarixiy ma'lumotlardan kelib chiqib, uni qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi bilan bog'lab, shu asosda davlatchilik va huquq masalalarini qarab chiqqanlar¹⁹⁰. O'rta Osiyoning boshqa tarixiy-geografik mintaqalarda Avesto mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlarni aholi markazlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga bag'ishlangan nashrlardagi ma'lumotlarni olish internetdan foydalanishga to'g'ri keldi.

Avesto kitobida O'rta Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi, ushbu viloyatlar davlatlar atamasida antik davr tarixchi va geograflari nashrlarida o'rin olgan. Avesto kitobida tarixiy-madaniy viloyatlarning aniq geografik hududiy chegarasi ko'rsatilmaydi, shaharlar to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Shunday bo'lsa ham, Baxdi, Mouri, gava Suguda, Xvarizan kabi tarixiy-geografik atamaga ega bo'lish hamda o'sha davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-etnik hayotini ma'lum ma'noda tasavvur qilish imkonini beradi albatta. O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar Ahamoniylar podsholari tomonidan yo'lga qo'yilgan mixxatlarida ham qayd qilinadi. Miloddan avvalgi IV asrning so'nggi choragidan boshlab, ya'ni Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga harbiy yurishi oqibatida tarixiy-madaniy viloyatlar to'g'risida tarixiy ma'lumotlar yanada ko'payadi. Negaki Aleksandrning harbiy yurishlarida tarixchi sifatida nom chiqargan Ptokomey, Aristovul, Kallisden va boshqalar o'z estaliklarini yozib qoldirganlar. Afsuski, ularning ma'lumotlaridan keyingi davr tarixchi va geograflari foydalanib o'zlarining asarlarini yaratganlar. Shunday tarixchilardan biri Ktesiy miloddan avvalgi IV asrning boshida Erondan o'z yurtiga qaytib kelgandan keyin, podsho xujjatlari va o'zi ko'rgan-kechinmalariga asoslanib "Persika" asarini yozgan. Bunda aytgan davrda Baqtriya davlati, uning qurolli kuchlari, poytaxti va

¹⁹⁰ Ртвеладзе Э.В, Саидов А.Х, Абдуллаев Е.В. Кадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. –Т.: “Адолат”, 2001.

istehkomli shaharlari to'g'risida ma'lumot berib, hudud tarixshunosligini davom ettirgan¹⁹¹.

Antik davr tarixchilardan biri Beross "Vavilaniya" asarlarini yozib, unda Baqtriya aholisi to'grisida ma'lumot beradi¹⁹². Aleksandrning birinchi tarixchisi Kallisden (miloddan avvalgi IV asr) Aleksandr bilan birga harbiy yurishida qatnashadi. Baqtriya va Sug'dga yurishi to'g'risida ma'lumotlar beradi¹⁹³. Shu bilan birga, antik davr tarixchi va geograflari nafaqat tarixiy-madaniy viloyatlar, bilan ularda kechgan etnik jarayonlar, hududiy chegaralar, aholining aralash holda joylashishini hisobga olgan emaslar. Bu masalaga etiborni qaratgan A.Sagdullayev aholining hududiy joylashuvi va chegaralarining o'ziga xos xususiyatlarini aniq ko'rsatib bormaganlar degan fikri haqiqat¹⁹⁴. Antik dunyo tarixchilari nashrlaridagi tarixiy ma'lumotlarga e'tibor berilsa, ulardan faqat Baqtriya va Sug'd davlati tarixiga oid ma'lumotlar keng tarzda boriladi. Masalan Sug'd hududi va davlati chegaralari to'g'risida antik davr yozma manbalarda So'g'dning janubiy chegarasini Amudaryo, ya'ni "Oks" deb qayd qiladilar. Antik davr geografiya olimi Strabon Oks daryosi So'g'diyonani Baqtriyadan ajratib turadi deb noto'g'ri tasavvurini qayd qilgan¹⁹⁵. Bu yerda qaysi baqtriyaning hududi, chunki Baqtriya hududi ikki qismdan iborat. 1. Janubiy Baqtriya. 2. Shimoliy Baqtriya. Agar Strabonning Oks baqtriyadan Sug'diyonani ajratib qo'yganligi to'g'risidagi fikrini janubiy Baqtriyaga qabul qilsak, uni fikri to'g'ri, shimoliy Baqtriya va janubiy baqtriyaning Oks ajratib turgan. Baqtriya va Sug'diyonani osmono'par Boysun tog'lari ajratib turadi. Arrian ham o'z asarida Baqtriya va so'g'd hududini chalkashtiradi. Ya'ni: uning yozishicha Oks daryosidan keyin darhol Sug'diyona yerlari boshlanadi¹⁹⁶. Rim tarixchisi Kursiy ruf Baqtriya Satrapi Bess Baqtriyadan

¹⁹¹ Пьянков И.В. Ктесий как историк //Античная древность и средние века. –Свердловск, 1975, С. 46-54. Ўша муаллиф. "История персия" Ктесия и среднеазиатские сатрапии ахеменидов в конце V в до н э ВДИ, Т 2, 1965.

¹⁹² Дьяконов И.Н. История Мидии ат древнейших времен до конца IV в.до.н.э. –М-Л, 1956.

¹⁹³ Шофман А.С. Каллисфен / ВИ №6, 1974, С. 46-54.

¹⁹⁴ Сагдуллаев А.С. Культури юга Средней Азии VII-IV вв до н э (Бактрия, Маргиана, Согд) Из-во ТашГу. –Т., 1987, С. 15-16.

¹⁹⁵ Страбон. География. XI. 2.

¹⁹⁶ Арриан. IV. 5-7.

qochib uning o'zi devor orqasiga yashirilgan kabi Oks ortiga sug'diylar xuzuriga borib yashirinishga qaror qildi deb yozadi¹⁹⁷.

Bizning xulosamizga ko'ra, Oks daryosi Sug'diylarni Baqtriyaliklardan hech qachon ajratmagan. Shuningdek Bess Baqtriya satrapi vazifasida edi, u Aleksandrga og'ir tushishidan qo'rqib shimoliy Baqtriyaga xajmi kichik mudofaa tizimi mustahkam qishloq tilidagi qal'aga kelib yashiringan. Mazkur qal'a Surxon voxasidagi Talashkan tepa bo'lgan degan taxminlar mavjud. Strabon asarining yana bir joyida So'g'diyonani Baqtriyaning yuqorisida sharqiy yo'nalishi tomonda, Oks va yaksart oralig'ida joylashtiriladi. Lekin qaysi hududlar ekani noma'lum. Bunga Surxon voxasi, Sulton Uvays tog'lari, o'ng qirg'oq Xorazm vohasini ham jalb qilish mumkin. Kvint Kursiy rufning Tanais Baqtriyaliklarni skiflardan ajratib turadi¹⁹⁸ degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Baqtriyaliklar ancha urshqoq bo'lgan skiflarga yaqin joyda yashaydilar deb yozgan fikri skiflar emas, Saklar bo'lishi mumkin¹⁹⁹. Antik davr tarixchilari va geograflari asarlariga ma'lumotlar ittifoq tarixchilari tomonidan yanada rivojlantiriladi. Bu borada antik dunyo tarixi tadqiqotchisi I.V. Pyankov tadqiqotlari muxim o'rin egallaydi. I.V Pyankov yozma manbalari ilmiy taxlil qilish asosida So'g'diyona va Baqtriya davlatchiligi ularning chegaralariga aniqlik kiritish uchun xarakatlar ijodkori sifatida tarixshunoslik fikridan o'rin oldi.

I.V Pyankov Sug'd va Baqtriya mintaqalari o'rtasida Oks –chegara degan masalaga e'tibor berib, quyidagi ikki xulosani qayd qilgan: ya'ni, “daryo madaniy chegara” va “daryo ma'muriy yoki siyosiy chegara”. U P. Bernadning amudaryo ma'muriy-siyosiy chegara vazifasini o'tagan, lekin u hech qachon madaniy chegara bo'lgan emas fikrini qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotchi A.Sagdullayev I.V Pyankov xulosasiga o'z fikrini bildirib, Amudaryo umuman chegara vazifasini bajarmagan deydi²⁰⁰. Tadqiqotchi fikrini qo'llab quvvatlash mumkin. Darxaqiqat Amudaryo faqat Baqtriyaning ikki qismli hududga ajratgan xolos. Antik davrda ikki

¹⁹⁷ Курций руф. VII. IV. 5.

¹⁹⁸ Квинт курций руф VII. VII. 2.

¹⁹⁹ Квинт курций руф VII. VI. 3.

²⁰⁰ Сагдуллаев А. Оследние области. С. 22.

hudud qiyosiy jixatidan yagona hisoblangan. O'zbekistonning antik davri tarixini izoxlagan Qang' va Dovon (parkana) davlatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy tarixchisi Si Ma Syan o'z xotiralarida Qang'uylarning joylashishi, harbiy kuchlari, urf-odatlar va ularga qo'shni xalqlar to'g'risida keng ma'lumot beradi.

Qang'uy davlati Toshkent voxasi va janubiy Qozog'iston hududlarida faoliyat olib borgan mazkur davlat tarixshunosligini Ya.G' G'ulomov, Yu.F. Buryakov, K. Shoniyo'zov va M.I. Filonovichlar rivojlantirdi, uni yangi arxeologik manbalar bilan boyitdi. Si Ma Syanning "tarixiy xotiralar" degan kitobida Davon podsholigi tarixiga oid ma'lumotlar keng miqtorda berilgan²⁰¹. Endi markaz va maxalliy tarixchi olimlarning antik davr tarixshunosligini rivojlantirish sohasida e'lon qilgan nashrlarning mazmunini xosil qilgan ma'lumotlarning tarixshunoslik fani rivojlantirishdagi tarixiy o'rnini qarab chiqamiz. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, antik davr davlatlarining tarixshunosligini S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining XX asrning 30-yillar o'rtalaridan O'zbekistonning antik davr tarixshunosligini boshlab berdi.

Kezi kelganda ta'kidlash kerakki, A.I. Terenojkin XX asrning 30-yillari o'rtalari boshida (S.P. Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya xorazm voxasiga kelmasdan avval). Beruniy va To'rtko'l tomonlarda arxeologik qidiruv ishlarini olib borishi natijasida antik davrga mansub bir nechta qal'alarini ro'yxatga oldi, ularni arxeologik xaritaga joylashtirdi. Ular to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus maqolada e'lon qildiki, bu esa xorazm davlatining antik davr tarixshunosligini boshlab berdi. Shu bilan birga tarixshunoslik fanining vujudga kelishi va uning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi²⁰². Arxeologik xaritaga (Oqchadaryo xavzasi arxeologik yodgorliklar xaritasi hosil bo'ldi). Burliqal'a, Ayo'zqal'a-1, Qirqqizqal'a, Qizilqal'a, Jildikqal'a, Yonboshqal'a, Bozorqal'a, Burgutqal'a, Eresqal'a, Dumanqal'a, Katta Guldursun, Qumbosganqal'a, Odamliqal'a to'g'risida ma'lumotlar berdi va ularni joylashtirgan.

²⁰¹ История народов Узбекистана Т-1. –Т., 1950, С. 110.

²⁰² Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме // СА, № VI 1940, с 168-169 рис 1.

1937-1941 yillar boshlarida S.P Tolstov yuqorida qayd qilingan o'ng soxilda hamda Sariqamishbo'yi xavzasida keng suratda arxeologik qidiruv ishlarini olib borishi natijasida antik davrga oid aholi turar-joylarni ro'yxatga oldi, ularning rejasi, mudofaa inshootlari to'g'risida ma'lumotlarni e'lon qildi. Mazkur tarixiy ma'lumotlar tadqiqotchining 3 ta monografiyasida o'z manosini topib, tarixshunoslik fanini yanada yangi ma'lumotlar va fikr-muloxazalari bilan rivojlantirdi. Uchta monografiyada muallif tomonidan quyidagi fikr-muloxazalar qayd qilingan edi. Tadqiqotchi asosiy e'tiborini Ko'zaliqir yodgorligiga qaratgan edi. Olimning fikricha Ko'zaliqir chorva mollari uchun mo'ljallanib qurilgan. Tadqiqotchilarning aksariyati olim fikriga qo'shilgan emas. XX asrning 70- yillaridan boshlab Ko'zaliqirda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari yodgorlik tarixiga birqator yangiliklarni kiritdi. S.P Tolstovning ikki ilk monografiyasida qayd qilingan ma'lumotlar o'sha yillar uchun ahamiyatga molik bo'lgan albatta²⁰³. Ikkinchi asari ilmiy-ommabop tarzda tayyorlanib nashr qilingan. Mazkur kitobda Drevniy Xorezm kitobidagi ma'lumotlar takrorlanadi²⁰⁴.

XX asrning 60-yillar boshida tadqiqotchining uchinchi asari nashr qilindi. Monografiyada Tuproqqal'a shahrida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari keng yoritilgan. Yodgorlik umumiy rejasi, maydoni xajmi, saroy qoldig'i va uning uy-xonalari, Xorazm yozuvi, muzika, tasviriy va amaliy san'at, mudofaa tizimi, moddiy ashyolar nomi bilan zallar (Bug'u zali, uzum zali va h.k) qoldiqlari o'rganilgan. Loydan yasalgan xaykalchalar, arxiv xujjatlari to'g'risida qayd qilinib, yangi materiallar va fikr-muloxazalar bilan tarixshunoslik fani yanada boyitiladi²⁰⁵. Shu bilan birga S.P Tolstov rahbarligida Xorazm ekspeditsiyasi olib borgan arxeologik izlanishlar natijalariga alohida nashrlar elon qilindi. Bunda arxeologik izlanishlar natijalari hamda ma'lumotlar va ularga asoslanib xulosalar e'lon qilingan.²⁰⁶ Shu bilan birga XVI tom 10 dan ziyod to'plamlar nashr qilindi. Shuningdek A.V Vinogradov Xorazmning neolit davri tarixiga oid

²⁰³ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948.

²⁰⁴ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М-Л: “Наука”, 1948.

²⁰⁵ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: “Наука”, 1962.

²⁰⁶ Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1949-1953 гг // Тр ХАЭЭ. – М.: “Наука”, 1952, 1958.

monografiyasini e'lon qildi unda Oqchadaryo xavzasidagi ovchilarning turar-joylari, tuzilishi, ma'lumotlari to'g'risida fikr-muloxazalarini bildirib, bu madaniy antik davr jamiyatning rivojlanishiga asos bo'ldi degan fikrlari mavjud. B. Andrianov xorazmning sug'orilish tarixini, xususan antik davrda magistral sug'orish inshootlari to'g'risida ma'lumotlar berdi²⁰⁷. Xorazmning antik davr sug'orilish tarixi G' G'ulomov monografiyasida keng yoritilgan²⁰⁸. Xorazm voxasi va unga hududiy jixatidan ulanib ketgan Sariqamishbo'yi atroflarida aholi tomonidan birqator turar-joylar ko'rilgan. Chunonchi, Tunidaryo etagida Qang'qaqal'a-2, Butentou-2, Oqchagelin, Shoxsanam, Davkagan (Vazir), Yarbekir, Manqir, Dovdonqal'a, Tuzqir, Unauvaz, Qalaliqir-2, Oqchadaryo xavzasida Yonboshqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayoqzal'a 1,3 Jildikqal'a, Tuproqqal'a yodgorliklari Xorazmning antik davr shaharlari bo'lgan. Vatanimiz milliy mustaqilligi yillarida Xorazm ma'mun akademiyasi Urganch Davlat Universiteti hamkorligidagi arxeologik guruh Olmaotishgan-2, Katqal'a (Shovot), Xumbuztepa, Hazorasp, Sandiqlitepa yodgorliklarida olib borilgan qazishma ishlari natijasida antik davr davlatchiligi tarixiga oid manbalar olindi va shu asosda tarixshunoslik fani yanada rivojlantirildi²⁰⁹. Tadqiqotchi N. Egamberdiyeva Xorazmning antik davri tarixini arxeologik va arxeografik tadqiqotlarni olib borib, tarix fanini yangi yo'nalishlar bilan yanada rivojlantiradi²¹⁰. A.Asqarov Xorazm qadimgi dunyosi tarixiga oid fikr-muloxazalarini maxsus maqolada yoritishga harakat qilgan. Maqolada Xorazm voxasida "Katta Xorazm" masalasida, uning tarix saxifasida mavjud emasligi, unga manbalar yo'qligi, "Qadimgi Xorazm" davlati o'sha siyosiy birlashmaga aloqasi yo'qligi qayd qilingan bo'lsa, oliy o'quv yurtlari tarix fakulteti talabalariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmasida Xorazmiylarning Xilmend vodiysidan ko'chib kelishi masalasi tarixshunoslik

²⁰⁷ Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. –М.: "Наука", 1969, С. 106-109.

²⁰⁸ Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Т.: "Фан", 1959.

²⁰⁹ Балелов С.П. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепе // Ону, Т, 9-10, 1999. С. 85-90. Баратов С, Матрасулов Ш, Мадаминов М. Археологические работы в южном Хорезме / Археологические исследования в Узбекистане 2002. Т., 2003 Вып 3, с 38-45. Ягодин В.Н. Генезис и ранние этапы развития древнехорезмийской государственности // Ўрта Осиё археологияси: Халқаро илмий конференция тезислари. Т., 2002, с. 128-129.

²¹⁰ Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма. Автореф. дисс. истор. Нукус, ККО.Ан Руз 2001.

faniga yangi fikr sifatida ilmiy jamoatchilik etiboriga xavola qildi²¹¹. Lekin mazkur fikr-muloxaza tadqiqotchilar tomonidan e'tirozlar bo'lgan masalalar e'lon qilindi. Tadqiqotchilar A.Sagdullayev, U. Abdullayevlar Xorazm voxasida antik davlatchiligi asoslari bo'lgan bronza va ilk temir davri jamiyatining rivojlanishi, etnik jarayon, boshqaruv tizimi hamda bu masalalari S.P Tolstov fikr-muloxazalarini izoxlaganlar²¹². Tadqiqotchi O'. Abdullaev monografiyasida O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi masalasini yoritish jarayonida Xorazm voxasi jamiyatini qamrab olgan ma'lumotlar o'rin olgan, bu esa yuqorida qayd qilingan tarixiy davr tarixshunosligini yangi bosqichga ko'targanligini takidlash lozim²¹³. M.Mambetullaev, G'.K. Xo'janiyozov, Q.Sobirov, X.Matyaqubov kabi tadqiqotchilar Xorazmning antik davr tarixshunosligi rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar. Masalan tadqiqotchi M.Mambetullaev doktorlik dissertatsiyasida antik davrda Xorazm voxasining shaharcha va shaharlari, qurol-aslaxa, harbiy-san'at, mudofaa inshootlari tarixi to'g'risida tarixiy ma'lumotlari ilmiy jamoatchilikka elon qildi²¹⁴. G'.K. Xo'janiyozov monografiyasida Xorazmning eng qadimgi va antik dunyo shaharlari to'g'risida ma'lumot berildi, unda faqat Oqchadaryo va Sariqamishbo'yi xavzalaridagi aholi markazlari to'g'risida fikr yuritiladi. Shu bilan voxaning antik davr tarixshunosligi Aqshaxanqal'a, Toshxirmon tarixiy ma'lumotlari jalb qilinib yangi ma'lumotlar asosida yanada boyitiladi²¹⁵.

Respublikamiz mustaqillikka erishishi tufayli O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishga juda katta e'tibor qaratila boshladi. Bugungi kunda ham aynan harakatlar strategiyasini to'rtinchi yo'nalishi bo'yicha ilm-fan sohasida katta ishlar

²¹¹ Аскарлов А. Қадимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнографияси янгича қарашлар ва ёндашувлар. –Т., 2004, Б. 76-84.

Ўша муаллиф. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т. Университет. 2007. Б. 107-117.

²¹² Сагдуллаев А.С, Абдуллаев У. История Хорезма в свете исследований С.П. Толстова / эпоха поздней бронзы и раннегелеза // ўзбекистон тарихи №4, 2004. Б. 4-10.

²¹³ Абдуллаев У.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. –Т.: “Академия” 2009, Б. 3-125.

²¹⁴ Мамбетуллаев М. История и культура южного Хоразма античной эпохи / города и поселения в IV в до н э –IV в.н.э. Автореф.дис. докт. наук. –Т., 1994, С. 3-35.

²¹⁵ Ходжаниёзов Г.К. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. –Т.: “Ўзбекистон”, 2007, Б. 3-21.

amalgа oshirilmoqda ²¹⁶ . Tadqiqotchi Q.Sobirov monografiyasida xorazm voxasining geografik joylashishi, neolit, eneolit, bronza, ilk temir va antik davrda kechgan tarixiy jarayon, asosiy etibor antik dunyo shaharcha va shaharlar tarixi, uni Oʻrta Osiyo boʻyicha bogʻlanish masalasi oʻrin olib, tarixshunoslik geografiyasini yanada kengaytirgan²¹⁷ . Xalil Matyaqubov tadqiqotlarida xorazm voxasi antik dunyosi jamiyatining rivojlanishi, madaniy-xoʻjalik markazlar va mikrovoxalar toʻgʻrisidagi fikrlarini tarixshunoslik faniga olib kirdi ²¹⁸ . Shuningdek, mualliflar jamoasi ishtirokida tayyorlangan va nashr qilingan monografiyasida E.V Rtveladze, V.N Yagodin, A.S Baraxvatsevlar maqolasida miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid tarixiy maʼlumotlar oʻrin olgan ²¹⁹ . Tadqiqotchi X. Matyaqubov dissertatsiyasi hamda Xorazm voxasi bronza asri va temir davri tarixi monografiyasida Xorazm tarixshunosligi yanada rivojlantirildi. Tadqiqotchi Koʻzaliqir, Xumbuztepa, Hazorasp materiallari asosida tayyorlangan nashrlar mazmuniga fikr muloxazalarini bildirgan. Xorazmiylar tub aholi ekanligi “Katta Xorazm” siyosiy birlashmasi mavjud emasligi qayd qilingan.²²⁰

²¹⁶ Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М. Мирзияевнинг 2017-йил 7- февралдаги ПФ-4947 сонли фармони.

²¹⁷ Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. –Т.: “Фан”, 2009, Б. 3-105.

²¹⁸ Матякубов Х.Х. Ўзбек давлатчилигининг ilk bosqichlarida Қадимги Хоразм. Тарих фан дисс.автореф. – Т.: “ЎзМу”, 2011, Б. 3-36.

Ўша муаллиф. Қадимги Хоразмда урбанистик жараёнлар ва маданий-хўжалик микровохаларининг ташкил топиши ва ривожланиши // Ўзбекистон тарихи. Т. №1, 2011, Б. 3-14.

²¹⁹ Хорезм в истории государственности Узбекистана Ташкент, Узбекистан файласуфлари шахсий жамияти 2013. Э. Ртвеладзе государственно объединение «Большой Хорезм» -миф созданный учеными или историческая реальность. С. 30-44. Ягодин В.Н. Хорезм-сатрапия государства Ахеменидов С. 45-48. Барахцаев А.С. Отделение Хорезма от государства Ахеменидов С. 49-60.

²²⁰ Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва ilk темир даври тарихи. А.Навоий номидаги Миллий кутубхонаси нашриёти. –Тошкент, 2017, Б. 3-204.

XULOSA

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlarning mazmuni quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini berdi.

O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlarda ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining ilk tosh davrida turmush tarzini olib borgan ovchilar va uning avlodlari mazkur tarixiy davr va uning keyingi bosqichlarida yaratgan xo'jalik bilimlari oddiydan murakkab sari rivojlanib borganligi ma'lum. Ta'kidlash lozim bo'ladiki, xuddi shu temir davri oxiri va butun antik davr jamiyatlarini qamrab olgan tub o'zgarishlarining asosi ibtidoiy jamiyatni qamrab olgan iqtisodiy va madaniy asos bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki O'rta Osiyoning geografik joylashishi va shu asosda vujudga kelgan sharoit o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyatini, xo'jalik yo'nalishlarini belgilab bergan. Mazkur xususiyat ayniqsa Zarafshon voxasi janubi-g'arbida, Qizilqum, Qoraqum, ular oralig'ida joylashgan Xorazm voxasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Arxeologik izlanishlar natijalaridan ma'lumki, aholining doimiy o'troqlashishi O'rta Osiyoning janubi-sharqiy qismida xususan Kopetdog'-tog' oldi etaklari va murg'ob daryosi xavzasida sodir bo'lgan. Mazkur hududlarda ziroatkor aholi doimiy loy me'morchiligi bilimiga asoslanib turar-joylarini bino qilganlar, xo'jalikning barcha soxalarini rivojlantirganlar. Bunday rivojlanish eneolit, bronza davrlarida davom ettirilgan. Ziroatkor aholining hayoti va ijodi uyg'unligi natijasida paxsa va xom g'ishtli turar-joylar qad ko'tarilishi boshlangan. Shu bilan birga, urug' jamoalari, qabilalarga uyushgan aholi istiqomat qilib, uning atamalari Avesto kitobida ilk bor qayd qilinadi. Masalan urug'-vis, beshkin Viskati, Zantuma-qabila, pati-boshlig'i va x.k. shu bilan birga Avesto kitobida O'rta Osiyo tabiiy-iqtisodiy hududlar geografik va toponomika atamalari sifatida qayd qilinadiki, bu atamalar tadqiqotchilar asarlarida o'rin olganligi ma'lum. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusida mazmunini yoritgan fikr-muloxazalar O'rta Osiyo davlatchiligi manbashunosligi va tarixshunosligining yoritilishini quyidagi tarixiy davrlarga ajratildi.

1-tarixiy davr XX asrning 30 yillari -1941 yillar

2-tarixiy davr XX asrning 40 yillari o'rtalari-90 yillar

3- Mustaqillik yillari (1991 yildan - hozirgi davr).

Birinchi tarixiy davrda O'rta Osiyo tarixiy-geografik mintaqalaridan Xorazm vohasida ilk temir va antik davr tarixi o'rganildi va shu asosda mazkur mintaqa tarixshunoslik fani vujudga keldi. Asosan S.P Tolstov tadqiqotlari A.M Terenojkin maqolasi.

Shuningdek O'rta Osiyoning hududi tarixiy qismi bo'lgan Surxon va g'arbiy Zarafshon vohalarining eski Termiz va Varaxsha ashyolari asosida antik davri tarixshunosligi vujudga keldi. Shu bilan birga mazkur yodgorliklardan o'sha tarixiy davr tarixini yoritadigan manbalar olindi. Shu tariqa ushbu tarixiy davrda Xorazm, Zarafshon va Surxon hududlari manbashunosligi va tarixshunosligi fani sifatida tarix fani saxifalaridan o'rin olgan.

Ikkinchi tarixiy davr: Arxeologik tadqiqotlar nashrlariga ko'ra, Kopetdog' oldi etaklaridagi Ziroatkor aholisining birnecha guruh vakillari Zarafshon vodiysining yuqori-g'arbiy qismiga ko'chishi, miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Surxon voxasiga ko'chishi, ularning avlodlari markaziy va janubiy Sug'dga, keyingi tarixiy davrda Xorazm va Buxoro voxalariga ketishi natijasida maxobatli devorlarga ega bo'lgan shaharlar qurilishi amalga oshirilgan. Masalan: miloddan avvalgi IX-VII asrlarda Surxon voxasida Qiziltepa, Xaytabod, Jondavlat, Talashgan, Kuchuktepa, Bandixon shaharcha va shaharlari.

Janubiy Tojikistonda Kalai-Mir (shimoliy Baqtriya-Surxon voxasi tarkibida).

Janubiy Sug'dda: Yerqo'rg'on, Sangirtepa, Daratepa, Kesh-Shaxrisabz, Chiroqchitepa.

Markaziy Sug'dda Samarqand, Ko'ktepa Xorazm voxasi. Amudaryo o'rta qismi Odoytepa.

Mazkur aholi markazlarida arxeologik izlanishlar olib borilib, ular madaniy qatlamlardan arxaik davrida faoliyat olib borgan shahar-davlatlari manbashunosligi va tarixshunosligi fani vujudga keldi. Bunda tadqiqotchilar S.P Tolstov, M.M Dkonov, A.S Sagdullaev, V.M Masson, B.I Voynberg, G. Xo'janiyozov,

Q.Sobirov, M.Mambetullaev, E.V Rtveladze, Ya.G‘ G‘ulomov, V.A Shishkin, G.A Shishkina tadqiqotlari manbashunosligi va tarixshunosligi fani vujudga kelishi va rivojlanishida asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotchilar asarlarida antik Dunyo davlatchiligi manbashunosligi va tarixshunosligi fani rivojlanishiga asosiy manbalar geografiyasi kengaydi. O‘rta Osiyo antik dunyosida ziroatkor aholi ko‘psonli shaharlarini bino qilganlar. Baqtriya “ming shaharlar mamlakati” deb yozma manbalarda behudaga qayd qilingan emas. Surxon voxasida eski Termizdan tortib Denov va Boysun tog‘igacha bo‘lgan hududlarda ziroatkor aholi toonidan shaharcha va shaharlar tekisligida qad ko‘tarilgan. Antik davr tarixiga oid manbalar Dalvarzintepa, Zartepa, eski Termiz, Xayrabod, Xaytabod, Oysari tepalardan olingan va shu asosda tarixshunoslik fani yanada rivojlantiriladi. Mazkur manbalar Qashqadaryo viloyatlari Yerqo‘rg‘on, Kosontepa, Kesh, eski Termiz qal‘alarida olingan. Farg‘ona vodiysida antik davr manbashunosligi va tarixshunosligi fanining rivojlanishida Eylitan, Marhamat, eski Axsikent, Marg‘ilon, Quva, Andijon kabi aholi markazlaridan olingan arxeologik natijalar bo‘ldi.

Zarafshon vodiysining antik davrga mansub bo‘lgan Yerqo‘rg‘on, Qarshi, Kesh, Afrasiyob, Talibarzu, Buxoro, Remigan, Setapak, Varaxsha kabi yodgorliklaridan olingan moddiy ashyolar manbashunoslik va tarixshunosligining paydo bo‘lishiga olib keldi. Toshkent vodiysida antik davr tarixiga oid moddiy ashyolarni olishda Yu.F Buryakov, M.I Filanovich tadqiqotlari natijasida Shoshtepa, Kavardan, Turtko‘ltpa kabi yodgorliklar ma‘lum bo‘ldi va ulardan olingan ashyolar viloyat tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi fanini vujudga kelishiga olib keldi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida ham antik davr tarixshunosligi va manbashunosligi rivojlantiradigan ashyolar olingan. Zaamin, Jizzax Xavos yodgorliklari so‘nggi antik davrda ziroatkor aholi tomonidan qurilgan. O‘zbekistonga qo‘shni xudularda ham antik davr manbashunosligi va tarixshunosligi tarkib topgan.

Janubiy Turkmaniston hudularida Erkqal’a, (Mari), Yelkandepa, Durnali, Chilburdj. Yangi va eski Nisa Aleksandriya (Bayram Ali) yodgorliklari antik

davrda faoliyat olib borgan. Janubiy Qozog‘iston hududida so‘nggi antik davrda ziroatkor aholi tomonidan Taraz qal‘a bino qilingan.

XX asrning 90-yillari boshlarida sho‘ro imperiyasi inqirozga uchragandan keyin O‘rta Osiyo ittifoqdosh respublikalar milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin, alohida madaniy merosni o‘rganish, madaniy va ilmiy aloqalar almashish uzildi. Vatanimiz hududida esa qadimshunos olimlar tashabbus ko‘rsatib Rossiya, Avstraliya, Polsha, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Fransiya olimlari hamkorligidagi aholi turar-joylarida arxeologik izlanishlarni boshlab yubordilar. 1995-yildan V.N Yagodin rahbarligida Sidney Universiteti olimlari bilan hamkorlikda Oqshaxonqal‘ada qazishmalar olib borib, so‘nggi antik davr tarixiga oid manbalarni olib, manbashunoslik va tarixshunoslik fanini yangi ashyolar bilan boyitdilar. Samarqand arxeologiya instituti hamda Fransiya olimlari (P.Bernar) hamkorligida Afrasiyobda arxeologik izlanishlarni olib borib, miloddan avvalgi VII asr 50-yillariga oid manbalarni olishga erishdilar. Yaponiya va Xitoy olimlari Eski Termiz, Qoratepa va Fayoztepalarda arxeologik izlanishlar olib borishi natijasida yangi manbalarni olishga erishganlar. Vatanimizga qo‘shni bo‘lgan davlatlarda qadimshunos olimlarning aholi turar-joylarida olib borgan arxeologik izlanishlari natijalariga bag‘ishlangan tarixiy ma‘lumotlarni faqat internet yoki xalqaro ilmiy-seminarlar va ilmiy-nazariy koferensiyalar o‘tkazish yo‘li bilan olish mumkin xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Rahbariy adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016.
2. Мирзиёев Ш. М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, Барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
4. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 6-жилд.
5. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 7-жилд.

Asosiy adabiyotlar ro‘xati.

1. Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. -Т.: “Фан”, 1971.
2. Altheim F. Awestische Textgeschichte. - Halle (Saale), 1949.
3. Абдукамилов Р. Авестийские тексты о государственности и праве: вопросы генезиса и эволюции структуры // Ўзбекистон тарихи. – 2000.
4. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана –М.: “Наука”, 1977.
5. Абдуллаев Х. “Авесто” ва Хоразм воҳаси фольклори // Ўзбекистон тарихи 2001.
6. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. –М.: “Наука”, 1969.
7. Абдуллаев У.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. –Т.: “Академия”, 2009.
8. Баратов П, М.Маматкулов, А.Рафиқов. Ўрта Осиё табиий географияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 2002.
9. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. –Т.: “Фан”, 1982.

10. Букинч Д.Д. История первобытного орошаемого земледелия в Закаспийской области в связи с вопросы о происхождения земледелия и скотоводства “Хлопковое дело” №3-4, 1924.
11. Беляева Т.В. Нуртепа-город древней Уструшаны // Археологические работы в Таджикистане. Вып XXIII Душанбе, 1991.
12. Бижанов Е.Б, Ходжаниязов Г. Археологический комплекс Бутентоу // Археология Приаралья. –Нукус, 2003.
13. Балелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма (вторая половина I тыс.я до.н.э) Приаралье на перекрестке культур. Самарканд-Тошкент 2013.
14. Балахванцев А. Отделение Хорезма от государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2013.
15. Бозорова Н.М. Кадимий ва ўрта асрларда Шерободда урбанизация жараёнлари // Урбанизационные процессы в Узбекистане: История и современность. –Т., 2007.
16. Беттс А.Б., Ягодин Б.Х. Раскопки Ташкирмантепе. Археологические исследования в Узбекистане. 2001, Самарканд, 2002.
17. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма –М.: “Наука”, 1979.
18. Воробьева М.Г. Раскопки археологического поселения близ Дингильже // МХЭ, -М.: “Наука”, 1959.
19. Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзели-гыр // АО 1971. –М.: “Наука”, 1972.
20. Гуламов Я.Г, У. Исламов, А.Аскарлов. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелья в низовьях Зарафшана. –Т.: “Фан”, 1966.
21. Гудкова А.В. Токқалъа. –Т.: “Фан”, 1964.
22. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Издание второе. – Душанбе: “Ирфон”, 1989.

23. Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарынской области. –Т.: “Фан”, 1992.
24. Geiger W. Ostiranische Kultur in Altertum. - Erlangen, 1882; Markwart I Wehrot und Arang. — Leiden, 1938.
25. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Т.: “Фан”, 1959.
26. Дуке Х. Туябугизские поселения Бургулюкской культуры. –Т.: “Фан”, 1982.
27. Дурдиев Д. Археологические исследования на территории Ташаузской области // Каракумские древности, Вып-5, “Илим”, 1977.
28. Дьяконов И.М. Восточный Иран до Кира История иранского государства и культуры. –М.: “Наука”, 1971.
29. Explorations in Turkestan. Ed. By R Pampelly. Washington. 1908.
30. Заднепровский А.Ю. Древнеземледельческая культура Ферганы №118. –М.: “Наука”, 1962.
31. Исхақов М. Ҳақиқат энг олий неъмат. “Авесто”нинг Хўрмузд Яшт алқовидан парча // Фан ва турмуш. – 1993.
32. Исомиддинов М. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. –Т., 2002.
33. История народов Узбекистана Т-1, -Т. 1950.
34. Исаков А. Саразм. К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долина. –Душанбе: 1991.
35. Куфтин Б.А. Полевой отчет о работе XIV отряда ЮТАКЭ по изучению культуры первобытнообщинных оседлоземледельческих поселений эпохи меди и бронзы в 1952 г. / ТР ЮТАКЭ, Т. –Ашхабад, 1956.
36. Кирчо Л.Б. Культура ранней бронзы Южной Туркмении(Вопросы происхождения по материала керамических комплексов) Автореф. дисс. канд. ист. наук. –Л., 1980.
37. Колчин Б.А., Сайко Э.В. Особенности развития и организации производства // Становление производства в эпоху энеолита и бронзы – М.: “Наука”, 1977.

38. Қодирова Д. Зардуштийликнинг илк босқичлари ҳақида мулоҳазалар // “Авесто” китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи. –Т.: 2000.
39. Литвинский В.А. Намозгахтепе по данным раскопок в 1944-1950 гг. // СЭ, №4, -М.: “Наука”, 1952.
40. Массон М.Е. Южно-Туркменстанская археологическая комплексная экспедиция (ЮТАКЭ), 1947 г. / ТЮТАКЭ, Т. 1955.
41. Манилов И.С. К вопросу об освоении Низовье Мургаба древнеземледельческими племенами // Изв. Ан Турк ССР. Ону обш наук, №2.
42. Мамбетуллаев М. Хум с городиша Большая Айбўйиркала с древнейшей надписью в Средней Азии // Вестник Каракалпакского филиала Ан Руз. Нукус, 1979.
43. Матбабаев Б. Ранний город Ферганы и вопросы начального этапа государственности. // Археология, история и культура Средней Азии. ТД. МНК –Т. 2002.
44. Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза даври ва илк темир даври тарихи. –Т., 2017.
45. Мирзаев Т, Жураев М. “Авесто” мифологияси ва ўзбек халқ оғзаки ижоди // Ўзбекистон тарихи 2001.
46. Аскарлов А. Сапаллитепа. Т-Фан, 1973.
47. Морган Л. Древнее общество. –Л.: “Институт народов Севера”, 1934.
48. Пилипко В.Н. Из работ Амударьинского отряда АО-1968. –М.: “Наука” 1969.
49. Пьянков И.В. Ктесий как историк //Античная древность и средние века. Свердловск 1975.
50. Pumpelly R Archeological and Phisico-Geogrephical Reconnaissance in Turkestana Carnegie Institute of Washington, Publication, 26. 1905.
51. Prasek J. Geschichte der Meder und Perser bis zur makedonischen Eroberung. Journal of Hellenic Studies, 1907.

52. Ранов В.А. Каробкова Г.Ф. Туткавул-многослойная поселение Гиссарской культуры в Южном Таджикистане. // СА, №2, 1972.
53. Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. –Т. 2005.
54. Рапопорт Ю.А. Трудновская С. А. Городище Гауркальа. ТХАЭЭ. Т 2, –М.: “Наука”, 1958.
55. Сагдуллаев А. Культура северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа. Автореф.дисс.кан. ист наук, –М., 1978.
56. Сарианиди В.И. Юго-западная Азия: Миграция, арьи и зороастрийцы // ИБ. МАИКЦА, Вып.3 –М., 1987.
57. Спришевский В.И. Чустское поселение Автореф.дисс.канд.дисс. –Т., 1963.
58. В.М.Массон .Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. –М.: “Наука”, 1966.
59. Сайко Э.В. Предпосылки и условия формирования древнего города // Древние города. –Л., 1977.
60. Сулейманов Р.Х, Сагдуллаев А.С. Сложение и развитие урбанизированной культуры Кеша в древности и средневековье// Шахрисабз шахрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. –Т., 2002.
61. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. –Т.: “Фан”, 2009.
62. Хожаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т.: “Фан”, 2007.
63. Собиров Қ, Рўзимов С. Археологические работы в Хазараспе // Вестник ККО АН Руз №3-4, 2003.
64. Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: “Наука”, 1948.
65. Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. // СА, №6, 1940.
66. Филанович М.А Ташкент: Этапы и развитие города и городской культуры. –Т., 1983.
67. Фрай Р. Наследие Ирана. –М.: “Наука”, 1972.
68. Хазанов А.М. Разложение первобытно-общинного строя и возникновение классового общества // Первобытное общество. –М.: “Наука”, 1975.

69. Хожаниёзов Г., Хелмс С.У. Снеддон Э. Археологические исследования на городище Акшахан калъа. в 2001 г. -Самарқанд, 2002.
70. Шишкин А.В. Варахша. –Т.: “Фан”, 1963.
71. Шишкина Г.В. Древний Самарканд и его округа // городская культура Бактрии-Тохаристана и Согда. Материалы советско-Французского коллеквиума. –Т.: “фан”, 1987.
72. Шифман А.С. Каллисфен // ВИ №6, 1974.
73. Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма. Автореф. дисс. ист. наук. Нукус, ККО. Ан Руз 2001.
74. Ершов С.А. Археология Туркменской ССР за 20 лет. // Известия Туркм. Фан ССР 1944.
75. Энеолит Средней Азии. –М.: “Наука”, 1968.
76. Ягодин В.Н Хоразм-сатрапия государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2013.
77. Неразик Э.Е. Сельское жилище в Хорезме (1-ХУ н.э.вв). –М.: “Наука”, 1976.
78. Курций Руф. VII. IV. 5.
79. Квинт Курций Руф VII. VII. 2.
80. Страбон. География. XI. 2.